

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JISMONIY TARBIYA VA SPORT
DAVLAT QO'MITASI**

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA INSTITUTI

**Korbut V.M.
Zoitova G.M.**

**"SPORT PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH"
5610500-SPORT FAOLIYATI (SUZISH)
I VA II BOSQICH UCHUN**



Toshkent – 2017

Mualliflar:

Korbut V.M. - “Suv sporti va eshkak eshish turlari nazariyasi va uslubiyati” kafedrasi mudiri, professor.

Zoitova G.M. – “Suv sporti va eshkak eshish turlari nazariyasi va uslubiyati” kafedrasi o’qituvchisi

Taqrizchilar:

Xalmuhamedov R.D. – O’zbekiston Davlat Jismoniy tarbiya institutining ilmiy ishlar bo’yicha prorektor, p.f.d., professor.

Gnedovskiy A.I. – O’zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatgan murabbiy.

O’quv qo’llanma maxsuslashtirilgan oliy o’quv yurtlari, jismoniy tarbiya fakultetlari, bolalar va o’smirlar sport maktablari, kollej, litsey o’quvchilari, malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun mulljallangan.

O’quv qo’llanma sport nazariyasi sohasidagi eng yangi ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan suzuvchilar sport tayyorgarligining asosiy bo’limlari berilgan.

Suzuvchilarning boshlang’ich tayyorlov guruhidan tortib, to oliy sport mahorati darajasigacha ko’p yillik sport tayyorgarligi jarayonini rejallashtirish, tuzish va nazorat qilishiga alohida e’tibor qaratilgan. Sport mahoratini takomillashtirishning vosita va usullari bat afsil ko’rib chiqilgan.

O’quv qo’llanma, shubhasiz, jismoniy tarbiya, bolalar va o’smirlar sportida yuqori yutuqlar sporti sohasida ishlayotgan murabbiy va mutaxassislarda qiziqish uyg’otadi.

ANNOTASIYA

Qo'llanmaning yaratilishga sportdagi yuqori yutuqlar talablari va mamlakatdagi o'sib kelayotgan avlod salomatligi to'g'risidagi g'amxo'rlik sabab bo'lган. Ushbu qo'llanmani tayyorlashda muallif sport va sport fanining rivojlanishidagi zamonaviy yo'nalishlarini hisobga olgan. Oliy o'quv yurtlari, bolalar va o'smirlar sport maktablari va maxsuslashtirilgan olimpiya zahiralari bolalar va o'smirlar maktablari uchun qo'llanma me'yoriy huquqiy hujjatlar va sport tayyorgarligining eng muhim qonun-qoidalari asosida tuzilgan.

ANNOTATION

About the taking care of health of young and growing generations in our country and requirements of high achievements in sport have been caused in order to make this manual. Modern trends of development of the sport subject and preparing this manual have been also calculated by the author of this manual. This manual is devoted to the higher educational institutions, sport schools for children and juniors, Olympic Reserve schools for children and juniors which are specialized on sport and it's organized on sport and it's organized according to the most important rules of preparing sport and legal documents.

АННОТАЦИЯ

Для создания учебного пособия большую роль сыграло требования к высоким спортивным достижениям и забота о здоровье молодого поколения в нашей Республике. При подготовке данного пособия авторами были учтены современные направления в развитии спорта и спортивной дисциплины. Пособие подготовлено на основании главных нормативно – правовых документов в сфере высших учебных заведений, детско-юношеских спортивных школ, специализированных детско-юношеских спортивных школ олимпийского резерва и правил спортивной подготовки.

KIRISH

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi terma jamoa a'zolari va yaqin kelajakda zahiradagi sportchilarni tayyorlashda mash-g'ulotning zamonaviy tizimini qulaylashtirish va innovatsion jarayonlarni rivojlantirish strategiyasi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Sport maktabi qo'shimcha ma'lumot muassasasi bo'lib, sog'lom hayot tarzi shakllanishi, kasbiy yo'lini belgilash, jismoniy, ma'naviy va axloqiy qobiliyatlarni rivojlantirish, sport g'alabalarining yuqori darajasiga erishishga imkon berishga qaratilgan.

Ko'p yillik tayyorgarlik yosh sportchidan xalqaro klassdagi sport ustasi yetishib chiqadigan uzoq muddatli davrni o'z ichiga oladi. Oliy o'quv yurtlari, bolalar va o'smirlar sport maktablari (BO'SM) va maxsuslashtirilgan olimpiya zahiralari bolalar va o'smirlar maktablari (MOZBO'M) sharoitlarida sportchilarni ko'p yillik tayyorlash maqsadlarini muvafaqiyatli amalga oshirishda o'qitish, mashg'ulot va o'quv mashg'ulot va tarbiya jarayonlarini tashkil qilishda ilg'or usul va uslubiyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy o'quv yurtlari, BO'SM va MOZBO'M uchun qo'llanmada birinchi bo'lib sportda doping qo'llanishiga yo'l qo'yib bo'lmasligi masalalari ko'rib chiqilgan va Internet sahifalari bo'ylab qisqacha yo'l ko'rsatkich berilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmani yaratishda ilmiy tadqiqot natijalari, sport amaliyotining ilg'or tajribalaridan foydalanilgan, shuningdek, Vatanimizda va chet ellarda nashr etilgan qo'llanmalar tahlil qilingan.

Ishda bolalar va o'smirlar sport maktablari, maxsuslashtirilgan bolalar va o'smirlar Olimpiya zahiralari maktablari uchun sport tayyorgarligi ma'lumotlaridan foydalanilgan.

Qo'llanma murabbiylar, oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari, MOZBO'M, BO'SM, YuSMM, sport klublari, jismoniy tarbiya oliy o'quv yurtlari va jismoniy tarbiya fakultetlari, litseylar, kollejlar, malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun mo'ljallangan. Shuningdek, ushbu qo'llanma o'z mazmuni bo'yicha turli malakadagi sportchilar uchun ham foydalidir.

FANGA KIRISH.



Inglizlar suzishni musobaqa sporti darajasida rivojlantirgan millatdir. XIX asrning o‘rtalariga kelib (1840-yillar) doimiy suzish musobaqasi Angliyada Milliy Suzish jamiyatni tomonidan tashkil e’tilgan Londonning oltita sun’iy suv havzalarida bo‘ladigan bo‘ldi. Ushbu sport turi mashhur bo‘lgani sari ko‘pgina suv havzalari qurila boshlandi va yangi boshqaruv organi, ya’ni Ishqibozlar suzish birlashmasi (ISB) tashkil etilganda esa 1880-yilda ularning soni 300ta a’zo klublar sonidan ko‘proq miqdorga etdi.

1896-yildagi ilk zamonaviy Olimpiya o‘yinlarida faqatgina 4ta suzish musobaqasi tashkil etildi, ulardan uchtasi hozirda katta mashhurlikka erishgan Erkin suzish turidir. 1900-yil Parijdagi ikkinchi Olimpiya o‘yini o‘z ichiga yuqori noodatiy suzish turini oldi: biri to‘sqli yo‘nalishli, boshqasi suv ostida suzishni sinovchi turi va uchinchisi esa 4000 metrga suzish edi, hozirgacha eng uzun masofa sanaladi. Ushbu uch hodisa Olimpiya o‘yinlarida qayta o‘tkazilmadi. Eng birinchi Olimpiya suzish o‘yini qirg‘oqlarida 3da yunon suzuvchilari o‘rtasida erkin suzish usulida 100metrga suzishda bo‘lib o‘tgan, bu esa o‘z suzib turgan qayiqlaridan sakrash bilan boshlangan musobaqa edi. G‘alaba 2 daqiqa-yu 20 soniyada yutgan Ionis Malokinsga nasib etdi. Orqachaga suzish usuli Parijda (1900-yilda) asos solindi va Brass suzish usuli Londondagi 1908-yilda o‘yinlardan boshlab, Olimpiada suzish usuli deb tan olindi. Qariyb yarim asr o‘tib to‘rtinchi usuldan oldin Melburn o‘yinlariga 1956-yilda Batterflay suzish usuli qo‘sildi.

Zamonaviy bosqichning ilk ko‘rsatkichlari 1904-yilda Sen-Luida paydo bo‘la boshlagan, bu vaqtgacha esa u erkaklar foydalangan usul bo‘lib kelgan. Turli sabablarga ko‘ra zamonaviy Olimpiya o‘yinlarining ilk yillarida ayollar suzish turidan mustasno edilar va ular ilk marotaba Stokgolmda 1912-yildagina birinchi marta ushbu sport turiga ular ham qo‘shilishdi. 1896-yil va yana 1900-yilda ayollar

qatnashishlariga ruxsat etilmagan, chunki zamonaviya Olimpiadani rivojlantiruvchisi Baron Pier de Kaubertin Konservativ asrning odatiy fikriga, ya’ni ayollar musobaqalarga qatnashish uchun juda zaif deb o‘ylardi. Suzish tezda suzish Olimpiya o‘yinlarining eng jozibali sportiga aylandi va hozirda Olimpiada suzish sessiyasiga chipta topish bir muncha qiyinlashib qoldi. Sport orqali yangiliklar 1912 va 1920-yil Erkin suzish g‘olibi tituliga ega bo‘lgan Dyuk Kaxanomaku (AQSH) kabi bir necha suzuvchilarga yangidan yangi imkoniyatlarni ochdi. 1daqiqa ichida 100metrga Erkin suzish bo‘yicha ilk suzuvchi bo‘lgan o‘sha amerikalik Joni Veismuller balki eng mashhur Ikkinchiji jahon urushi oldingi suzuvchidir. Uning sportdagi yutuqlari hatto Golivud prodyuserlarini ham maftun etdi va u ilk Tarzan kinolarida sur’atga tushishda davom



ettirdi. Boshqa bir o‘z karerasini suzish havzasida boshlagan yulduz 1932-yilgi Olimpiya championi Baster Grab (keyinchalik Flesh Gordon deb nom qozongan). Grab Golivudga o‘z yo‘nalishini 400 metrli Erkin suzish titulini olish orqali boshlagan, uning so‘zi bilan aytganda “mening hayotimni o‘zgartirgan 10 soniya”.

Myunxen o‘yinlarida 1972-yilda Mark Spitsning 7 oltin medali uning butunjahon afsonaviy sport yulduzi maqomini qo‘lladi, 2004-yilda Olimpiya o‘yinlari amerikalik mixail Felps va avstraliyalik Yen Torp global sport ikonalari sifatida o‘z o‘rinlarini tasdiqlashdi. O‘xshash holda ushbu o‘yinlarida gollandiyalik suzuvchi Petr Van den Xugebandning 48.17 soniyali g‘olib chiqqan vaqtin Erkaklar 100metrga Erkin suzishda g‘olib chiqqani Malokinning harakatlari birinchi marta bo‘lgan Olimpiya suzishidagidan 1 daqiqa va 30 soniyaga tezroq bo‘lgan.

Sport pedagogik mahoratini oshirish



Usullar.¹ Ko'krakda krol suzish eng mashhur usuldir. Texnik jihatdan qoidalar ichida erkin usul raqobatchilari ular xohlagan har qanday usuldan foydalanishlari mumkin, lekin Ko'krakda krol (aslida frontkrol deb ma'lum) eng tez usuldir. Mahoratsizlikning sabablari bir nechatadir, lekin suzishni o'z yo'lakchasiidan tashqarida boshlasangiz, suv havzasining tubida yurib va qaytayotganda yoki finishda devorga tegmaslik kerak.

Chalqancha suzish usuli erkin suzish usuliga o'xshaydi, chunki oyoq va qo'llarning harakatini o'zgartirish usuli o'xshaydi. Start bo'lganda raqobatchilar o'z o'rinalarini devor ro'parasiga o'tirgan va ikkala qo'l bilag start bloklarini boshlash holda boshlanadi. Qaytishda o'z harakatlarini basharishda muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan tashqari, mahoratsizlik uchun yagna bir oddiy sabab startdan yoki qaytishdan oldin suv ostida 15metr belgini qaytishdir.



Brass suzish usuli bir muncha murakkab suzish usulidir, oyoq va qo'llarning engil koordinatsiyasiga olib keladi. Erkin suzish va chalqancha suzishdagi bevosita farqda qo'llar va oyoqlar bir xil harakat qilishi va bir xil yo'sinda harakatlanishi kerak. Ko'pincha oddiy qo'llar va oyoqlarni harakatlantirishda qilinadigan xato munosabat holida fros usulida suzish 4ta usullarning eng sekinidir va raqobatli mahoratsizlik ma'nosida eng muzokaralidir. Mahoratsizlikning oddiy sabablari qaytish vaqtida bir qo'l bilan devorga tegish, qaytishda batterflay itarishni bajarish yoki itarishda qo'llarni son qismidan pastda harakatlantirishdadir.



Batterflay eng ko'p o'yashni talab etadigan usullardan biridir. Suzuvchining tanasi deldinning harakatiga o'xshash tarzda to'lqinsimon harakat qiladi. Oyoqlar bir yo'sinda harakatlanishadi, ya'ni harakatlanishda suv ustida qo'llarni past oldinlatish bilan bo'ladi, bunda butun tananing holati sportchini oldinga itarishda kerakdir.

¹ Alan Lynn, Swimming: Technique, Training, Competition Strategy

Mahortsizlikning oddiy harakati qaytish vaqtida devorga bir qo‘l bilan tegish yoki qo‘l yoki oyoqlarning o‘zgartirish harakatlaridir.

Individual har xil usullarda suzuvchilar bir xil masofada har bir suzish usulidan foydalanib bahslashadi. Ushbu musobaqa o‘z ichiga texnika, tezlik va chidamlikni oladi va u sportda Dikatron (o‘nta sport turini o‘zida jamlagan musobaqa) yoki Xeptatlon (etti ta sport turini o‘zida jamlagan) hodisalarning suv bilan bog‘liq ekvivalentidir. Usullarning ketma-ketligi quyidagicha: batterfly usuli, chalqancha suzish, brass usuli, erkin suzish.

To‘rtta sportchi bir xil guruhdan munosib hodisada musobaqalashadi. Erkin suzish munosib uchun barcha suzuvchilar ushbu eng tez usulidan foydalanishadi (garchi texnik jihatdan gapirganda, har qanday usul qoidalaridan tashkil topgan). Aralash munosib holatlar barcha to‘rtta usuldan ham quyidagi ketma-ketlikda foydalanadi: chalqancha suzish, brass usuli, baterfly usuli, erkin suzish. Chalqancha suzish birinchi usul, chunki bu suzuvchilarga suvda boshlashga imkon yaratadi va keyinchalik ular usullarni suzish starti boshlangandan keyin o‘zgartirishadi. Chiqayotgan suzuvchining oyog‘i kirayotgan suzuvchining barmoqlari devorga tegishidan 3/100 soniyadan keyin bloklarga teksa, nunosib o‘zgartirishlar muhimdir. Agar chiqayotgan suzuvchi erta harakatlansa, uning guruhi chetlantiriladi.

I BOB. SPORTCHA SUZISH USULLARINI O'RGATISH.

Ushbu bobda suzish texnikasini o'rgatish va takomillashtirish uchun asosiy mashqlar keltirilgan.

Suzishga o'rgatishning asosiy vositalariga jismoniy mashqlarning quyidagi guruhlari kiradi:

- umumrivojlantiruvchi, maxsus va quruqlikdagiga taqlid mashqlari;
- suv muhitini o'zlashtirish uchun tayyorgarlik mashqlari;
- suvga o'quv sakrashlari;
- suvda o'yin va o'yin-kulgilar;
- suzishning sport usullari texnikasini o'rganish uchun mashqlar.

Umumrivojlantiruvchi, maxsus va quruqlikdagiga taqlid mashqlari.

Umumrivojlantiruvchi va maxsus jismoniy mashqlar quyidagi maqsadlarga qo'llaniladi:

- shug'ullanuvchilarning umumiyligi jismoniy rivojlanish darajasini oshirish;
- suzishda o'qitish va mashg'ulotning muvaffaqiyatli bo'lishini aniqlovchi asosiy jismoniy sifatlarni takomillashtirish (harakatlarning o'zaro mosligi, kuch, tezlik, chidamlilik, bo'g'imdardagi harakatchanlik);
- shug'ullanuvchilar e'tiborini va suvda asosiy o'quv materialini o'rganishga dastlabki tayyorgarlikni tashkil qilish;
- shug'ullanuvchilarning suzish ko'nikmalarini tez va sifatli egallab olishlariga imkon beruvchi umumiyligi jismoniy darajasini oshirish uchun juda turlituman jismoniy mashqlar va boshqa sport turlari mashg'ulotlaridan foydalaniladi: safdag'i va umumrivoj-lantiruvchi gimnastika mashqlari; ochiq havodagi sport o'yinlari (voleybol, futbol, basketbol); yengil atletika mashqlari (yurish, yugurish, sakrash, irg'itish); chang'ida yurish; konkida yugurish; eshkak eshish; velosipedda yurish.

Suzishni o'rganishda umumrivojlantiruvchi mashqlarni bajarish, eng asosiysi, tayanch-harakat tizimini mustahkamlash, muskul korsetining shakllanishi va to'g'ri qaddi-qomatni tarbiyalashga, ayniqsa bolalar va o'smirlarda yo'naltirilgan.

O'qitishning birinchi bosqichlarida, ya'ni yangi kelganlar hali suvda muayyan bo'lak va masofalarni suzib o'tish va shu bilan chidamlilikni takomillashtirishni qila olmaydigan paytda jismoniy mashqlarning boshqa turlari (yurish, yugurish, ochiq havodagi sport o'yinlari va boshq.) dan foydalanish, shuningdek, gimnastika mashqlari (seriyalar)ni bajarishning takroriy va intervalli usullarini keng qo'llash zarur.

Tezlikni rivojlantirish uchun mashg'ulotlarda ochiq havodagi sport o'yinlari eng yuqori sur'atda qisqa vaqt davomida (10-12 s) sakrash, irg'itish, yugurishda start tezlanishlari mashqlarini bajarish, maxsus gimnastika mashqlari va suvdagi mashqlar (o'rgatishning birinchi bosqichlarida qo'llar bilan yon devorini ushlagan holda oyoq harakatlari bilan bo'ladigan mashqlar)ni kiritish lozim.

Suvda bajariladigan harakatlarga shakli va tavsifi jihatidan o'xshash quruqlikdagi taqlid harakatlar suzish texnikasini tez va sifatli o'zlashtirib olishga imkon beradi. Yangi kelganlar ko'krakda yoki chalqanchasiga krol suzishdagi kabi qo'llar bilan eshkak eshish harakatlari shakli bilan quruqligida tikk yoki og'ib turgan holda yelka va qo'l bilan turli aylanma harakatlarni ("Tegirmon" ko'rinishdagi) bajarganda tanishadilar. Ular, shuningdek, rezina amortizatorlar yoki bintlar yordamidagi mashqlarni qo'llab, qo'llar bilan eshkak eshishni bajarayotganda suv qarshilagini yengish zaruriyati bilan oldindan tanishadilar. Qarshilik kattaligi eng yuqori (har bir shug'ullanuvchi uchun) kattalikning 40-50% dan oshmasligi lozim bo'lib, uni bu mashqni bir marta bajarganda aniqlab olinishi mumkin. O'zgaruvchan mashqlar bilan bir qatorda ishlayotgan muskullar zo'riqishi izometrik tavsifidagi turg'un mashqlardan foydalaniadi, masalan, sirpanishga taqlid qilinayotganda yuzaga keladigan muskul hissi bilan tanishish maqsadida ("sirpanish" holatini qabul qilish va bir necha marta gavda, qo'l va oyoq muskullarini zo'riqishtirish).

Boshlang'ich tayyorlov bosqichlarida suzuvchining jismoniy sifatlarining takomillashuvi suzish vositalariga qaraganda umumrivoj-lantiruvchi va maxsus jismoniy mashqlarni qo'llaganda tezroq va samaraliroq amalga oshadi. Shuning uchun suzish bo'yicha har bir mashg'ulotning tayyorlov qismiga muayyan dars

Sport pedagogik mahoratini oshirish

fazifalari bilan bel-gilanuvchi, umumrivojlantiruvchi va maxsus jismoniy quruqlikdagi mashqlar majmui albatta kiritiladi. Bunday mashqlar majmuini bajarish, yangi kelganlarni suv muhitining odatlanmagan sharoitlarida o'quv materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirishga tayyorlaydi. Suzishni o'rganish davrida mashqlar majmuini har kuni ertalabki badantarbiya paytida bajarish lozim.

Tayyorlov mashqlarni bajarish yangi kelganlarga suvning fizik xossalari bilan tanishish, suvning itarib chiqaruvchi ko'tarma kuchi va suvga tayanishi hissini sinab ko'rish, suv muhitining o'rganilmagan sharoitlarida mo'ljallash ko'nikmalarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Suv muhitini o'zlashtirishdagi barcha mashqlar nafas olgach uni ushlab turish bilan bajariladi. Suv muhitini o'zlashtirish suzishning sportcha usullari texnikasi tarkibiy qismlari hisoblanuvchi oddiy mashqlarni o'rganish bilan bir vaqtda ro'y beradi. Muvozanatni, gavdaning yotiq holatini ushlab turishga, suzishda gavdaning suyriligin yaxshilashga yordam beruvchi sirpanish mashqlariga alohida e'tibor qaratiladi.

Qo'l va oyoqlar bilan oddiy eshkak eshishlar ("kir chayish", "qayiqcha", "futbol", "sakkiz yozamiz" va boshq. turdag) harakatlari suvni his qilish, suvga tayanish ko'nikmasi, uni panja, oyoq panjasni, boldir bilan his qilishni shakllantirib, bu maqsadga muvofiq eshishni yo'lga qo'yish uchun asos hisoblanadi.

Shuningdek, birinchi darslarda o'zlashtirilgan suv ichida nafas olish va ko'zlarni ochish ko'nikmasi suvda to'g'ri siljishning zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Suvga boshning botishi ko'nikmalari uzunlikka va chuqurlikka sho'ng'ish kabi amaliy suzish elementlarini egallahni yengillashtiradi. O'rganuvchilar suvga bosh bilan botish, qalqib chiqish va suv ustida yotishni bilib olganlaridan so'ng, suv muhitini o'zlashtirishdagi ba'zi bir mashqlarni bajarish ("Po'kak", "Meduza")ga zarurat qolmaydi, va ular darslarga boshqa kiritilmaydi.

Suv muhitini o'zlashtirish mashqlarini besh kichik guruhgaga bo'lish mumkin: suvning zichligi va qarshiligi bilan tanishish mashqlari; suvga bosh bilan botish; suv ichida sakrash va ko'zlarni ochish; suv ustiga qalqib chiqish va yotish, suvga nafas chiqarish; sirpanishlar.

I.1. Suv zichligi va qarshiligi bilan tanishish mashqlari²

Vazifalar:

- suv bilan o'zaro ta'sirini tez o'zlashtirish, o'rganilmagan muhit – suv oldidagi qo'rquv hissini yo'qotish;
- suv harakati, zichligi, egiluvchanligi va qarshiligi bilan tanishish; suvga tayanish va undan asosiy eshish yuzalari panja, bilak, oyoq panjasni, boldir bilan uchib ketish (bu keyinchalik qo'l va oyoqlar bilan eshish harakatlarini egallab olish uchun zarur).

Mashqlar:

ajratuvchi yo'lka yoki hovuz yon devorini ushlab, suv ostida yurish;



suv ostida juft bo'lib yurish: hovuzni bir tomonga kesib o'tish va orqaga oldin qadamlab, so'ngra yugurib o'tish;

suv ostida qo'llar yordamisiz yugurishga o'tish, harakat yo'naliшини o'zgartirish bilan yurish;



qo'llar yordamisiz yonga (chap va o'ng yon bilan) qadam tashlab yurish bilan yugurishga o'tish;

² Nechunaev I., "Plavanie: kniga – trener" 2013, Moskva.

Sport pedagogik mahoratini oshirish

oldinga engashib, suv ostida yurish: qo'llar oldinga cho'zilgan, panjalar birlashgan;



“Kim suvdan chiqib, yuqoriroqqa sakraydi”? O’tirish, oyoq va qo'llar bilan suvdan itarilish va yuqoriga sakrab chiqish;



oyoq yuzining do'ng joyi va boldirning old yuzasi bilan navbatma-navbat oyoq harakatlari (xuddi futboldagi zarbaga o'xshatib);



brass usuli bilan navbatma-navbat oyoq harakatlari (oyoqning ichki tomoni bilan to'pni to'xtatib qolishga o'xshatib)



navbatma-navbat yoki bir vaqtning o'zida qo'lning eshish harakatlari yordamida oldinga harakat;



xuddi shunday, oldinga orqa bilan;

“Kir chayish”. Suv tubida turib, harakat sur'atini o'zgartirish bilan o'ng-chap, old-orqaga qo'l harakatlarini bajarish;



suvgan tubida turib qo'llarni oldinga cho'zib, kaftlarni tashqariga qaratib, panjalarni burish va qo'llarni yonga uzatish (suvgan chetga “surish”), so'ngra kaftlarni pastga qaratib, panjalarni burish va ko'krak oldida birlashtirish;



“Sakkiz sonini yozamiz”. Suvgan tubida turib, egri chiziqlar bo'ylab, qo'llar bilan eshish harakatlarini bajarish;



suvgaga iyakkacha tushib, qo'llarni suvdan chiqarmasdan suvgan yondan orqaga eshib, engashgan holatda yurish;



suvgaga iyakkacha tushib va engashib turib, qo'llar bilan galma-galdan eshish harakatlarini bajarish;



suvgaga iyakkacha tushib, qo'llar bilan bir vaqtning o'zida eshish harakatlari bilan o'ziga yordam berib, engashgan holatda yurish;



suvgaga iyakkacha tushib va engashib turib, bir vaqtning o'zida qo'llar bilan eshish harakatlarini bajarish;



Sport pedagogik mahoratini oshirish

suvga iyakkacha tushib engashgan holda yurish, bunda bir vaqtning o'zida qo'llarning eshish harakatlari bilan o'z-o'ziga yordam berish;



suvga iyakkacha tushib va to'g'ri turgan holda (oyoqlar yelka kengligida), ko'krak oldida "yotgan" sakkiz ko'rinishda qo'l harakatlarini bajarish;



xuddi shunday, oyoqlarni suv tubidan biroz uzish va har bir yangi urinishda suv ustida iloji boricha ko'proq turishga urinib, suv yuzasida o'zini ushlab turish.



suv tubida turib, suv yuzasini shapillatish: panjalar, tug'ilgan mushtum bilan; barmoqlar keng yoyilgan kaftlar bilan, barmoqlar qattiq siqilgan kaftlar bilan



I.2. Bosh bilan suvgaga tushish, shung'ish va suv ichida ko'zlarni ochish³

Vazifalar:

- suvgaga tushish oldidan instinctiv qo'rquvni bartaraf qilish: suvning itarib chiqaruvchi ko'rsatish kuchi bilan tanishish;
- ko'zlarni ochish va suvda mo'ljal olishga o'rgatish mashqlari.
- mashqlarni bajarish paytida ko'zlarni qo'l bilan artmaslikka o'rganish

³ Nechunaev I., "Plavanie: kniga – trener" 2013, Moskva.

lozim;

Mashqlar:

nafas olish, og'izni bekitish va yuzni burun sathigacha tushirib, sekin-asta suv tagiga tushish;



nafas olish, nafasini ushlab turish va yuzni ko'zlar sathigacha tushirib, suv tagiga tushish;



kaftlarga suv olish va yuzni yuvish;



xuddi shunday hovuzning yon devorini ushlagan holda.



hovuz tubi bo'ylab harakatlanishda ajratuvchi yo'lka tagiga (rezinka aylana, taxta) sho'ng'ish.





"Suv tubiga o'tir". Nafas olish, nafasni ushlash va, suvgaga tushib, uning tubiga o'tirishga urinish;




Sport pedagogik mahoratini oshirish

Juftlik mashqi. Bir-biriga qaragan holda turish, nafas olish, suv tagiga tushish va sherikning keng ochilgan oyoqlari orasiga sho'ng'ib kirish.


bosh bilan suv tagiga tushib, ko'zlarni ochish va hovuz tubigacha bo'lган qoplama toshtaxtalarini sanash.



“Xazinani olib chiq”. Bosh bilan suvgaga tushib, ko'zlarni ochish va hovuz tubiga tashlangan o'yinchoq (qalpoqcha)ni topish.



“G'avvozlar”. Juftlik mashqi. Suv tagiga tushib, ko'zlarni ochish va sherikning yuzga yaqinlashtirilgan qo'lidagi barmoqlarni sanash.



I.3. Suvdan suzib chiqish va suv ustida yotish⁴

Vazifalar:

- o'r ganilmagan hidrostatik vaznsizlik holati bilan tanishish;
- suv ustida gorizontal holatda yotish ko'nikmasini egallash;
- suv ichida gavda holatining mumkin bo'lgan o'zgarishlarini egallash.

Mashqlar:

⁴ Nechunaev I., “Plavanie: kniga – trener” 2013, Moskva.



yon devorini to'g'ri uzatilgan qo'llar bilan ushlab, nafas olish va yuzni suvga tushirib (iyak ko'krakka taqalgan), tos va oyoqlarni suv yuzasiga ko'tarib, suvga yotish;



“Po’kak”. Chuqur nafas olish, nafasni ushlab turish va, suvga sekinlik bilan tushib, zinch guruhlanishi holatini egallash (iyak buklangan tizzalar orasiga taqaladi). Bu holatda o’ngacha sanab, suv yuziga suzib chiqish;

xuddi shunday oldini mashqdagidek, lekin oyoqlar va tos suv yuzasiga ko’tarilishi bilanoq, yon devordan panjalar bilan itarilish;

“Meduza”. “Po’kak” mashqini bajarib, qo'l va oyoqlarni bo'shashtirish;



Sport pedagogik mahoratini oshirish

“Yulduzcha”. “Po’kak” holatidan oyoq va qo’llarni tomonlarga uzatish (yoki, nafas olib va yuzni suvga tushirib, suv ustida yotish; qo’l va oyoqlar tomonlarga uzatilgan);



“Yulduzcha” ko’krak usti holatida: bir necha marta qo’l va oyoqlarni birlashtirish va yoyish;



pastak yon devor (sherik qo’li)ni bir qo’l bilan ushlab, chalqancha yotish (ikkinchi qo’l gavda bo’ylab turadi), so’ngra sekin-asta qo’lni yon devordan olish;




chalqancha yotgan holda
“Yulduzcha”: bo’yin bo’ylab suvga tushish, so’ngra ensani suvga tushirib (qat’iy yuqoriga qarash; quloqlar suv ichida bo’lishi lozim), suv tubidan itarilish; qo’l va oyoqlarni yon tomonga uzatish;



xuddi shu dastlabki holatda qo’l va oyoqlarni bir necha marta birlashtirish va yoyish;

chalqancha yotgan holatda
 “Yulduzcha”; so’ngra oyoq va
 qo’llarni birlashtirish (nafas olib,
 ushlab turish) va ko’krakka aylanish
 – ko’krakda yotgan holatda
 “Yulduzcha”.



I.4. Suvga nafas chiqarish

Vazifalar:

- nafas olishda uni ushlab turish ko’nikmasini egallah;
- nafas olishda uni ushlab turib, nafas chiqarish va uni olishni bilish;
- suvga nafas chiqarishni egallah.

Mashqlar:

kaftlarga suv olish va, lablarini
 naycha qilib, qattiq nafas chiqarish
 bilan suvni tushirish;



lablarni suv yuzasiga tushirish va u
 yerda chuqurga puflash (issiq choyni
 puflagandek nafas chiqarish);



Sport pedagogik mahoratini oshirish

yuzni suvga tushirib, xuddi shunday qilish; nafas olish, so'ngra esa, lablarni suvga tushirib, nafas chiqarish;



yuzni suvdan ko'tarib va suvga botirib, suvga 20 marta nafas chiqarish;



juftlikdagi mashq – “Nasos”. Bir-biriga qarab turgan holda qo'l ushlashib, navbatma-navbat suvga nafas chiqarishni bajarish;



suv tubida siljib, yuzni suvga tushirib, nafas olish va chiqarishni bajarish (nafas olish uchun boshni chapga burib, suvga 20 marta nafas chiqarish); nafas olish uchun boshni o'ngga burib, xuddi shunday qilish.



I.5. Sirpanishlar

Vazifalar:

- muvozzanat va gavdaning suyri holatini egallash;
- harakat yo'nalishida oldinga cho'zilish mahorati;
- suzuvchining ishki kuchi va nafas olishni egallash.

Mashqlar:

ko'krakda sirpanish: qo'llar oldinga cho'zilgan. Hovuz tubida turib, qo'llarni yuqoriga ko'tarish; oldinga engashib, nafas olish, yuzni suvga tushirish va oyoqlar bilan itarilish; xuddi shunday, o'ng qo'l oldinda, chap qo'l gavda bo'ylab;




Qo'l holatlarini o'zgartirib, xuddi shunday;



xuddi shunday, qo'llar gavda bo'ylab;



chap yonda sirpanish: chap qo'l oldinga cho'zilgan, o'ng qo'l son yonida;



chalqancha sirpanish, qo'llar gavda bo'ylab;



Sport pedagogik mahoratini oshirish

xuddi shunday, o'ng qo'l oldinda,
chap qo'l gavda bo'ylab;



qo'llar holatini o'zgartirib, xuddi
shunday;



xuddi shunday, qo'llar oldinga
cho'zilgan;



gavdaning aylanma harakatlari bilan
sirpanish "Vint";




ko'krakda sirpanish: qo'llar oldinga
cho'zilgan; sirpanish o'rtaida boshni
oldinga ko'tarib, nafas chiqarish va
olishni bajarish;




xuddi shunday: o'ng qo'l oldinda,
chap qo'l gavda bo'ylab; sirpanish
o'rtaida chap tomonga nafas
chiqarish va olishni bajarish;



o'ng yonda sirpanish: sirpanish
o'rtasida tez nafas chiqarish-olish;



qo'llar holatini o'zgartirib, xuddi
shunday; o'ng tomonga nafas
chiqarish va olish;



xuddi shunday chap yonda.



I.6. Suvga o'quv sakrash

Vazifalar:


- suv oldidan instinktiv qo'rquvga barham berish va o'rganilma-gan muhit bilan o'zaro ta'sirni tez egallab olish;
- sakrash starti va amaliy suzish elementlarini muvaffaqiyatli egallahsha tayyorgarlik.

Mashqlar:

- yon devorda o'tirib va oyoqlar bilan suv chiqarib yuboriladigan tarnovga tiralib, qo'llarni yuqoriga ko'tarish (bosh qo'llar orasida), oldinga qattiq egilish, ko'krak bilan tizzalarga tayanib va oyoqlar bilan itarilib, suvgaga yiqilib tushish;

Sport pedagogik mahoratini oshirish

- yon devorda turib va uning chetini oyoq barmoqlari bilan mahkam ushlab, tayanch holatini egallash, o'tirib, qo'llarni yuqoriga cho'zish (bosh qo'llar orasida), pastga egilish va, muvozzanatni yo'qotib, suvga yiqilib tushish;
- xuddi shu dastlabki holatda oyoqlarni tizza bo'g'imlarida bukish, yuqoriga itarilish va suvga oyoqlarni pastga qaratib sakrash;
- qo'llar oldin gavda bo'ylab, so'ngra yuqoriga cho'zilgan;
- xuddi shu dastlabki holatda (qo'llar gavdaga qo'yilgan) bir oyoqni suv ustidan oldinga chiqarish, unga ikkinchi oyoqni birlash-tirish va suvga sakrashni bajarish. Qo'llarni yuqoriga ko'tarib, xuddi shunday;
- xuddi shu dastlabki holatda (qo'llar gavdaga qo'yilgan) bir oyoqni suv ustidan oldinga chiqarish, unga ikkinchi oyoqni birlashti-rish va suvga sakrashni bajarish. Qo'llarni yuqoriga ko'tarib, xuddi shunday;
- hovuzning yon devorida turib va uning chetini oyoq barmoqlari bilan mahkam ushlab, qo'llarni yuqoriga ko'tarish (bosh qo'llar orasida), old-



pastga engashish va, muvozanatni
 yo'qotib, suvga yiqilib tushish;
 - qo'llar oldin gavda bo'ylab, so'ngra
 yuqoriga cho'zilgan;
 - xuddi shu dastlabki holatda
 oyoqlarni tizza bo'g'imlarida bukish,
 yuqoriga itarilish va suvga oyoqlarni
 pastga qaritib sakrash;
 xuddi oldingi mashqdagi kabi, lekin
 oyoqlarni tizzada bukish va
 hovuzning yon devoridan itarilish.
 hovuzning yon devorida turib va
 uning chetini oyoq barmoqlari bilan
 mahkam ushlab, qo'llarni yuqoriga
 ko'tarish (bosh qo'llar orasida), old-
 pastga engashish va, muvozanatni
 yo'qotib suvga yiqilib tushish;

Tekshiriv savollari va vazifalar:


1. O'quv vositalarini sanab bering.
2. Suv muhitini egallahdagi tayyorlov mashqlarini aytib bering.
3. Suvning zichligi va qarshiligi bilan tanishish uchun mashqlarni sanab bering.
4. Suvga bosh bilan tushish, sho'ng'ish va suv ichida ko'zlarni ochish nima uchun kerak?
5. Suv ustida qalqib chiqish vaustida yotish nimani tavsiflaydi?
6. Suvga nafas chikarish nima uchun kerak?
7. Sirpanishni bajarishda qanday masalalar hal qilinadi?
8. Suvga o'quv sakrashlarini sanab bering?

I.7. Ko'krakda krol suzish texnikasini o'rghanish uchun mashqlar⁵

- D.h. – polda yoki skameyka chetida orqaga qo'llar bilan tayangan holda o'tirish; oyoqlarning tizza bo'g'implari to'g'rilangan oyoq cho'zilgan va ichkariga egilgan. Oyoq harakatlari bilan krol suzishga taqlid qilish.
- D.h. – qo'llar bilan yerga tiralib, skameykada ko'krakda ko'ndalang yotish. Oyoq harakatlari bilan krol suzishga taqlid qilish.
- D.h. – oyoqlarni suvga tushirib, qirg'oq yoki hovuz chetida o'tirish. Buyruq yoki o'qutivchi sanog'i bilan oyoqlar bilan krol suzish harakatlari.



- D.h. – qo'llar bilan yon devorni ushlab (tirsaklar hovuz devoriga taqaladi), ko'krakda yotish, iyak suv yuzasida. Oyoqlar bilan krol suzish harakatlari.



- D.h. – yon devorni, qo'llarni cho'zib ushlagan holda ko'krakda yotish;


⁵ Scott Riewald, Scott Rodeo, Science of Swimming Faster

yuz suvgaga tushirilgan. Oyoqlar bilan krol suzish harakatlari.


- D.h. – hovuz devorini to'g'rilangan qo'l bilan ushlagan holda xuddi shunday, ikkinchi qo'l gavda bo'y lab cho'zilgan. Qo'l holatlarini o'zgartirgan holda xuddi shunday.

- Nafas olish-chiqarish bilan xuddi shunday: gavda bo'y lab cho'zilgan qo'l tomonga boshni burish vaqtida nafas olish; yuzni suvgaga tushirishga taqlid qilish paytida nafas chiqarish bajariladi.

- Taxtani cho'zilgan qo'llar bilan ushlab, oyoq harakatlari yordamida suzish.



- Taxtani cho'zilgan bitta qo'lda ushlagan holda xuddi shunday. Oldin o'ng qo'l bilan taxtani old tomonda ushlash, chap qo'l – gavda bo'y lab; so'ngra qo'llar holatini o'zgartirish.



- Qo'llarni turli holatlarida oyoq harakatlari yordamida suzish; a) to'g'ri qo'llar oldinda; b) bir qo'l oldinda, ikkinchisi – gavda bo'y lab; v) ikkala qo'lga gavda bo'y lab; g) ikkala qo'l orqa tomonda, panja qarama-qarshi qo'l tirsagiga tegib turadi. Nafas olish boshni gavda bo'y lab uzatilgan qo'l tomonga burishib

Sport pedagogik mahoratini oshirish

yoki boshni oldinga ko'tarish paytida bajariladi, nafas chiqarish – yuzni suvga tushirish paytida.

Asosiy uslubiy ko'rsatmalar


1-10 mashqlarda oyoq tizzalari bukilmasligi, oyoq uchlari to'g'ri va biroz ichkariga egilgan bo'lishini kuzatish. 1-4 mashqlarda harakatlar sur'ati tez. 5-10 mashqlarda suv yuzasi yaqinida gavda holati tekis, cho'zilgan bo'lisi, harakatlar faol, kichikroq, ko'lamli va o'rtacha sur'atda oyoq kaftlari bo'shashgan bo'lishini kuzatish: 5-6, 9-10 mashqlar oldin nafas olish ushlab turilganda, so'ngra nafas olish bilan mos ravishda bajariladi.

Qo'l harakatlari va nafas olishni o'rghanish uchun mashqlar


- D.h. – turgan holda bitta qo'l yuqorida, ikkinchisi son bo'ylab. Ikkala qo'l bilan oldinga va orqaga aylanma va navbatma-navbat harakatlar – “tegirmon”. Qo'llar bilan turli yo'nalishli aylanma harakatlar.

- D.h. – gavdani oldinga biroz egib, oldinga tashlab turish; bir qo'l oldingi oyoq tizzasiga tayanadi, ikkinchisi – oldinga, eshishning boshlanish holatida. Bir qo'l bilan krol harakatlariga taqlid qilish.


- D.h – xuddi shunday; bir qo'l oldinda, eshishning boshlanish holatida; ikkinchisi son bo'ylab, eshishning tugallanish holatida. Qo'l harakatlari bilan krol suzishga taqlid qilish.




- D.h. – hovuz tubida oldinga tashlanish uchun turish; bir qo'l oldinga tayanadi, ikkinchisi suv yuzasida, eshish boshlanishi holatida; iyak suv ustida, to'g'ri oldinga qarash. Bir qo'lda krol suzish harakatlariga taqlid qilish (oldin o'ng, so'ng chap qo'l bilan). Nafasni ushlab turib (yuz suvga tushirilgan), xuddi shunday. Nafas olish uchun boshni burish bilan, xuddi shunday.



- Bir qo'lda taxtani ushlab, ikkinchi qo'l harakatlari yordamida suzish.



- Bir qo'l harakatlari yordamida suzish (ikkinchisi oldinga uzatilgan).




- Nafas olish bilan mos ravishda navbatma-navbat qo'l harakatlari yordamida krol suzish (qo'llar oldinga uzatilgan). Bitta qo'l eshishni tugatishi bilanoq, ikkinchi qo'l shu zahotiyoy uni boshlaydi. Nafas olish ishlayotgan qo'l tomonida bo'ladi.



Sport pedagogik mahoratini oshirish

- Xuddi shunday, yuz suvgaga tushirilgan; oyoqlar orasida suzish taxtasini yoki aylana qisilgan.



- “Uch-uch” nafas olish bilan mos ravishda qo’llar harakati yordamida suzish (nafas olish har bir uchinchi eshishdan so’ng bajariladi).



Asosiy uslubiy ko’rsatmalar.

11-14 mashqlarda harakatlarni uzatilgan qo’llar bilan bajarish, bunda songa eshish oxirida tegib, kaft orqaga qaratilgan. 14 mashqda eshish yelkalarni tebratmasdan, davomli bo’lishi shart, nafas olish qo’l songa tekkan paytda bajariladi. 15-19 mashqlarda gavdaning tekis holatda bo’lishini kuzatib turish lozim, bunda eshish tarang tortilgan panja bilan bajarilishi kerak, kaft orqaga qaratilgan bo’lib, qo’l tirsakda orqaga egilmasligi kerak; mashqlar sirpanishning boshida d.h. dan hovuz tubidan itarilgach, bir qo’l oldinda, ikkinchisi – son bo’ylab, so’ogra damlama chambarakni oyoqlar orasiga olib bajariladi. 15-17 mashqlar boshida nafasni ushlab, so’ogra nafas olishga mos ravishda bajariladi.


Harakatlarni umumiy moslashtirishni o’rganish

uchun mashqlar⁶

- Oyoqlarni uzlucksiz ishlatish bilan bo’ladigan suzish, bir qo’l oldinda,


⁶ Scott Riewald, Scott Rodeo, Science of Swimming Faster

ikkinchisi – son bo’ylab. Qo’llar bilan krol suzishda harakatlarni birlashtirish.



Oyoqlar bilan qattiq ishlashga urg'u berish bilan ko'krakda krol suzish (olti zarbali harakatlarning o'zaro mosligini shakllantirish uchun).

- Oyoq harakatlarini to'xtatib turib, qo'llar bilan qattiq ishlashga urg'u bergen holda, xuddi shunday (ikki va uch zarbali harakatlarning o'zaro mosligini shakllantirish uchun).



- Ikki tomonga “uch-uch” nafas olish bilan harakatlarning o'zaro to'liq mosligida suzish.



Asosiy uslubiy ko'rsatmalar.

20-mashqda oldin ikki, so'ngra uch va undan ko'proq harakat bosqichlari bajariladi. 21-22 mashqlar oldin nafas olishni to'xtatganda bajariladi, so'ngra harakat bosqichlari boshida, so'ngra har bir bosqichda nafas olish bajariladi.

Sport pedagogik mahoratini oshirish

Tekshiruv vazifalari:

1. oyoq harakatlari va naqas olishni o'rganish uchun bo'ladigan mashqlarni aytib bering.
2. qo'l harakatlari va nafas olishni o'rganish uchun bo'ladigan mashqlarni aytib bering.
3. harakatlarning umumiyligini o'rganish uchun bo'ladigan mashqlarni aytib bering.

I.8.Chalqancha krol suzish texnikasini o'rganish uchun bo'ladigan mashqlar

Oyoq harakatlarini o'rganish uchun bo'ladigan mashqlar⁷

- D.h. – chalqanchasiga yotib, hovuz devorini qo'llar bilan (yelka kengligida) ushlagan holda. Orqaning yuqori qismi bilan devorga tiralib, o'qituvchi buyrug'i yoki sanog'iga ko'ra chalqanchasiga oyoqlar bilan krol suzish harakatlarini bajarish.
- Gavda bo'ylab cho'zilgan ikkala qo'l bilan taxtani ushlab, oyoq harakatlari yordamida suzish.



- Harakat yo'naliishi bo'ylab cho'zilgan bitta qo'l holda, xuddi shunday.




- Oldinga cho'zilgan ikkala qo'l bilan (bosh qo'llar orasida) holda, xuddi shunday.

⁷ Scott Riewald, Scott Rodeo, Science of Swimming Faster



- Gavda bo'y lab cho'zilgan qo'llarning turli holatlarida oyoq harakatlari yordamida suzish; bir qo'l oldinda, ikkinchisi gavda bo'y lab, ikkala qo'l oldinga cho'zilgan (bosh qo'llar orasida).




Asosiy uslubiy ko'rsatmalar.

Gavdaning to'g'ri, tekis holatda bo'lishini kuzatib turish. Bosh ensa bilan suv ichida yotadi, quloqlar yarmisigacha suvga tushirilgan, nigoh yuqoriga qaratilgan. Tos va sonlar suv yuzasiga yaqin oyoqlar suvni qattiq ko'pirtirish lozim, tizzalar suvdan chiqmasligi kerak.

Qo'l haraqatlarini o'rGANISH UCHUN BO'ladIGAN MASHQLAR

- D.h. – bir qo'l yuqorida, ikkinchisi son bo'y lab yo'nalgan holda turish. Ikkala qo'l bilan orqaga aylanma harakatlar (“tegirmon”).
- Bir qo'l oldinga cho'zilgan, ikkinchi qo'l harakatlari yordamida suzish. Qo'l holatlarini o'zgartirilgan holda, xuddi shunday.




- Qo'llarning navbatma-navbat harakatlari yordamida suzish. Bir qo'l bilan

Sport pedagogik mahoratini oshirish

eshishni bajargandan so'ng u qolib oladi, ikkinchi qo'l eshishgi boshlaydi.



- Bir vaqtdagi qo'l harakatlari bilan suzish. Harakatlar eshish oxiridagi tezlanishga urg'u berish bilan bajariladi.



- Navbatma-navbat qo'l harakatlari yordamida, xuddi shunday.
- Oyoqlar harakatlar va bir vaqtdagi qo'l harakatlari yordamida suzish (ularni suvdan chiqarmasdan).




- Oyoq harakatlari yordamida suzish, qo'llar oldinga cho'zilgan. Bir vaqtida ikkala qo'l bilan songacha eshishni bajarish va ularni suv ustidan dastlabki holatga olib o'tish. Oyoq harakatlarini davom ettirib, eshishni ikkala qo'lda takrorlash.



- Bir qo'lda harakatlari yordamida suzish, ikkinchi qo'l oldinga cho'zilgan. Qo'l harakatlarini o'zgartirgan holda, xuddi shunday.



- Qo'llarning navbatma-navbat harakatlari yordamida krol suzish. Qo'llarni oldinda birlashtirgandan so'ng navbatdagi qo'l o'z eshishini bajaradi.



- Olti sanog'i bilan qo'llarni almashtirib, oyoq harakatlari yordamida suzish (bir qo'l oldinda, ikkinchisi – gavda bo'ylab). Olti sanog'idan so'ng o'r ganuvchi bir vaqtning o'zida bir qo'l bilan eshishni bajaradi, ikkinchi qo'l ni esa, suv ustidan olib o'tadi.




Sport pedagogik mahoratini oshirish

Asosiy uslubiy ko'rsatmalar.

Harakatlarni deyarli to'g'ri qo'llar bilan bajarish va qo'l panjalarining to'g'ri yo'nali shiga rioya qilish. Qo'llarni havo bo'y lab to'g'ri yelka ustidan olib o'tish, suvgaga yelka kengligida tushirish. Boshni orqaga tashlamaslik. Tos va sonlar suv ustiga yaqinroq. Oldinga cho'zilgan qo'l taranglashgan bo'lib, harakat yo'nali shi bo'yicha cho'ziladi. Boshlanishda mashqlar d.h. dan sirpanish bilan bir qo'l oldinda, ikkinchisi son bo'y lab, so'ngra oyoqlar orasida aylanib, bajariladi.

Harakatlarning umumiy moslashuvini o'r ganish uchun mashqlar⁸

- D.h. – chalqancha yotib, o'ng qo'l yuqorida, chap qo'l gavda bo'y lab. Qo'llar bir vaqtning o'zida harakat boshlaydilar: o'ng qo'l – eshish, chap qo'l – olib o'tish. So'ngra to'xtam qilinib, oyoqlar ishlashni davom ettiradi. Sekin- asta to'xtamni qisqartirib qo'l-oyoqlarning birga qo'shilib, olti zarbali mashqlarni bajarishga erishadi.



- Harakatlarining nafas olish bilan to'la mosligida suzish.
- Oyoqlarning kuchli harakatiga urg'u berib, xuddi shunday (harakatlarning olti zarbali o'zaro mosligini shakllantirish uchun).



Asosiy uslubiy ko'rsatmalar.

⁸ Scott Riewald, Scott Rodeo, Science of Swimming Faster

Harakatlarni uzluksiz, to'xtamsiz bajarish. Qo'l holatini almashtirish bir vaqtning o'zida o'tish lozim.


Tekshiruv vazifalari.

1. Oyoq harakatlarini o'rganish mashqlarini sanab bering.
2. Qo'l harakatlarini o'rganish mashqlarini sanab bering.
3. Harakatlarning umumiy mosligini o'rganish mashqlarini sanab bering.

I.9. Brass texnikasini o'rganish uchun mashqlar

Oyoq harakatlarini o'rganish uchun

- D.h. – yerda o'tirgan holda orqaga qo'llar bilan tiralish. Brass usuli bilan suzishdagi kabi oyoqlar harakati: tizzalarni yon tomonga burib va oyoq panjalarini yerda sudrab, oyoqlarni asta-sekin tortib olish; oyoq uchlarini yon tomonlarga qaratish, itarilishni bajarish, oyoqlarni birlashtirish va ularni yerda cho'zish, to'xtam qilish, oyoqlarni sekin-asta va mayin o'ziga tortish.




- D.h. – hovuz devorida o'tirgan holda qo'llar bilan orqaga tiralish. Brass usulida oyoq harakatlari.



- D.h. – chalqanchasiga yotib, qo'llar yonga tushgan. Brass usuli bilan suzishdagi oyoq harakatlari.

Sport pedagogik mahoratini oshirish




- Oldinga cho'zilgan qo'llar bilan taxtani ushlab, oyoq harakatlari yordamida chalqancha suzish.



- Oyoq harakatlari yordamida ko'krakda suzish. Keskin harakatlardan so'ng albatta to'xtamga rioya qilish shart; bunda iloji boricha uzoqroqqa sirpanishga urinish kerak.



- Oyoq harakatlari bilan chalqanchasiga brass usulida suzish, qo'llar sonda.




Asosiy uslubiy ko'rsatmalar.


1-2-mashqlar: boshida birinchi harakatlar sekin-asta bajariladi, bunda oyoq panjalari burilib va oyoqlar birlashtirilgach, oyoqlar bukilishi oxirida to'xtashlar bo'ladi, so'ngra me'yoriy maromda. 3-9-mashqlar: tizzalar yelka kengligida, oyoq panja uchlarini yon tomonlarga oxirigacha burish. Oyoqlarni birlashtirilgandan so'ng to'xtam qilib, orqaga-ichkariga yoysimon bir harakat bilan itarilish keskin bajariladi.

Qo'l va nafas harakatlarini o'rghanish uchun mashqlar

- D.h. – oldinga egilib turgan holda oyoqlar kengligida, qo'llar oldinga cho'zilgan. Brass usulida suzishdagi kabi bir vaqtida qo'llar bilan eshish harakatlari.
- D.h. – suv tubida oldinga egilib turgan holda oyoqlar yelka kengligida, qo'llar oldinga cho'zilgan, yelka va iyak suv ustida yotadi. Nafasni ushlab turgan holda qo'llar bilan eshishlar (oldin boshni ko'targan holda yuzni suvg'a tushirib).
- Xuddi shunday, lekin nafas olish.
- Qo'llarning eshish harakatlari bilan sirpanish.



- Oyoqlar orasida po'kak bilan qo'l harakatlari yordamida suzish (bosh yuqoriga ko'tarilgan holda).



Sport pedagogik mahoratini oshirish


Asosiy uslubiy ko'rsatmalar.

10-12 mashqlar: yelkadan bir oz kengroq holda qo'llarni yonga uzatish, eshish oxirida tirsaklar tez “yig’ishtiriladi” – gavda yaqin ichkariga-pastga harakatlanadi, panjalar birlashadi. 13-14 mashqlar boshida nafasni ushlagan holda (ikki-to’rt jarayondan), so’ngla nafas bilan moslashtirib bajariladi.


Harakatlarning umumiy moslashuvini o’rganish

uchun mashqlar⁹


- Harakatlar o’zaro mosligini ajratib suzish (qo’llar eshishni tugatib, oldinga cho’zilgach, oyoqlar tortilib, zarb bilan itarilishni boshlaydilar); harakatlarning bir-ikki jarayonidan so’ng nafas olish.



- Nafas moslashuvida qo’llar bilan kalta eshishlar orqali suzish.



- Nafasni ushlab turib, harakatlarning to’liq mosligida suzish.



- Harakatlarning bir-ikki jarayonidan so’ng erkin nafas olish va suvga

⁹ Scott Riewald, Scott Rodeo, Science of Swimming Faster

nafas chiqarish bilan harakatlarning to’liq mosligida suzish (qo’llar bilan eshish oxirida oyoqlar tortiladi va bir vaqtning o’zida qo’llar oldinga chiqariladi va sirpanib, zarb bilan itarilish bajariladi).



- Eshish oxirida nafas olgan holda, xuddi shunday.

Asosiy uslubiy ko’rsatmalar.

Oyoqlar zarbasi qo’llarni oldinga chiqarish tugallanishiga to’g’ri kelishi lozim. Nafasni ushlab turib suzish orqali erkin nafas olishga o’tish, so’ngra eshish oxirida nafas olish amalga oshiriladi.

Tekshiruv vazifalari.

1. Oyoq harakatlarini o’rgatish uchun mashqlarni sanab bering.
2. Qo’l harakatlari va nafasni o’rganish uchun mashqlarni sanab bering.
3. Harakatlarning umumiylmoslashuvini o’rganish uchun mashqlarni sanab bering.


I.10. Delfin texnikasini o’rganish uchun mashqlar

Oyoq harakatlari va nafasni o’rganish uchun mashqlar¹⁰


- D.h. – tizzada tayangan holda turish. Belni eng yuqori kengligida bukish va egilish.
- D.h. – bir oyoq uchida devorga yonlama turgan holda unga bir qo’l bilan tayanish, ikkinchi qo’l yuqoriga cho’zilgan. Delfin suzishga o’xshatib, gavda va bo’sh oyoq bilan to’lqinsimon harakatlar.

¹⁰ Alan Lynn, Swimming: Technique, Training, Competition Strategy


Sport pedagogik mahoratini oshirish



- D.h. – devorga yelka sathida to’g’ri qo’llar bilan tiralib, hovuz tubida turish. Belni eng yuqori kengligida bukish va eshish.
- D.h. – turgan joyda qo’llar yuqoriga ko’tarilgan. Gavda bilan to’lqinsimon harakatlar.



- D.h. – yotgan holda qo’llar bilan hovuz devorini ushlash. Oyoqlar bilan delfin harakatlar.
- Xuddi shunday, lekin yonboshlab yotgan holda.




- Cho’zilgan qo’llar bilan taxtani ushlab, ko’krakda yotgan holatda oyoq harakatlari yordamida suzish.
- Yonboshlagan holatda oyoq harakatlari yordamida suzish (taxta yuqoridagi qo’l bilan gavdaga bosilgan; pastdagisi-oldinda)
- Ko’krakda yotgan holatda oyoq harakatlari bilan suzish (qo’llar oldinda, so’ngra gavda bo’ylab).
- Yonboshlagan holatda oyoq harakatlari yordamida suzish (yuqoridagi qo’l

gavda bo'ylab, pastdagisi-oldinda).



- Chalqanchasicha yotgan holatda oyoq harakatlari yordamida suzish (qo'llar gavda bo'ylab).



Asosiy uslubiy ko'rsatmalar.

Tos yuqoriga-pastga tarang, uzlusiz harakatlari, bo'sh qo'yilgan boldir va oyoq panjalarining to'lqinsimon harakatlariga erishish. Oyoq tizzalari haddan tashqari bukilmasliklari kerak. Yelkalarni tebratmasdan suv yuzasida ushlash lozim. 7-10 mashqlar boshida nafasni ushlab turgan holda, so'ngra oyoqlarning har ikki-uch zarbasida bir marta nafas olish bilan bajariladi.

Qo'l harakatlari va nafasni o'rnatish uchun mashqlar

- D.h. – turgan holda. Orqa va oldinga qo'llarni eshish (qo'llar bog'ich yoki rezina bintning uchidan ushlab oladilar).
- D.h. – oldinga egilgan holda turish, qo'llar oldinga yelka kengligida, bosh bir oz ko'tarilgan. Oldinga cho'zilgan qo'llarning aylanma harakatlari.




- Xuddi shunday, lekin yuz pastga tushirilgan.
- Xuddi shunday, lekin qo'llar delfin suzish harakatlariga taqlid qiladi.

Sport pedagogik mahoratini oshirish


- D.h. – oldinga egilgan holda suvga turish. 12-14 mashqlar yuzni suvga tushirgan holda (nafasni ushlab turib).



- Oyoqlar orasida doira bilan qo'l harakatlari yordamida suzish.



- Qo'l harakatlari yordamida doirasiz suzish.



Harakatlar umumiy moslashuvini o'rganish uchun mashqlar


- D. h. – turgan joyda qo'llar yuqorida. Ikki zarbali qo'shilgan delfinsuzishga o'xshagan tos harakatlari bilan bir vaqtagi qo'l harakatlari. Harakatlar ketma-ketligi: qo'llar bilan pastga eshish; tos bilan ikkinchi harakat; qo'llarni dastlabki holatga olib o'tish. Mashq oldin quruqlikda, so'ngra suvda bajariladi.

- Nafasni ushlab turib, yengil, madad beruvchi zARBalar bilan delfinchA.




- Nafasni ushlab turib va harakatlarning ayrim o'zaro moslashuvi bilan


ikki zarbali delfinsuzish. Eshish yoki suvga kirgandan so'ng qo'llarni sonda ushlab turish. Shu paytda oyoqlar bilan ikki zarba va nafas olish bajariladi.



- Nafasni ushlab turib, ikki zarbali qo'shilgan delfin suzish.



- Xuddi shunday, naqas olish bilan moslashgan holda oldin harakatlarning ikki-uch jarayonida bitta, so'ngra har bir jarayonda nafas olish.



Asosiy uslubiy ko'rsatmalar.

15-mashq: eshishni taqlid qilish paytida qo'llar oldinga, bir oz yon tomonlarga, eshish o'rtasida ichkariga yoysimon harakat qiladi. Tirsakning yuqori holatiga e'tibor berish kerak. 16-mashq: yelkalar suv ustida turadi, nafas olish uchun boshni iyak suvga tegib turadigan qilib ko'tarish kerak. 16-18, 20-23 mashqlar: eshish boshida tirsakning yuqori holatini, panjalarning kaftlar orqaga yo'nalan holatini nazorat qilish kerak. Eshish songacha bajarilishi lozim. Dastlab nafasni ushlab, keyinchalik harakatlarning ikki-uch jarayonida bitta, so'ngra har bir jarayonga bitta nafas olish to'g'ri keladi. 19-mashq: dastlab sekinlik bilan, kichik to'xtamlar bilan, so'ngra ishchil sur'atda bajariladi.

Tekshiruv vazifalari

1. Oyoqlar va nafas harakatlarini o'rganish mashqlarini sanab bering.

Sport pedagogik mahoratini oshirish

2. Qo'l va nafas harakatlarini o'rganish mashqlarini sanab bering.
3. Harakatlar umumiy moslashuvini o'rganish mashqlarini sanab bering.

I.11. Suzishning sportcha usullari texnikasiga o'rgatishning asosiy uslubiyati asoslari¹¹

Yuqorida sanab o'tilgan mashqlar asosiy o'quv materiali bo'lib xizmat qiladi. Suzishning sportcha usuli tehnikasini o'rganish qat'iy uslubiy ketma-ketlikda o'tkaziladi.

Texnika quyidagi tartibda ayirib o'rganiladi: 1) gavda holati; 2) nafas olish; 3) oyoq harakatlari; 4) qo'l harakatlari; 5) harakatlar umumiy moslashuvi. Bunda texnikaning har bir elementini o'zlashtirib olish suzuvchining ishchi vaziyati hisoblangan, oxir-oqibatda yotiq tayanchsiz holatda mashqlarni bajarishni ko'zlovchi sekin-asta murakkablashib boruvchi sharoitlarda amalga oshiriladi.

Suzish texnikasining har bir elementi quyidagi tartibda o'rganiladi:

- quruqlikdagi harakatlar bilan tanishish tafsilotlarini yaxshilab o'rganmasdan, umumiy tarzda o'tkaziladi, chunki quruqlikda va suvda bir xildagi harakatlarni bajarish sharoitlari turlichadir;
- suvda qo'zg'almas tayanchli harakatlarni o'rganish. Oyoq harakatlarini o'rganishda tayanch sifatida hovuz devori, suv tubi yoki suv havzasi qirg'og'idan foydalilanadi; qo'l harakatlari ko'krakgacha yoki belgacha suv tubida turgan holda o'rganiladi;
- suvda qo'zgaluvchan tayanchli harakatlarni o'rganish. Oyoq harakatlarini o'rganishda suzish taxtalaridan keng foydalilanadi; qo'l harakatlari suv tubida sekin yurish vaqtida yoki sherik madadi bilan suv ustida yotish holatida o'rganiladi;
- suvda tayanchsiz harakatlarini o'rganish – bu guruhdagi barcha mashqlar sirpanish va suzish bilan bajariladi. Texnikasining o'rganib olingan elementlarni ketma-ket moslashtirish va ularni bir butun suzish usuliga birlashtirish quyidagi tartibda o'tkaziladi: 1) nafas olish bilan moslashgan oyoq harakatlari; 2) nafas olish

¹¹ Sheila Taormina, Swim speed strokes

bilan moslashgan qo'l harakatlari; 3) nafas olish bilan moslashgan oyoq va qo'l harakatlari; 4) harakatlarning to'liq moslashuvidagi harakatlar.

Suzish texnikasini bo'laklarga bo'lib o'rganilishga qaramasdan shug'ullanuvchilarning tayyorlik darajasi imkonidan kelib chiqib, suzishning o'rganilayotgan usulini butunligicha o'rganishga intilish zarur.

Suzish texnikasini mustahkamlash va takomillashtirish bosqichida texnikasini yaxlit bajarish usuli yetakchi ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun har bir mashg'ulotda harakatlarning o'zaro to'liq moslashuvida suzish bilan elementlar bo'yicha qo'l va oyoq harakatlari yordamida suzish orasida nisbat 1:1 bo'lishi lozim.

Suzish texnikasini takomillashtirishda harakatlarni bajarish shartlari albatta amalga oshirilishi kerak. Shu maqsadda suzishning quyidagi variantlari qo'llaniladi:

- uzoq va yaqin masofalarni navbatma-navbat suzib o'tish (masalan, hovuzning bo'y va eniga suzish);
- eng kam eshishlar soni bilan masofalarni suzib o'tish;
- yengillashtirilgan va murakkablashtirilgan sharoitlarda berilgan sur'atda navbatma-navbat suzish (masalan, elementar bo'yicha va harakatlarning o'zaro to'liq mosligida suzish; elementar bo'yicha ko'mak bilan va ko'maksiz suzish; nafasni ushlab va harakatlarning o'zaro to'liq mosligida suzish).

Shunday qilib, suzish texnikasini mustahkamlash va takomil-lashtirish quyidagilarni ta'minlaydi:


- ayniqsa suzishda muhim hisoblangan mashg'ulotlarga qiziqishni saqlashga imkon beruvchi mashqlarni bajarish variant-larining turli-tumanligi;
- o'zgaruvchan sharoitlarda suzish texnikasining turli variantlarini qo'llashni bilish;
- gavda bichimining o'ziga xos xususiyatlari va jismoniy tayyorlik darajasiga mos ravishda suzish individual texnikasining shakllanishi.

Startlar texnikasini o'rganish uchun mashqlar¹²

Suzuvchilar start sakrashlarini o'rgangunlaricha, suvgaga o'quv sakrashlarini bajarish texnikasini egallagan bo'lislari lozim.

Tumbochkadan start sakrashi.

- D.h. – asosiy tik turish holati. Tizza bo'g'inlarida oyoqlarni bo'kish va qo'llarni siltab, yuqoriga sakrash, bunda qo'llar to'g'ri, panjalar birlashgan, bosh qo'llar orasida.



- start uchun dastlabki holatdan xuddi shunday.




- start uchun dastlabki holatni qabul qilish. Oyoqlarni tizza bo'g'inlarida bukish, oldinga engashish, qo'llarni tushirib, old-orqaga siltashni bajarish. Oyoqlar bilan itarilish va yuqoriga sakrashni bajarish; bir vaqtning o'zida qo'llarni oldinda birlashtirish va boshni qo'llar ostiga "olish".




¹² Terry Laughlin, John Delves, Total Immersion: The revolutionary way to swim better, faster, and easier

- Xuddi shunday, lekin buyruq bilan.
- Tushish oxirida itarilish bilan suvgaga sirpanib tushish.



- Hovuz devoridan start sakrashni bajarish.
- Tumbochkadan start sakrashini bajarish. Oldinga sirpanishdan suzib chiqquncha, so'ngra oyoqlarda eshish harakatlari bilan suv ustiga chiqish va birinchi eshish harakatlari.




- Xuddi shunday, lekin buyruq bilan.
- Uchish balandligi va uzoqligini oshirish bilan xoda ustidan start sakrashi.



- Tayyorgarlik harakatlari sur'ati, itarilish tezligi yoki quvvatiga urg'u berish bilan start sakrashi.

Sport pedagogik mahoratini oshirish



Suvdan startga turish.

Suvdan startga turishni sirpanish va chalqanchasiga suzishni egallab olish bilanoq o'rganishni boshlaydilar. Gimnastika devoriga qarab skameyka (yoki yerdagi tushak) ustida uzunasiga o'tirib, suvdan startga turishni bajarish uchun suzuvchining d.h. ini belgilash (devor reykalarini start tutqichlari sifatida ishlashib), xuddi suvdan startga turishdagi kabi (qo'llarni oldinga siltash, oyoqlar bilan devordan itarilish), sekin sur'atda harakatlarni bajarish va qo'llarni oldinga cho'zib, chalqanchasiga sirpanish holatini egallah.

- Ko'pikli tog'arakcha yoki yon devor chetidan to'g'ri uzatil-gan qo'llar bilan ushlab, guruhlanish holatini qabul qilish va oyoqlarni hovuz devoriga qo'yish. So'ngra qo'llarni suv tagida oldinga chiqarish, devordan oyoqlar bilan itarilish va chalqanchasiga sirpanishni bajarish.
- Qo'llarni suv ustidan olib o'tib, xuddi shunday.
- Xuddi shunday, lekin qo'llarni suv ustidan olib o'tish bilan bir vaqtda keskin egilish va oyoqlar bilan itarilishni bajarish. Suvga kirgandan so'ng boshni orqaga tashlamaslik, balki suv ostiga chuqur botmaslik uchun iyakni ko'krakka bosish. So'ngra oyoqlar bilan harakat qilish va qo'l bilan eshishni boshlash.
- Start tutqichlarini qo'llar bilan ushlab, suvdan startga turish.

Burilishlar texnikasini o'rganish uchun mashqlar


Shug'ullanuvchilar qandaydir usul bilan suzish texnikasini egallab olsalar va 20 m va undan ortiqqa suza olsalar, burilishlar texnikasini o'rganishni boshlashlari kerak. Oldin yanada murakkabroq tezlik variantlarini, keyinchalik egallahda asos hisoblangan oddiy burilishlar texnikasini o'rganoladi. Burilish elementlari

qo'yidagi ketma-ketlikda o'rganiladi: sirpanish va dastlabki eshish harakatlari; itarilish; guruhlanish, aylanish va oyoqlarni taxtaga qo'yish; burilish taxtasiga suzib borish va unga qo'l tekkizish. So'ngra burilishni yaxlit ko'rinishda bajariladi.

Ko'krakda krol suzishda tekis burilishni o'rganish

uchun mashqlar¹³

- D.h. – zal devoriga qarab turish, o'ng oyoqni bukish va devorga qo'yish; qo'llar gavdaga taqalgan va tirsakda bukilgan. Guruhlanib bo'lgach, ikkala qo'l bilan oldinga siltanish orqali itarilish, sirpanish va dastlabki suzish harakatlariga taqlid qilish.
- D.h. – hovuz devoriga orqa bilan turish. Engashish va yelkagacha suvga tushish, bir oyoqni bukish va oyoq panjasini bilan yon devorga tiralish, yumuq kaftlarni pastga qaratib, qo'llarni oldinga cho'zish. Nafas olish, boshni suvga tushirish, ikkinchi oyoqni bukib, birinchisining oldiga qo'yish, suvga botish. Yon devordan itarilib, suv yuzasiga chiqquncha sirpanish.



- D.h. – bir qadam naridan yon devorga qarab turish. Oldinga engashish, chap yelka qarshisidagi yon devorga o'ng qo'lni qo'yish. Chap qo'lni orqaga o'tkazish, nafas olish va boshni yuz bilan suvga tushirish, olingan nafasni ushlab turish. Shundan so'ng o'ng qo'lni tirsak bo'g'inida yozish, chap qo'l bilan orqaga qo'shimcha eshish, guruhlanish, gavdani chapga burish, oyoq panjalarini bilan yon devorga tiralish, qo'llarni oldinga chiqarish.



¹³ Terry Laughlin, John Delves, Total Immersion: The revolutionary way to swim better, faster, and easier


Sport pedagogik mahoratini oshirish

- Xuddi shunday, chap qo'lni hovuz devoriga qo'ygan holda.
- Xuddi shunday, oyoqlar bilan devorda itarilgan holda.
- Xuddi shunday, hovuz devoriga suzib borgan holda.

Brass va delfinusullarda “tebrangich” bo’lib burilishni o’rganish uchun

mashqlar¹⁴

- D.h. – basseyn devoriga orqa bilan turib, unga o’ng qo’l kafti bilan tirilib, guruhanish holatini qabul qilish, tizzani ko’krakka taqab, o’ng oyoqni bukish va uni devorga qo’yish. Chap oyoqni o’ng oyoq bilan birlashtirish, ikkala qo'lni oldinga chiqarish, yon devordan itarilish va sirpanishni bajarish.



- D.h. – yon devorga qarab turib (bir qadam masofada), oldinga engashish, ikkala qo'lni yon devorga qo'yish. Qo'llar tirsak bo'g'imida buqiladi, suzuvchi yon devorga yaqinlashadi.




Chap qo'l pastga harakat qila boshlaydi, nafas olish bajariladi; bosh suvga tushiriladi, nafas to'xtatib turiladi, suzuvchi guruhlanadi. O'ng qo'l itarilishi bilan bir vaqtda 180° ga burilish va oyoq panjalarini hovuz jevoriga qo'yish bajariladi. O'ng qo'l bosh harakati va oyoqlarning itarilishi bilan bir vaqtda yoziladi. Itarilish tugallanishiga kelib, qo'llar bosh orqasida birlashadi, shundan so'ng suzuvchi batamom to'xtaguncha sirpanadi.

- Xuddi shunday, sirpanib qo'llarni yon devorga qo'yish bilan.

¹⁴ Terry Laughlin, John Delves, Total Immersion: The revolutionary way to swim better, faster, and easier



- Xuddi shunday, hovuz devoriga suzib kelish bilan.
- Xuddi shunday, oyoqlarni delfin ishlatalish yoki brass usulida uzun eshish va suv yuzasiga chiqish bilan.



Tekshiruv savollari va vazifalar.

1. Startlar texnikasini o’rganish uchun qanday mashqlardan foydalilanildi?
2. Burilishlar texnikasini o’rganish uchun qanday mashqlardan foydalilanildi?
3. Ko’krakda krol suzishda tekis burilishni o’rganish uchun mashqlarni sanab bering.
4. Brasscha va delfinsuzishda “tebrangichli” burilishni o’rganish uchun mashqlarni sanab bering.

II BOB. SPORTCHA SUZISH TEXNIKA ASOSLARI

Sport suzishi texnikasi – suzuvchiga o’zining harakatlanish imkoniyatlarini eng yaxshi tarzda amalga oshirish va musobaqalarda yuqori natijalarni ko’rsatish imkonini beruvchi harakatlarning ratsional tizimidir.

Suzuvchining harakatlanishi texnikasi uning biologik xususiyatlariga bog`liqdir, shu sababli suzishning biomexanik qonunlarini bilish zarur. Suzishning biomexanik qonunlari tananing suv bilan ham harakatsiz holatda ham harakatlanish mobaynida o’zaro ta’sir qilishi qoidalaridir.

Sport suzishi texnikasi deganda shunday harakatlar tizimi tushiniladiki, u suzuvchiga kuchini ratsional ishlatib hamda musobaqalar qoidalariga mos ravishda musobaqa masofasini imkonи boricha yuqori tezlik bilan suzib o’tishini ta’minkaydi. Suzuvchining musobaqa faoliyati start olishni, masofa bo’ylab harakatlanishni, burilishni bajarishni va finishni o’z ichiga oladi. Suzishning sport usullari bu – ko’krakda krol, chalqancha krol, brass, butterflyay.

Ko’krakda krol usuli¹⁵

Tarixi. Yigirmachi boshlanishi suzishning yangi tezkor usulining – ko’krakda vujudga kelishi bilan mos Musobqalarni ushbu usulni ilk namoyish etgan suzuvchi orollarida tavallud topgan va mahalliy aholidan ushbu suzish usulini o’rgangan A.Vikxyem bo’ldi. Suzish texnikasining keyingi mukamallashuvi 1912 va 1920 yillar Olimpiya o’yinlarining 100-m masofaga ixtiyoriy usul bilan suzish Olimpiya championi, Gavaya orollarida tavallud topgan D.Kaxanamoku tomonidan amalga oshirildi va u bir necha marotaba jahon rekordini yangilab juda muhim bo’lgan bir minutlik chegaraga bevosita yaqinlashdi (1.00.04). Olti zarbali ko’krakda krolning rad qilib bo’lmaydigan ustunligi 1922-1940 yilda Amerikalik suzuvchi, besh karra



asrning
va eng
krolning
keldi.
bor
Solomon

¹⁵ Alan Lynn, Swimming: Technique, Training, Competition Strategy

Olimpiya championi, bir vaqtning o’zida keng mashhurlikka Tarzan to’g’risidagi kinofilmarda bosh rolni ijro etgan Djonni Veysmyullyerning rekord natijalarida yaqqol ko’rindi. Veysmyullyer 50dan ortiq marotaba jahon rekordlarini yangiladi, birinchi bo’lib bir daqiqalik chegarani o’tdi va krol bilan suzish texnikasini kamolotiga etkazdi. O’sha davrda, 70 yil avval uning texnikasi hozirgi Olimpiya o’yinlari ishtirokchilari texnikasidan deyarli farq qilmagan.

Umumiy tavsif. Ko’krakda krol usulida suzish suzuvchining gavdasini suvda nisbatan gorizontal holati bilan, qo’llar va oyoqlarni navbatma-navbat harakatlantirish bilan tavsiflanadi. Ko’krakda krol usuli – eng tezkor va eng ommabop suzish usuli bo’lib, katta sport ahamiyatiga egadir.

Sport ahamiyati. Suzida absolyut suzish tezligi rekordlari ko’krakda krol usulida suzishda erishilgan. Hozirda bu usul muvafaqqiyat bilan quyidagi musobaqalarda qo’llanilmoqda:

- 50, 100, 200, 400, 800 va 1500 metr masofaga;
- 4x100 metr va 4 x200 metr masofaga estafetada;
- 4x100 metr masofada kombinatsiyalashgan estafetada (yakunlovchi etap);
- 200 va 400 metr kompleks suzishning yakunlovchi etapida;



- 5 va 25 km ga uzoq masofaga ochiq suv havzalarida suzishda;
- sportning turli, suzishni o’z ichiga oluvchi, ko’pkurash turlarida (triathlon, zamonaviy beshkurash va boshqalar).

Amaliy ahamiyati. Suzishning ko’krakda krol usulining amaliy ahamiyati shundaki, ushbu usul turli sharoitlarda suv to’siqlarini kesib o’tish, kiyimda suzish, suvda cho’kayotganlarga yordam berish va boshqalarda foydalанишидир. Ko’krakda krol usuli bilan suvga sho’ng’ib suv ostida suzish, faqatgina oyoqlar bilan ishlab yoki brass usuli kabi qo’llar eshish harakati bilan yordamlashib suzish mumkin.

Gavdaning holati. Ko’krakda krol usulida suzishda suzuvchining gavdasi deyarli gorizontal holatda suvning sathida joylashadi. Suzuvchining boshi yuz


Sport pedagogik mahoratini oshirish

bilan pastga suvga tushiriladi (nafas olish momentidan tashqari), sonlar suv sathi yaqinida.



Oyoqlar bilan harakatlar. Ko'krakda krol usulida suzishda oyoqlar navbatma navbat pastdan yuqoriga qarab (tayyorlov harakati) va yuqoridan pastga qarab ("zarba") kichik aplituda bilan, tizza sustavlarida minimal bukilgan holatda, oyoq kaftlari ozgina ichki tarafga qayiltirilgan holatda bo'ladi, bu esa tanani gorizontal va oqib o'tiluvchi holatni egallash imkonini yaratadi va tanani oldinga harakatlantiradi. Oyoqlar sondan boshlab harakatlanadi. Sondan so'ng boldirlar va oyoq kaftlari harakatga jalb qilinadi. Oyoqni pastka qarab harakati "zaxlyost xaraktyer"ga ega bo'ladi.

Oyoqlarning to'g'ri harakatlantirilgan holatida suvning yuzida sachrashlar va ko'piksimon iz vujudga keladi.




Qo'llar bilan harakatlar. Ko'krakda krol usulida suzishda qo'llar navbatma-navbat suvda eshish harakatlarini hamda tayyorlov harakatlarini – suv ustida harkatlarni amalga oshirishadi. Qo'l harakatining to'liq sikli quyidagi fazalarga bo'linadi:

eshish harakati (suvda) – suvni ushlash,
tortilish, itarilish

(suv ustida) – qo'lning suvdan chiqishi, uni ko'tarib o'tish, qo'lni suvga kirishi.

Bir qo'l eshish harakatni qilayotgan vaqtida ikkinchi qo'l suv sathidan yuqorida harakatlanadi, suvga kiradi va ilgari tortiladi. Ko'krakda krol usulida suzish tezligining nisbatan bir tekisligiga erishish uchun qo'lning eshish harakati boshqa qo'l bilan amalga oshirilgan eshish natijasida erishilgan tezlik hali kamaymasligi mobaynida amalga oshirilishi zarur.



Nafas olish. Havo olish qo'lni suvdan chiqish vaqtida og'iz bilan amalga oshiriladi. Havo olgandan so'ng suzuvchi boshini yuzi bilan pastga qarab buradi va asta sekinlik bilan havoni og'zi va burni orqali suvga chiqara boshlaydi. Qo'llar harakati va nafas olishning moslashtirilishi varintlari quyidagilardir: bitta havo olish va havo chiqarish ikkita qo'llar bilan eshishga (bir tomonlama nafas olish varianti); bitta havo olish va havo chiqarish uchta qo'llar bilan eshishga (ikki tomonlama nafas olish varianti).

Harakatlarni umumiy moslashtirilishi. Ko'krakda krol usulida suzishda harakatlarni moslashitirilishining bir necha turlari ajratiladi: "olti zorbali", "to'rt zorbali", "ikki zorbali". "Olti zorbali" harakatlar variantida harakatlarning to'liq sikli quyidagilarni o'z ichiga oladi: qo'llar bilan ikkita harakat (o'ng va chap qo'l bilan), oyoqlar bilan oltita zarba (har bir oyoqning yuqoriga va pastka harakati – bitta harakat), nafas olish va nafas chiqarish.

Chalqancha krol usuli

Tarixi. Chalqancha krol usulida suzishda birinchilik ham Amerikalik suzuvchilarga tegishlidir. 1912 y. Olimpiya O'yinlarida G.Xyebnyer ilk bor "teskari krolni" namoyish qilib qo'llar navbatma-navbat harakat qiladi va oyoqlarning zorbalarini "parvoz qilib" amalga oshiriladi. Buning natijasida u chalqancha brass usulida suzuvchi boshqa sportchilardan ancha oldinga chiqib oldi. 30-yillarda zamonaviy chalqancha krol usulida suzish yana bir Amerikalik suzuvchi, 1936 y. Olimpiya championi A.Kifer, namoyish qildi. Bu suzuvchi birinchi marotaba "salto" (umbaloq oshib) burilishini bajardi, va bu narsa Berlindagi O'yinlarda unga anchagina ustunlikni ta'minlab berdi. Kiferning chalqancha krol usulida 100 m masofaga suzishdagi rekordi 12 yilgacha ushlanib turdi.



Sport pedagogik mahoratini oshirish

Umumiy tavslifi. Hozirgi kunda chalqancha krol usuli suzishga o'rgatishning boshlang'ich bosqichlarida muvafaqiyatli foydalanilmoqda. Bunga tananing ma'qul tarzdagi muvozanatlari holati hamda havo olish suv sathidan yuqorida amalga oshirilishi va nafas olish sharoitlarining yaxshiligi ancha madad beradi.

Sport ahamiyati. Musobaqalarda medallar quyidagi masofalarda o'ynaladi:

- 100 va 200 metr;
- 4x100 metr kombinatsiyalashgan estafetaning birinchi etapi;
- 200 va 400 metr ga kompleks suzishning ikkinchi etapi.


Amaliy ahamiyati. Chalqancha krol usulida suzishni bilmaydiganlarni transportirovkasida, suvda cho'kayotganlarga yordam ko'rsatishda hamda turli yuklar bilan suzish va boshqa holatlarda qo'llaniladi.




Gavdaning holati.

Chalqancha krol usulida suzishda suzuvchining gavdasi deyarli gorizontal, cho'zilgan va engil oqib o'tiluvchi holatda joylashadi. Elka chizig'i tosdan sal yuqorida joylashadi, tos va sonlar suv sathi yonida. Tananing xujum burchagi $6-10^{\circ}$. Suzivchining boshi orqasi suv ichida, suv sathi taxninan quloqlar chizig'i bo'ylab o'tadi, yuz yuqoriga qaratilgan.

Oyoqlar harakatlari. Chalqancha krol usulida suzishda oyoqlar navbatma-navbat pastdan yuqoriga qarab ("zarba") va yuqoridan pastga qarab (tayyorlov harakati) harakatlanadi. Sonlar harakati amplitudasi o'rtacha, ular suv sathi yonida ushlab turiladi. Tizza sustavlarida oyoqlarning bukilishi darjasini, ko'krakda krol usuliga nisbatan ko'proq, oyoq kaftlari suvgaga ko'proq kiradi. Oyoqlar bilan navbatma-navbat harakatlarning asosiy maqsadi – tananing engil oqib o'tiluvchi muvozanatlangan holatini saqlash hamda suzuvchini ilgarilab harakatlanishini ta'minlovchi kuchlarni paydo qilishda ma'lum bir ulushlarini ta'minlash.



Qo'llar bilan harakatlar. Qo'lning to'liq harakati tsikli quyidagi fazalarga



bo'linadi: suvni ushslash, tortilish, itarilish (eshish harakati) va qo'lning suvdan chiqishi, havodan olib o'tish, qo'lni suvga kirishi (tayyorlov harakati).

Qo'llar harakatlarining moslashtirilishi eshish harakatlarining uzlusizligini ta'minlashi zarur: bitta qo'l eshish harakatini tugatib suvdan chiqish vaqtida ikkinchi qo'l suvga kiradi va suvni ushslashni boshlaydi (uzlusiz kelishish).

Nafas olish bitta qo'lning harakatini to'liq tsikli bilan kelishiladi. Chalqancha krol usulida suzishda nafas olish ancha engil chunki havoni chiqarish suv sathidan yuqorida va boshni burmasdan amalga oshiriladi. Havo olish og`iz bilan, havo chiqarish – og`iz va burun orqali amalga oshiriladi. Nafas olish “uch taktli” – havo olish, nafasini ushlab qolish, havo chiqarish.

Harakatlarning umumiy kelishtirilishi. “Olti zarbali” chalqancha krol – harakatlarni kelishtirilishining eng ratsional variantidir. Uning asosini nafas olish bilan moslashtirilishi ta'minlangan holda tinimsiz qo'llar bilan eshish amalga oshirish tashkil qiladi. Qo'llar bilan bitta to'liq tsiklga oyoqlar bilan oltita navbatma-navbat harakatlar (oyoq kaftlari bilan yuqoriga qaratib oltita “zarba”) mos keladi.



Brass¹⁶

Tarixi. Brass usuli bilan suzish juda qadim zamonlardan ma'lum. Ilk bor uning texnikasi 1538 yilda Vinmanning asarida ko'rsatib o'tilgan.

Uzoq davr mobaynida ushbu usul “qurbaqalarsimon suzish” deb nomlangan, va faqatgina o'tgan asrdagina fransuzcha “qo'llarni keng ochish” fe'lidan hosila bo'lgan “brasse” so'zi ushbu eski usulga yangi nomlanishni berdi. Mavjudligi vaqt mobaynida brass usulida suzish texnikasida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. 1928 yil

¹⁶ Alan Lynn, Swimming: Technique, Training, Competition Strategy

Sport pedagogik mahoratini oshirish

Olimpiadasida I.Indelfonso brass usulida suzishda qo'llar bilan eshish harakatini songacha amalga oshirish bilan yuqori natijalar ko'rsati, 1954 yilda esa M. Pyetruzyevich masofaning bir qismini suv ostida suzib o'tib jahon rekordini o'rnatdi. Ushbu usulni brass usuli bilan suzishning ancha tezkor texnikasi varianti sifatida ko'rilihi mumkin, ammo suzish bo'yicha musobaqlar qoidalarida kiritilgan o'zgartirishlar 1957 yildan boshlab bunday usuldan sport suzishida foydalанишни та'qiqlaydi.

Umumiy tavsif. Brass tezlik bo'yicha suzishning boshqa barcha usullaridan ortda turadi. Brass uchun oyoq va qo'llarning simmetrik harakatlari xarakterlidir. Tayyorlov harakatlari suv ichida amalga oshirilishi bunday suzish turining umumiyligini anchagina kamaytiradi.

Musobaqlar qoidalari brass usulida suzish texnikasini qo'yidagicha reglamenti laydi:

1. Startdan va burilishdan so'nggi birinchi eshish harakatidan boshlab suzuvchi ko'kragida yotadi, yelkalar chizig'i suv sathiga parallel.
2. Qo'llar harakati bir vaqta va simmetrik ravishda suv ostida yoki suv sathi bo'ylab amalga oshiriladi, eshish harakati vaqtida qo'llar sonlar chizig'i ortiga o'tmasligi zarur, eshish harakatidan so'ng qo'llar birgalikdan ko'krakda shunday tarzda cho'ziladiki qo'l panjası suv ostidan, suv sathi bo'ylab yoki uning ustidan harakatlanadi (tirsaklar doimiy ravishda suv ostida bo'lishi shart).
3. Oyoqlar harakatlari bir vaqtda va simmetrik amalga oshirilib, oyoqlar bilan ish harakati amalga oshirilishida oyoq kaftlari oyoq uchlari tashqari tarafga burilgan holatda bo'lishi va orqaga yoysimon chiziq bo'ylab harakatlanishi lozim (jipslashtirilgan oyoqlar bilan yuqoriga va pastga harakatlanishga ruxsat berilmaydi).
4. Suzish vaqtida suzuvchining boshi vaqtinchalik suv ostiga kirishi mumkin, ammo harakatlarning har bir siklida bosh suv sathidan yuqoriga chiqishi zarur.

Sport ahamyati. Musobaqalarda quyidagi masofalarda medallar o'ynaladi:

- 50, 100 va 200 metr;
- 4x100 metr kombinatsiyalashgan estafetaning ikkinchi etapi;


- 200 va 400 metr kompleks suzishning uchinchi etapi.

Amaliy ahamiyati. Brass usulida suzish suvgaga sho'ng'ishda, suvda cho'kuvchilarni qutqarishda, turli predmetlari transportirovkalashda, suv chiziqlaridan suzib o'tishda (brass bilan ovoz chiqarmadan, yo'nalishni saqlab turib va atrofni kuzatib turgan holda suzish mumkin).




Gavdaning holati. Brass usulida suzishda suzuvchining gavdasi suv sathi yonida gorizontal holatda, yuz suvgaga tushirilgan, oyoq va qo'llar cho'zilgan, kaftlar pastga qaratilgan holatda bo'ladi. Nafas olish vaqtida bosh va tana suv sathidan bir oz yuqoriga ko'tariladi.

Oyoqlar bilan harakatlari. Oyoqlar bilan harakatlar siklli tayyorlov harakati va ishchi harakatlarga bo'linadi. Tayyorlov harakatida (tortilishda) suzuvchi oyoqlarini tizza va tos-boldir sustavlarida bukadi va tizzalarni yon tomonga-orqaga ochadi (oyoq kaftlari imkoniboricha suv sathiga yaqinroq harakatlanadi). Tortilish yakunlanganida, suzuvchi tez ammo yumshoq tarzda oyoq uchlarini turli taraflarga buradi. Ushbu holatdan ishchi harakat – itarilish boshlanadi. Itarilish oyoqlarni aktiv ravishda tos-boldir mushaklarda, tizza va golyenostop mushaklarida to'g'rilash hisobiga amalga oshiriladi. Itarilish vaqtida suzuvchi huddi boldir va oyoq kafti bilan suvgaga tayangan holda bo'ladi. Oyoqlar harakati yoysimon chiziq bo'ylab amalga oshirilib yon taraflarga-orqaga yo'naltiriladi va itarilishni yakunlovchi oyoqlarni jipslashtirilishiga qadar davom etadi. Oyoqlar bilan itarilgandan so'ng suzuvchi inertsiya bilan ilgariga qarab sirpanadi.



Sport pedagogik mahoratini oshirish

Qo'llar bilan harakatlari. Brassda qo'l harakatlari bir vaqtida va simmetrik ravishda bajariladi. Eshish harakati qo'llar oldinga qarab cho'zilgan holatida boshlanadi. Suzuvchi qo'l panjasini kaftlarni tashqi tarafga qaratib buradi va jadal



tarzda qo'llarni yon tarflarga-orqaga qarab yuritadi. Eshish harakati tekkis qo'llar bilan bajariladi va yelkalar chizig`ida tamomlanadi. Bu yerda qo'llar

tirsaklarda bukiladi, panjalar birlashtiriladi, tirsaklar pastga tushiriladi va qo'llarni tezlik bilan olgariga olib chiqish boshlanadi. Qo'llar tekkislanganidan so'ng sirpanish boshlanadi, va uning davomida panjalar deyarli suv sathida bo'lib kaftlar patga qaratilgan bo'ladi.

Nafas olish. Brass bilan suzishda havo olish qo'llar bilan eshish harakatini qilish boshida bajariladi. Suzuvchi, go'yoki suvgaga qo'l panjalari bilan tayangan kabi havo olish uchun boshini ko'taradi. Boshqa vaqtida, qo'llar oldinga qarab yuritish davomida havo chiqariladi.

Harakatlarning umumiy kelishtirilishi. Boshlang`ich suv sathida tekis qo'lar va oyoqlar bo'lgan holatda suzuvchi bir vaqtning o'zida havo olib qo'llar bilan eshishni boshlaydi. Qo'llar bilan eshishning yakunida oyoqlarni tortib olish bajariladi. Oyoqlar itarilishni bajarish uchun boshlang`ich holatga kelganida suzuvchi qo'llarini oldinga qarab yuritishni boshlaydi. Qo'llarni oldinga qarab tekislash bilan bir vaqtida oyoqlar kuch bilan itarilish harakatini amalga oshiradi va undan so'ng boshlang`ich holatga sirpanib boriladi. Yangi qo'llar bilan eshishni boshlashdan avval suzuvchi davomiy suvgaga xavoni chiqarib tashlaydi.

Batterflyay (delfin)



Tarixi. Brass usulida bilan suzish tezligini oshirish maqsadida 30-yillar o'rtalarida ba'zi bir sportchilar qo'llarini suv ustidan olib o'ta boshladilar. Shunday

tarzda suzishning yangi turi butterflyay (“butterfly” – ingiz tilida - kapalak) vujudga keldi. Shu yillarda suzishning butterflyay usulining yangi tezkor texnikasi – delfin tasdiq topdi. Bunda suzuvchi oyoqlar bilan brass harakatlarni bajarish o’rniga butun gavdasi va oyoqlari bilan to’lqinsimon harakatlarni bajaradi. Ilk bor bunday texnikani hamda butterflyay uchun rekord tezlikni 1935 yilda Amerikalik D.Zig namoyish qildi. 1953 yil Vengriyalik suzuvchi D.Tumpek ilk bor delfin suzish texnikasidan foydalanib jahon rekordini o’rnatdi. O’sha davrdan boshlab butterflyay usulida suzishda start oluvchi sportchilar uning tezkor ko’rinishi – delfindan foydalaniladilar.

Umumiy tavsif. Butterflyay – suzish tezligi bo'yicha ko'krakda krol suzish usulidan keyin turuvchi suzish usulidir. Butterflyayning o'ziga xos xususiyati oyoqlar va gavdaning tinimsiz, huddi delfinlar dumi harakati kabi, to'lqinsimon harakatlanishidir. Oyoq kaftlari bilan pastka qaratib ikki marotaba to'liq urishlari qo'llar harakatining bitta to'liq sikliga to'g'ri keladi. Musobaqalar qoidalariga muvofiq qo'llar va oyoqlarning harakatlari bir vaqtida va simmyetrik bo'lishi zarur.

Sport ahamiyati. Musobaqalarda quyidagi masofalarda medallar o'ynaladi:


- 50, 100 va 200 m;
- 4x100 m kombinatsiyalashgan estafyetaning uchinchi etapi;
- 200 va 400 m komplyeks suzishning birinchi etapi;
- Oyoqlarni delfinsimon harakatlari suv osti sportida foydalaniladi.

Amaliy ahamiyati. Butterflyayning amaliy ahamiyati yo'q.



Gavdaning holati. Suzuvchi suv sathida ko'krak bilan yotib joylashib, tinimsiz ravishda butun tanasi bilan to'lqinsimon harakatlarni bajaradi. Bunday harakatlar oyoqlarning eng effektiv ishini ta'minlaydi.



Oyoqlar bilan harakatlar. Butterflyay usulda oyoqlar birgalikda ishlaydi. To'lqin tosning pastka-yuqoriga harakatlaridan boshlanib, tobora o'sib



Sport pedagogik mahoratini oshirish

boruvchi amplituda bilan tos-son, tizza va golyenostop mushaklariga o'tib boradi. To'lqinsimon harakatlar ikkala oyoq kaftining yuqoridan pastka qarab jadal silkitilishi bilan yakunlanadi.

Qo'llar bilan harakatlar. Butterflyay usulda suzishda qo'llar eshish




bajarishni va suv sathi ustidan o'tkazilishini bir vaqtda va simmetrik amalga oshiriladi. Qo'llar suvgaga yelkalar kengligida kiradi. Eshish tirsak mushaklarida bukilgan qo'llar

bilan o'z ostiga qaratib bajariladi. Eshish vaqtida qo'l panjalari parallel harakatlanadi, ularning orasidagi masofa esa 15-20 santimetri tashkil qiladi. Tirsaklar bir oz chetga ochilgan. Eshish qo'llarni suvdan chiqishi bilan yakunlanadi. Qo'llar suvdan chiqishini va ularni havo bo'ylab harakatini yengillashtirish maqsadida eshish yakunida qo'llar tashqariga burilib yon taraflarga-orqaga qarab harakatlantiriladi.



Nafas olish qo'llarning harakatlari bilan moslashtiriladi. Havo olish qo'llar bilan eshish harakatining yakunlashishida va qo'llar suvda chiqarilishi mobaynida bajariladi. Bu vaqtga kelib suzuvchining boshi va yelkalari suvdan chiqib turadi. Havoni chiqarish qo'llarni suv ustidan o'tkazish va qo'llar bilan eshishni boshlashda bajariladi.

Harakatlarning umumiy moslashtirilishi. Butterflyay bilan suzishda qo'llar va



oyoqlarning harakatlarini o'zaro moslashtirishning ikki variantidan foydalaniladi: "bir zarbali" (qo'llar bilan harakatning bir sikli davomida suzuvchi oyoqlar bilan bitta zARBANI bajaradi) va "ikki zarbali"

(qo'llar bilan harakatning bir sikli davomida suzuvchi oyoqlar bilan ikkita zARBANI

bajaradi). “Ikki zorbali” variantda oyoqlar bilan birinchi zarba qo’llarni suvga kirishi bilan bir vaqtda bajariladi, ikkinchi zarba esa – qo’llar bilan eshish harakatini yakunida va havo olish bilar bir vaqtga mos keladi.

Startlar¹⁷

Supachadan turib start bajarish. Umumiy tavsifi. Musobaqalarning qoidalariga muvofiq, chalqancha krol suzish usulidan tashqari barcha usullar bilan



suzishda sportchi startni start supachasidan turib sakrashdan boshlaydi. Supachaning suv sathidan balandligi 0.5 – 0.75 metrni tashkil etadi. Startni sifatli bajarilishi 0.2 - 0.4 sekundga qadar qadar vaqt yutilishini ta'minlaydi. Supachadan start sakrashni bajarilishining eng tarqalgan variantlari bu “qo’llarni silkitish bilan start”, “ushlab olish bilan start”, “yengil atletika starti”, “gruppirovkadan turib start”.

Start texnikasini analiz qilishda quyidagi fazalarni ajratib o’tish mumkin:

- boshlang`ich holat;
- tayyorlov harakatlar va itarilish;
- parvoz;
- suvga kirish;
- sirpanish;
- birinchi suzish harakatlari va suv ustiga chiqish.

Boshlang`ich holat. Oldindan komandaga muvofiq suzuvchi start tumbochkasining orqa qirrasidan joy oladi. “Na start!” tayyorlov komandasidan so’ng u kamida bitta oyog’i bilan tumbochkaning oldingi qirrasiga turishi va start olishga shay bo’lishi lozim. “Ushlab olish bilan start” bajarish uchun boshlang`ich holatda suzuvchining oyoqlari tizza sustavlarida bukilgan ($135-150^{\circ}$), oyoq kaftlari yelka kyengligida, oyoq barmoqlari tumbochka qirrasini ushlub turadi. Gavda og`ilgan, qo’llarning barmoqlari tumbochkani qirrasini oyoq kaftlari orasida (yoki

¹⁷ Alan Lynn, Swimming: Technique, Training, Competition Strategy

Sport pedagogik mahoratini oshirish

ularning yonidan) ushlab turadi. Bosh egilgan, nafas ushlangan. Bu holatda suzuvchining tizzalari tumbochkaning oldingi qirrasi ustida joylashadi, yelka chizig`i va bosh – bir oz oldinda. Tananing og`irlik markazi oyoq kaftining oldingi tomoniga o'tkazilgan, suzuvchi zudlik bilan start olish harakatlarini boshlashga tayyor. *Tayyorlov harakatlari va itarilish* “Marsh!” komandasiga muvofiq bajariladi. Sportchi qo'llari bilan tumbochka qirrasiga bosib tanasining muvozanat holatidan chiqaradi, oyoqlari bilan itariladi, qo'llarini siltab va boshini tanasi va qo'llarini oldinga-yuqoriga jo'natadi. Iloji boricha tezkorlik bilan katta kuch bilan itarilish va tanani yuqoriga-oldinga yo'nalishda optimal traektoriya bo'y lab jo'natish juda muhimdir. *Parvoz* oyoqlarni tumbochkadan uzilishi bilan boshlanadi. Tana cho'ziladi, taranglashadi va ratsional traektoriya bo'ylar uchib boradi. Qo'llar oldinga qarab yo'naltiriladi, bosh qo'llar orasiga joylashadi. *Suvga kirish* qo'l panjalarining suvga kirishi bilan boshalandi. Ketma-ketlik bilan go'yoki bir nuqtaga qo'llar, bosh, gavda, sonlar va oyoq kaftlari kiradi. Suzuvchi oqib o'tiluvchi holatni saqlab suvga kirish chuqurligini boshqaradi. Suvga kirishning optimal burchagi sifatida 15-30⁰ga teng burchak hisoblanadi. *Sirpanish* suvga oyoqlarning kirishi bilan boshlanadi. Ushbu fazaning o'ziga xos hususiyati suzuvchi tanasining havo muhitidan, zichligi deyarli 800 marta katta bo'lgan suv muhitiga kirishidir. Suv ostida sirpanish suv oqib o'tishi ta'minlanuvchi holatda va 80 sm dan ortiq chuqurlikka tushmasdan amalga oshirilishi zarur. *Birinchi suzish harakatlari va suvdan chiqish.* Ko'krak bilan krol usulida suzishda qisqa muddatli sirpanishdan so'ng suzuvchi oyoqlari bilan krol usuli harakatlarini bajaradi va yuqori harakatlanish tezligini saqlab turadi. Brass bilan suzishda suzuvchi uzun, sonlarigacha bo'lgan eshishni bajaradi, bundan keyin qisqa muddatli “ikkinchi” sirpanish bajariladi, qo'llar oldinga chiqariladi, oyoqlar itarilish uchun tortili so'ngra jaddallik bilan oyoqlar bilan itarilish amalga oshiriladi.



Suvdan turib start olish. Suvdan turib start olish orqa bilan

krol usulida suzishda amalga oshiriladi. Boshlang`ich holat. Birinchi oldindan komandadan so'ng suzuvchi suvga sakrab tushadi va start poruchenlari oldida ularga qarab turgan holda boshlang`ich holatni egallaydi. Suzuvchi poruchenlarni yelka kengligidagi to'g`ri qo'llar bilan, yuqoridan tutib turish (xvat) bilan ushlaydi. Oyoqlarini bukib, sportchi basseyn devoriga suv sathidan pastda oyoq kaftlari bilan mustahkam tayanib oladi, tizzalar bunda qo'llar orasida qoladi. "Na start!" komandasiga muvofiq suzuvchi qo'llarini bukib o'zini poruchyenlar tomon bir oz tortib oladi va ana shu boshlang`ich holda qimirlamay turadi. Start signali berilishi bilan sportchi startni bajarishni boshlaydi. Uning start mobaynidagi harakatlarini shartli ravishda quyidagi fazalarga bo'lish mumkin:

- tayyorlov harakatlari va itarilish;
- parvoz;
- suvga kirish;
- sirpanish;
- birinchi suzish harakatlari va suv ustiga chiqish.

Tayyorlov harakatlari va itarilish. Start signali bo'yicha suzuvchi start poruchyenlarini qo'yib yuboradi va keskin siltanish (max) harakati bilan qo'llarini oldinga yo'naltiradi (ko'zda tutilgan harakat yo'naliishida), shu bilan birga oyoqlari bilan basseyn devorlaridan jaddalik bilan itarilish amalga oshiriladi. Sportchining tanasi bunda cho'ziladi va egiladi. *Parvoz* fazasi oyoqlarni basseyn devorlaridan uzilishi bilan boshlanadi. Suzuvchi yanada ko'proq egiladi va boshini orqa qarab tashlaydi. *Suvga kirish fazasi* qo'llar panjalarini suvga kirishi bilan boshlanadi. Ketma-ketlik bilan go'yoki bir nuqtaga qo'llar, gardan (zatilok) va yelkalar kiradi, keyin orqa suvga kiradi. *Sirpanish, birinchi suzish harakatlari va suvdan chiqish.* Suv ostida sirpanish qisqa vaqt davom etadi. Suzuvchi dahanini ozgina ko'kragiga siqib tanasining oldinga-yuqoriga qarab yo'naltiradi, sirpanish tezligini jadallik bilan oyoqlarning harakatlari va qo'lining gryeboki bilan saqlab oshiradi (ikkinchi qo'l yuqoriga qarab cho'zilib qoladi).

Sport pedagogik mahoratini oshirish

Burilishlar

Umumiy tavsif. Suzish bo'yicha musobaqalar uzunligi 25 va 50 m bo'lgan basseynlarda o'tkaziladi va shu sababli sportchilar masofani suzib o'tishlari davomida bir yoki bir necha marotaba burilishlarni bajarishlariga to'g'ri keladi. Barcha burilishlar, suzishning usulidan qat'iy nazar quyidagilarga bo'linadi: ochiq va yopiq (aylanish vaqtida havo olishni bajarilishi momentiga qarab), oddiy va murakkab (aylanish vaqtida foydalaniluvchi o'qlar soniga qarab). Burilish texnikasini analiz qilishda quyidagi fazalarni ajratish qabul qilingan:

- suzib kelish;
- tegish (aylanishga kirish) va aylanish;
- itarilish;
- sirpanish;
- birinchi suzish harakatlari va suv ustiga chiqish.

Ko'krak bilan krol usulida suzishda burilishning turli variantlari uchraydi: oddiy ochiq, oddiy yopiq (suzishga boshlang'ich o'rgatishda foydalaniladi), "mayatnik bilan" burilish, oldiga yumalash bilan burilish ("salto" deb nomlanuvchi burilish bo'lib undan yaxshi tayyorgarlikka ega sportchilar foydalanadilar). Burilishni bajarishda fazalar (sirpanish, birinchi suzish harakatlari va suv ustiga chiqish) start uchun sakrashni bajarishdagi vazalarga o'xshashdir.

Oddiy ochiq va yopiq burilishlar. Basseyn devori yaqiniga suzib yaqinlashib va tezlikni kamaytirmasdan suzuvchi uni tirkagida bir oz bukilga qo'li bilan




bukadi (gruppirovkalanadi) va gorizontal bo'yicha aylanini boshlaydi. Qo'llari

aylanishga ko'maklashadi: bitta qo'l – devordan itaradi, ikkinchi qo'l bilan o'ziga qarab gryebok (podgrebayushiye) harakatlarini bajaradi. Agarda aylanish vaqtida bosh suv sathidan yuqorida bo'lsa suzuvchi havo olsa bunday burilish – ochiq burilish deyiladi. Agarda suzuvchining boshi aylanish vaqtida suv ostida bo'lsa – yopiq burilish. Aylanma harakat oyoq kaftlarini basseyn devoriga qo'yilishi bilan yakunlanadi. So'ngra, devorga tayanib turgan qo'l undan uziladi va suv sathi yuqorisi bo'ylab oldinga yo'naltiriladi, bosh va yelka chizig'i suv ostiga kiradi. Qo'llar oldinga qarab cho'ziladi, panjalar birlashtiriladi, bosh qo'llar orasida bo'ladi – suzuvchi basseyn devoridan itarilib suv ostida gorizontal holatda sirpanadi. Keyingi suvdan chiqish oyoqlarning harakatlari va qo'l bilan gryebok (start sakrashiga o'xshab) hisobiga amalga oshiriladi.

“Mayatnik” burilishi. Sportchi krol bilan suzishda basseyn devoriga bir qo'l bilan (brass yoki delfin suzishida – ikkala qo'l bilan bir vaqtda), suv sathi darajasida yoki unga yaqinda tegadi. So'ngra qo'llarini tirsak sustavida bukadi va qisman biqinda bo'lgan holatni egallaydi. Oyoqlar tos-son va tizza sustavlarida bukiladi va yonboshlagan sirt bo'yicha “mayatnik” bo'lib aylani boshlanadi (suzuvchi go'yoki bir biqindan boshqasiga dumalaydi), bunda suzuvchi o'ziga bir qo'l bilan gryebok harakatlarini bajarib, ikkinchi qo'l bilan dyevordan itariladi. Yelka chizig'i va bosh bu vaqtda suv sathidan yuqorida harakatlanadi, suzuvchi havo olib oladi. So'ngra u qo'lini uzib suv ustidan olib o'tadi. Aylanish oyoqlarni bassyeyn dyevoriga qo'yish bilan yakunlanadi, suzuvchi to'liq suv ostiga kiradi va yana yon biqindagi holatiga qaytadi. Qo'llar oldinga qarab cho'ziladi, bosh qo'llar orasida bo'ladi va suzuvchi bassyeyn dyevoridan itariladi. Itarilish vaqtida ko'krakka burilish amalga oshiriladi, suzuvchi cho'ziladi va qisqa muddali sirpanishdan so'ng birinchi suzuvchi harakatlarni boshlaydi.

Oldinga dumalab burilish. Malakali sportchilar uchun bu ixtiyoriy usul bilan



Sport pedagogik mahoratini oshirish

suzishda (ko'krakda krol bilan) asosiy burilish turidir. Murakkab yopiq burilishdagi devorga tegish fazasi aylanishga kirish fazasi bilan odatda almashtiriladi. Burilish shitiga yaqinlashganda sportchi avval bir qo'li bilan gryebokni yakunlaydi (qo'lini son oldida qoldiradi) keyin ikkinchi qo'li bilan. Oyog'i (oyoqlari) bilan pastga urish va qo'li bilan gryebokni tugatish bilan bir vaqtda bosh kyeskin suv ostiga kiradi, aylanish (oldinga-pastga va bir oz yonga) boshlanadi. Gavdaning yuqori qismi suv ostiga kiradi, cho'zilgan oyoqlar suv sirti bo'ylab devorga qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanadi. Bundan so'ng suzuvchi shiddat bilan oyoqlarini tos-son sustavlarida bukadi (go'yoki tizzalari bilan pyeshanaga tegish maqsadida). So'nga tos gavda ketidan suv ostiga kiradi, oyoqlar tizza sustavlarida bukiladi va tezlanish bilan dyevorga qo'yiladi. Oyoqlarni devorga qo'yilishi vaqtida suzuvchi yon biqindagi holatida bo'lib, qo'llari yuqoriga yo'naltirilgan bo'ladi. Zudlik bilan oldinga yo'nalishda tanani cho'zish va uni ko'krakda yotgan holatga burish bilan birgalikda, devordan oyoqlar bilan itarilish boshlanadi.

Chalqancha krol usulida suzishda ko'p hollarda **oddiy ochiq burilish** foydalilanadi. Orqa bilan yotgan holatda suzuvchi qarama-qarshi yelda sathida basseyn devoriga tegadi. So'ngra u oyoqlarini bukadi (guppirovkalanadi) va gorizontal bo'yicha aylanini boshlaydi. Bosh suv sathidan yuqorida bo'lib suzuvchi havo oladi. Qo'llar aylanishga yordam byeradi. Faza oyoqlarni basseyn devoriga qo'yish bilan yakunlanadi. So'ngra suzuvchi yelka chizig`ini va boshini suvga kiritadi va bir vaqtda qo'llarini suv ostida yuqoriga cho'zib itarila boshlaydi. So'nga suv ostida orqa bilan sirpanib, keyinchalik oyoqlarning harakatlari va qo'l bilan grebok hisobiga suv ustiga chiqiladi.

O'z bilimini nazorat qilish uchun savollar

1. Suzishni egallahdagi mashqlarini aytib bering.
2. Ko'krakda krol usuli uchun mashqlarni sanab bering.
3. Chalqancha krol usuli uchun mashqlarni sanab bering.
4. Brass usuli uchun mashqlarni sanab bering.
5. Batterflay usuli uchun mashqlarni sanab bering.

III BOB. SPORTCHA SUZISH USULLARI TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.

Suzish texnikasini takomillashtirish

Ko'krakda krol suzish¹⁸

- Oyoq harakatlari bilan ko'krakda yonlamasiga va chalqan-chasiga qo'l harakatlari bilan (ikkalasi oldinda; bittasi oldinda, ikkinchisi sonda; ikkalasi sonda), shuningdek, qo'llar bilan taxta ushlab suzish.

- 10-12 m ga krol oyoq harakatlari bilan sho'ng'ish, qo'llar oldinga.

D.h. - oldinga engashgan holda quruqlikda turish, qo'llarda gimnastika tayoqsachi. Yelka-bel, gavda burilishlari va son harakatlari bilan moslikda qo'llar bilan krol harakatlarga taqlid qilish.

- Oyoq harakatlari va bir qo'l bilan eshishlar yordamida krol suzish, ikkinchi qo'l oldinga yo'naltirilgan yoki son yonida (eshishlarni bajarayotgan qo'l tomondan yoki son yonidagi qo'l tomondan nafas olish).

- Xuddi shunday, tezlanishga urg'u berib, qo'lni olib o'tish bilan.

- Krol qo'l harakatlari va sonlar orasidagi po'kak yordamida suzish.

- Xuddi shunday, lekin qo'lni olib o'tish vaqtida qo'lтиqqa cho'tkani tekkizish vazifasi bilan. Bunda tirsak juda yuqori holatda turish lozim.

- Xuddi shunday, eshish oxirida barmoqlarni songa tekkizish vazifasi bilan.

- Xuddi 10-mashq kabi, lekin kurakchalar bilan.

- Qo'l harakatlari bilan krol suzish (sonlar orasidagi po'kak bilan), qo'l suvdan chiqqach, uni orqaga o'tkazish (vazifa – po'kak yoki dumbaga barmoqlarni tekkazish).

- "almashtirish bilan" krol suzish. Oyoqlar uzlusiz harakatda bo'ladi. Chap qo'l bilan 3 ta eshish bajariladi (ikkinchisi oldinga uzatilgan), chap qo'l bilan 3-eshish tugashi bilanoq, qo'l harakatini ushlab oladi va o'z navbatida 3 ta eshishni bajaradi (chap qo'l suv ustidagi harakatini to'xtatib, oldinga cho'ziladi). Nafas olish eshayotganda qo'l tomonida amalga oshiriladi.

¹⁸ Alistair Brownlee and Jonatan Brownlee with Tom Fordyce, Swim, Bike, Run

Sport pedagogik mahoratini oshirish

- Xuddi shunday, lekin bir qo'l eshishni bajarayotgan vaqtida, ikkinchi qo'l son yonida turadi.
 - “Tirkalish” bilan krol suzish. Oyoqlar uzlucksiz harakat qiladi. Bir qo'l oldinga cho'zilgan, ikkinchisi son yonida.
 - Bosib turilgan qo'l tomonda nafas olish, so'ngra bir qo'l bilan uzun eshishni bajarish, bir vaqtning o'zida ikkinchi qo'lni suv ustidan olib o'tish. Biroz to'xtamdan so'ng qo'l harakatlari paytida (nafas olish bajariladi, lekin endi boshqa tomonda va yana qo'l holatlari o'zgartiriladi).
 - Xuddi shunday, lekin suzuvchi yonboshlagan holatda, pastki qo'l kafti oldinga qaratilgan, yuqoridan son yonida. Bir qo'l bilan uzun eshish va ikkinchisi bilan suv ustida harakat qilish paytida suzuvchi ko'krak orqali boshqa yonboshga ag'dariladi.
 - “Quvib o'tish” bilan krol suzish. Oyoqlar uzlucksiz harakat qiladi. Qo'llar oldinga uzatilgan holatdan (panjalar bir-birlariga tegib turadi) uzun eshishni bajarish va suv ustida bir qo'l bilan harakat, panjalar bir-biriga tekkandan so'ng xuddi shu boshqa qo'l bilan va h.k.
 - Boshni yuqori ko'tarib, krol suzish (iyak suv ustida).
 - Xuddi shunday, lekin delfinoyoq harakatlari bilan.
 - Delfinoyoq harakatlari yordamida ko'krakda va bir qo'lda krol suzish, ikkinchisi oldinga cho'zilgan, eshishni bajarayotgan qo'l tomonda nafas olish.
 - Bir qo'lni songa bosib, xuddi shunday. Bosilgan qo'l tomonda nafas olish.
 - Qo'llar bilan krol, oyoqlar bilan delfinharakatlar yordamida ko'krakda suzish.
 - Harakat texnikasining ayrim elementlariga e'tibor berib, berilgan sur'at va tezlikda (parametrlarning doimiy qiymatlari va ularning o'zgartirilishi) ko'krakda krol suzish.
 - Masofada berilgan tezlikni saqlagan holda qo'llar yordamida eng kam miqdordagi eshish bilan ko'krakda krol suzish.

- Ikki tomonda nafas olish bilan, bir nafas olishga to'g'ri keluvchi turli miqdordagi eshishlar bilan, nafasni ushlab turib, krol suzish.
- Harakatlarning turlicha o'zaro mosligida – ko'krakda olti, to'rt va ikki zarbali krol suzish.
- Murakkablashtirilgan sharoitlarda ko'krakda krol suzish: panja musht qilib tugilgan. panja yelkagacha tegadi (“tirsakda suzish”), suv yuzasida qo'llarni qo'shimcha yuklar bilan dastlabki holatga chiqarish.
- Yengillashtirilgan sharoitlarda ko'krakda krol suzish, uzun amartizatorda, ilmoq bilan (liderlik qiluvchi sim arqon), lastlar bilan.

Chalqanchasiga krol suzish

- Qo'llarning turli holatlarida (ikkalasi oldinda; bittasi oldinda, ikkinchisi son yonida; ikkalasi son yonida), shuningdek qo'llarga taxta ushlab, ko'krakda, yonboshlab va chalqanchasiga oyoqlar harakatlari yordamida krol suzish.
- Oyoq harakatlari yordamida chalqanchasiga krol suzish, bir qo'l suv yuzasi bo'ylab oldinga, ikkinchisi – yuqoriga.
- Oyoq harakatlari yordamida chalqanchasiga krol suzish, bir qo'l suv yuzasi bo'ylab oldinga, ikkinchisi son yonida. Suzuvchi qarshi siltov harakatlari bilan havoda qo'l harakatlarini o'zgartiradi; bir oz to'xtamdan so'ng takrorlash.
- Chalqanchasiga krol va delfinoyoq harakatlari yordamida uzunlikka (6-8 m) sho'ng'ish, qo'llar oldinda, panjalar birga, bosh ensa bilan qo'llarda.
- Qo'l harakatlari va sonlar orasidagi po'kak yordamida chalqanchasiga krol suzish.
- Kuraklar bilan xuddi shunday.
- Krol oyoq harakatlari va songacha qo'llar bilan alohida uzun eshish yordamida chalqanchasiga suzish (ikkala qo'l bilan bir vaqtda).
- Oyoq harakatlari va bir qo'l yordamida chalqanchasiga krol suzish, boshqasi oldinda cho'zilgan yoki songa bosilgan.
- Chalqanchasiga “almashtirish” bilan krol suzish (15 va 16-mashqlardagi ko'krakda krol suzishga o'xshagan).

Sport pedagogik mahoratini oshirish

- Chalqanchasiga “ulanish” uchun krol suzish (ko’krakda krol suzish tashqari 15-16-mashqlarga o’xshagan).
- “Quvlab o’tish” bilan chalqanchasiga suzish (19-mashqdagi ko’krakda krol suzishga o’zshagan).
- Oyoq harakatlari yordamida delfin va bir vaqtning o’zida ikkala qo’lda eshish bilan chalqanchasiga suzish.
- Qo’l harakatlari yordamida krol, oyoqlar bilan delfin chalqanchasiga suzish.
- Bir qo’lda eshishlar yordamida krol, ikkinchisi cho’zilgan, oyoqlar bilan delfin harakat qilib, chalqanchasiga krol suzish.
- Har bir eshishdan so’ng to’g’ri qo’l bilan havo bo’ylab yelka osha gavdaning qarama-qarshi tomonidagi suv yuzasiga panjani tekkizish bilan siltashni bajarib, tinch sur’atda ko’krakda krol suzish.
- Harakat texnikasining ayrim elementlariga diqqatni qaratib, berilgan sur’at va tezlikda (parametrlarning doimiy qiymatlari va ularning o’zlashtirilishi) chalqanchasiga krol suzish.
- Masofada berilgan tezlikni saqlab, qo’lda eng kam miqdordagi eshishlar bilan chalqanchasiga krol suzish.
- Qo’lda kurakchalar bilan chalqanchasiga krol suzish.
- Eshayotgan qo’l bilan yo’lkaga tortilib, chalqanchasiga krol suzish.
- Galma-gal va bir vaqtdagi harakatlarni almashtirib, chalqanchasiga krol suzish.
- Murakkablashtirilgan sharoitlarda: panja musht qilib tugilgan. Panja yelkada tegadi (“tirsakda suzish”), qo’shimcha yuklar bilan qo’llarni suv yuzasida dastlabki holatga chiqarish.
- Yengillashtirilgan sharoitlarda ko’krakda krol suzish: uzun amortizatorda, ilmoq bilan (liderlik qiluvchi sim arqon) lastlar bilan.

Brass

- Brass usulida ko’krakda yoki chalqancha, taxta bilan yoki taxtasiz oyoqlar yordamida suzish (qo’llar son oldida yoki oldinga cho’zilgan).

- Xuddi shunday, lekin masofada berilgan tezlikni saqlagan holda oyoqlar bilan eng kam miqdorda itarilishlar.
- Qo'llar oldinga cho'zilgan, oyoqlarning brass usulidagi harakatlari yordamida 10-12 m ga sho'ng'ish.
- Oqib kelmasdan qo'llar bilan brass usuli va oyoqlar bilan delfinharakatlarning ikki-uch jarayonini navbatma-navbat almashtirish bilan suzish.
- Qo'llar bosh orqasida, oyoqlar bilan suv tagiga tayanmasdan tik holatda turib, oyoqda cheksiz brass usulida harakatlar bilan iloji boricha suvdan yuqoriroq ko'tarilish.
- Oldingi mashq, lekin suzuvchi oldinga siljiydi va sekin-asta gavdani yotiq holatga yaqinroq vaziyatga keltiradi.
- Ko'krakda yotgan holda, qo'llar son yonida, iyak suv yuzasida, oyoqlar bilan uzlucksiz va keng bo'lman brass usulidagi harakatlar yordamida suzish.
- Oldingi mashq, lekin qo'llar oldinga cho'zilgan.
- Tizzalar jipslashgan (po'kak tizzalar orasida qisilgan), ko'krakda va chalqancha holda oyoqlar bilan brass usulida harakatlar yordamida suzish.
- Qo'lda brass usulida va oyoqlar bilan delfin uzlucksiz harakatlar yordamida suzish.
- Oldingi mashq, lekin po'kaksiz, oyoqlar suv yuzasida va bo'shashgan.
- Shung'ishning ikki-uch jarayoni (qo'lda oddiy eshishlar bilan) va suv yuzasidagi harakatlar jarayoni almashinib turgan holda harakatlarning o'zaro to'liq mosligida brass usuli bilan suzish.
- Oldingi mashq, lekin sho'ng'ish songacha bo'lgan uzun eshishlar bilan bajariladi.
- Harakatlarning to'liq mosligi va songacha qo'lda uzun eshishlar bilan 10-12 m ga brass usulida sho'ng'ish. Start va burilishdan so'ng gavdaning suyri holatini va suv yuzasiga chiqqanda qo'llanuvchi qo'lda uzun eshishni takomillashtirish uchun foydalaniladi.

Sport pedagogik mahoratini oshirish

- Qo'lda ikkita eshish va oyoqlar bilan bitta eshishni moslashtirib, brass usulida suzish.
- Oyoqlar bilan ikkita eshishni va qo'lda bitta eshishni moslashtirib, brass usulida suzish.
- Harakatlarning to'liq mosligida brass usulida suzish, lekin oyoqlarning tizzadan boshlangan uzliksiz va maxsus kaltalashtirilgan harakatlari bilan.
- Oldingi mashq, lekin oyoq harakatlari texnikasining tanlangan varianti uchun oddiy brass usulida suzish bilan navbatma-navbat (25-50 mdan).
- Harakat texnikasining ayrim elementlariga diqqatni qaratib, berilgan sur'at va tezlikda (parametlar doimiy qiymatlari va ularni o'zgartirish) brass usulida suzish.
- Masofada berilgan tezlikni saqlab, eng kam miqdordagi eshishlar bilan brass usulida suzish.
- Uzliksiz oyoq harakatlari (qo'llar oldinga cho'zilgan) va qisman zaruriy birgalikdagi harakatlarning o'zaro mosligi maromidagi qo'l harakatlarning sekin-asta jalb qilinishi yordamida brass usulida suzish. Harakat boshida faqat panjalar, so'ngra bilaklar, keyinchalik esa, yelkalar ham jalb qilinadi.
- Tezlanish va qo'l va oyoqlarning ketma-ket moslashuvidan ularning qisman birgalikdagi moslashuviga o'tish bilan harakatlarning o'zaro mosligida brass usulida suzish.
- Yengilashtirilgan sharoitlarda brass usuli bilan suzish, uzun amortizatorda, ilmoq bilan (liderlik qiluvchi sim arqon) lastlar bilan.

Delfin

- Qo'llar turlicha holatda: ikkalasi oldinga uzatilgan; bittasi oldinga uzatilgan, ikkinchisi son oldida, ikkalasi son oldida bo'lganida ko'krakda va chalqancha oyoqlarning delfin harakatlari yordamida ko'krakda suzish.
- Yonlama holatda, pastki qo'l oldinga cho'zilgan, yuqoridagisi son oldida bo'lganda oyoqlarning delfin harakatlari yordamida suzish.
- Xuddi shunday, lekin ikkala qo'l son oldida. Qisqa masofalarga suzishda qo'llaniladi.

- Qo'llar oldinga cho'zilgan, bosh suv ustida bir oz ko'tarilgan (iyak suv yuzasi sathida), oyoqlarning delfin harakatlari yordamida suzish.
- Qo'llarda taxta ushlab, oyoqlarning delfin harakatlari bilan suzish.
- Oyoqlarning delfin harakatlari yordamida 10-12 *mga sho'ng'ish*.
- D.h. – oyoqlar bilan suv tagiga tayanmasdan tik holatda turish, qo'llar son oldida yoki yuqoriga uzatilgan oyoqlarning delfin harakatlari.
 - Qo'llar son oldida. Oyoqlarning chalqincha harakati yordamida va ikki zarbali delfin maromda havo bo'y lab (eshmasdan), qo'llarning turli-tuman harakatlari bilan ko'krakda suzish;
 - a) birinchi oyoq zarbasi bilan havo bo'y lab o'ng qo'l ni olib o'tish; ikkinchi zarba bilan qo'l ni olib o'tishni tugallash va uni oldinga cho'zish; uchunchi va to'rtinchi zarbalarida qo'llarning yangi holatini saqlab qolish, mashqni chap qo'l ni olib o'tish bilan takrorlash;
 - b) oyoqlarning birinchi zarbasi bilan o'ng qo'l ni oldinga olib o'tishni boshlash; ikkinchisi bilan qo'l ni olib o'tishni tugatish va uni oldinga cho'zish; uchinchisida chap qo'l ni oldinga olib o'tish, to'rtinchisida uni tugatish va qo'llarni oldinga cho'zish, keyingi to'rtta zARBAGA qo'llarning yangi holatini saqlash.
 - v) o'ng va chap qo'l ni birinchi galda navbatma-navbat orqaga d.h. ga o'tkazish.
- Sonlar orasida po'kak bilan qo'llarning delfin harakatlari yordamida suzish; nafas olish davr ora.
- Xuddi shunday, lekin po'kaksiz, oyoqlar bo'shashgan va suv yuzasida cho'zilgan.
- Qo'llar bilan delfin va oyoqlar bilan krol harakatlar yordamida suzish.
- Oyoqlar bilan delfin va qo'llar bilan kaltalashtirilgan eshishlar orqali brass usulidagi harakatlar bilan suzish.
- Oldingi mashq, lekin boshni, iyakni chapga, oldinga, o'ngga, oldinga va h.k. (har bir jarayondan so'ng) burish.

Sport pedagogik mahoratini oshirish

- Harakatlarning o'zaro bir zarbali mosligida oyoq zarbali bilan ikki variantda delfin suzish: birinchi variantda zarba qo'llarni suvga tushirish paytida bajariladi, ikkinchisida qo'llar bilan eshish oxirida.
- Bosh ko'tarilib, iyak suv yuzasi sathida bo'lган holatda delfin suzish.
- Qo'l harakatlarning bir, ikki yoki uch jarayonidan so'ng nafas olish va nafas olishning turli variantlari bilan delfin suzish.
- Oyoq harakatlari va bir qo'l yordamida delfin suzish, bunda ikkinchi qo'l oldinga cho'zilgan, ikki zarbali qo'shilgan delfin maromda, nafas olish uchun bosh eshayotgan qo'l tomonga buriladi.
- Oldingi mashq, lekin ikkinchi qo'l son yonida, nafas olish bosilgan qo'l tomonda.
- Oyoq harakatlari va qo'l harakatlari har xil uch variantning almashinib turish: ikki zarbali birgalikdagi harakatlarining o'zaro mosligi maromida chap qo'lda eshish (o'ng qo'l oldinga cho'zilgan), ikki qo'l bilan eshish, o'ng qo'l bilan eshish (chap qo'l oldinga cho'zilgan) yordamida delfin suzish.
- Oldingi mashq, lekin bir qo'l harakat qilganda, ikkinchisi son yonda cho'zilgan holda qoladi.
- Oldingi ikki mashq kabi, lekin bir turdag'i eshish harakatlari soni 3-5 gacha ortadi: masalan bir qo'lda 3 ta eshish, ikkala qo'lda 3 ta eshish, ikkinchi qo'lda 3 ta eshish.
- Ikki zarbali birgalikdagi harakatlarning o'zaro mosligi maromida delfin suzish, lekin nafas olish paytida eshish oxirida qo'llarning son oldida to'xtashi bilan; to'xtam paytida oyoqlar bilan qo'shimcha (uchinchi) zarba bajariladi, va harakatlar jarayoni takrorlanadi.
- Ikki zarbali qo'shilgan delfin maromda qo'llar bilan navbatma-navbat krol eshish (orgali, qo'llar son yonida bo'lib, oyoq harakatlari yordamida delfinsuzish).
- Ikki zarbali birgalikdagi harakatlarning o'zaro mosligi maromida qo'llar bilan krol va oyoqlar bilan delfinharakatlar yordamida suzish. Bir tomon (qo'llar bilan 2 ta eshish) yoki ikkala (qo'llar bilan 3 ta eshish) tomonga nafas olish bilan bajariladi.

- Harakatning o'zaro to'liq mosligida va sonlar orasida katta bo'limgan suzish taxtasini qisib, delfinsuzish.
 - Xuddi shunday, lekin sonlarga panjalarni tekkizib.
 - Ikki zarbali qo'shilgan harakatlarining o'zaro mosligida nafasni ushlab va qo'l harakatlarining uch jarayonidan so'ng nafas olish bilan delfinsuzish.
 - Berilgan sur'at va tezlikda (parametrlarning doimiy qiymatlari va ularning o'zgartirish va harakat) texnikasining ayrim elementlariga e'tiborini qaratib, delfin suzish.
 - Masofada berilgan tezlikni saqlagan holda qo'lda eng kam miqdordagi eshishlar bilan delfin suzish.
 - Yengillashtirilgan sharoitlarda delfinchcha suzish: uzun amartizatorda, ilmoq bilan (liderlik qiluvchi arqon) lastlar bilan.

Tumbochkadan va suvdan start berish.

- Uchish va suvga kirish paytida gavdaga bosilgan qo'llar bilan start sakrashi; iloji boricha uzoqroqqa sakrash va sirpanishga harakat qilish.
- Xuddi shunday, lekin suvga kirish paytiga kelib, gavdaga bosilgan qo'l keskin siltov harakati bilan (pastdan yoki yuqoridan) oldinga cho'zilgan qo'l bilan birlashadi.
- 1-mashqdagi kabi, lekin suvga kirish paytiga kelib, ikkala qo'l siltov harakati bilan oldinga chiqariladi.
- Yugurib kelib, hovuz devoridan suvga bosh bilan sakrash.
- Tikka harakat yo'li bo'y lab uchib chiqish bilan, suvga keskin kirib (xuddi bir nuqtaga tushgandek), suv ostida oyoqlar yordamida delfinshiddatli eshish harakatlari bilan va ko'krakda krol yoki delfinsuzish harakatlariga o'tish bilan start sakrashi.
- Oldingi mashq, lekin brass usulida qo'l va oyoqlar bilan eshish va brass usulida suzish harakatlariga o'tish bilan.
- Ko'ndalang o'qqa nisbatan gavdani 90° ga burish (yonlama holatda suvga kirish) bilan va keyinchalik suv ostida sirpanish paytida suv ostida oyoqlar

Sport pedagogik mahoratini oshirish

yordamida delfinshiddatli eshish harakatlari bilan chalqanchasiga o'tish orqali, suv ustiga chiqish va chalqan-chasiga suzish harakatlariga o'tish bilan start sakrashi.

- Uchib chiqish burchagining eng qulay chegaralarida o'rnatilgan xoda ustidan gimnastika chambaragi ichiga start sakrashi.
- Start sakrashi va o'tilgan masofani qayd qilish bilan harakatsiz to'liq to'xtagancha sirpanish (bosh sathida).
- Quyidagilarga urg'u berib start sakrashi: a) tayyorgarlik harakatlarini tez bajarish; b) itarilishni tez bajarish; v) sakrash uzoqligi.
- Startdan buyruq bo'lgach, vaqtini qayd qilib, 15 m li masofani suzib o'tish (15 m li yo'lkada suzuvchi boshi sathida).

Burilishlar.

- Quruqlikdagi akrobatika mashqlari, ko'p marotalab haqqa-lashlar, bir yoki ikki oyoqda sakrashlar, baland to'siqlardan sakrash.
- Suvga o'quv sakrashlari (shu jumladan yarim aylanishlar va oldinga va orqaga yarim buralib aylanishlar).
- Ikki tomonga burilishni bajarish.
- Oyoqni devorga qo'yib, ikkita aylanish.
- Hovuzda ko'ndalangiga suzish paytida burilishlarni bajarish.
- Odatda texnikasini takomillashtirishni qo'llar bilan eshish va nafas olishni to'g'ri yo'lga qo'yishdan boshlash, so'ngra harakat-larning umumiyligiga o'tish tavsiya qilinadi. Bu bilan gavdaning suyrilik va vazminlik holatini, shuningdek, oyoq harakatlari texni-kasini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liqda shug'ullanish kerak. Agar texnikaning u yoki bu elementi o'zlashtirilgan bo'lsa, uni suzish paytida harakatlarning o'zaro to'la mosligida tekshirish va mustahkamlash zarur. Texnikaviy mahoratning takomillashuvi suzish texnikasining turli-tumanligi bilan chambarchas bog'liq bo'lishi lozim. Qattiq va mustahkam o'rnatilgan ortiqcha ko'nikma sportda yanada ko'proq o'sishga to'sqinlik qiladi. Yosh suzuvchilar o'ziga xos suzish harakatlarining katta xazinasiga ega bo'lishlari lozim, shuning uchun texnikani takomillashtirish sekin-asta murakkablashuvchi va o'zga-ruvchi sharoitlarda barcha yangi harakat

masalalarini hal qilishning to'xtovsiz jarayonidan iborat. Odatda texnikaviy mashqlarni muayyan majmualarga birlashtirilib, u yerda suzishning ayrim elementlari yoki elementlar bog'lamlari harakatlarning o'zaro to'la mosligidagi suzish bilan almashinib turadi. Bu mashqlar turli tezlik, turli sur'at va maromda bajariladi.

Xatolarni to'g'rakashda hammadan oldin asosiyalarini, ya'ni suzish samaradorligida eng ko'p darajada namayon bo'luvchilarni aniqlash kerak. Bular asosan, qo'llar bilan eshish texnikasi, qo'l harakatlarining nafas olish bilan moslashuvi, to'rtta sport usulining xohlagan bittasi bilan suzishda oyoq harakatlari texnikasidagi xatolardir. Bunday xatolar gavda holati va oyoq harakatlari texnikasini yaxshilash bilan bir vaqtida to'g'rilanadi. Xatolarni to'g'rakashdagi qiyinchilik vaziyatlarida qarama-qarshi vazifalar usulini qo'llash foydalidir. U shundan iboratki, o'quvchiga o'z tavsifi bo'yicha yo'l qo'yilgan xatoga qarama-qarshi harakatlarni (gavda vaziyati yoki dastlabki holatni qayd qilish) bajarishni taklif qiladilar.

O'z bilimini nazorat qilish uchun savollar:

1. Startlar texnikasini takomillashtirish mashqlarni sanab bering.
2. Burilishlar texnikasini takomillashtirish mashqlarni sanab bering.
3. Ko'krakda krol suzishda takomillashtirish mashqlarni sanab bering.
4. Chalqancha krol suzishda takomillashtirish mashqlarni sanab bering.
5. Brass suzishda takomillashtirish mashqlarni sanab bering.
6. Batterfly suzishda takomillashtirish mashqlarni sanab bering.

IV BOB. SPORTCHILARNING JISMONIY SIFATLARI

IV.1. Texnikaviy tayyorgarlikni nazorat qilish¹⁹



Sport tayyorgarliginig dastlabki bosqichida suyrilik (sirpanish uzunligi), suzuvchanlik (qo'llar yuqoriga cho'zilgan to'liq nafas olgan holda suvga tik holatda muvozanat paytidagi suv sathi), suvni his qilish (ekspert baholash), suzishning barcha usullari: a) faqat oyoqlar yordamida, b) faqat qo'llar yordamida, v) harakatlarning o'zaro to'liq mosligida suzish texnikasi baholanadi.

Ko'p yillik tayyorgarlikning keyingi bosqichlarida suzish texnikasini tahlil qilishda suv usti va suv osti videotasviri va musobaqa tezligidagi sur'at va qadamni baholashni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Eshish harakatlarining samaradorligi va tejamliligini baholash uchun oshib boruvchi tezlik va eshishlar soni va yurak urishi tezligini qayd qilish bilan 3 x 50-100 m. li test sinovlarini bajarish.

Oshib boruvchi tezlik bilan 3 x 50 m. li test sinovida erkin uslubda suzib o'tishda sur'at va qadamni hisoblash

Vaqt, <i>sek</i>	Jarayonlar soni	Tomir urish tezligi, <i>ur/daq</i>	Tezlik, <i>m/s</i>	Sur'at, <i>j/daq</i>	Qadam, <i>m</i>
37,0	16	138	1,351	25,4	3.13

¹⁹ Alan Lynn, Swimming: Technique, Training, Competition Strategy

31,0	19	156	1,613	36,8	2,63
27,0	24	174	1,852	53,3	2.08

Test natijalari bo'yicha ikkita chizma chiziladi. Birinchi chizmada suzish tezligi sur'at qiymatlari qarshisida, ikkinchisida – tomir urushlari tezligi qiymatlari qarshisida qo'yiladi. So'ngra ikkala chizmada to'g'ri chizmalar shunday o'tkaziladiki, bunda nuqtalardan chetlanishlar eng kam miqdorda bo'ladi. Birinchi chizmada to'g'ri chiziqning og'ishi qancha katta bo'lsa, texnika samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi (sur'atning kam miqdorda oshishiga tezlikning ortishiga erishiladi). Ikkinchi chizmada to'g'ri chiziqning og'ishi qancha katta bo'lsa, texnika tejamliligi shuncha yuqori bo'ladi (tomir urishi kam miqdorda oshishi hisobiga tezlikning ortishiga erishiladi). Yanada aniqroq qiymatlari olish uchun hovuz devoridan itarilgach, sipranish hisobiga masofaning bir bo'lagini o'tishdagi uzunlik va vaqtga tuzatishlar kiritish yoki masofa bo'lagi o'rtasida 10 ta jarayon vaqt bo'yicha jadallikni aniqlash mumkin.

IV.2. Quruqlikda umumiy jismoniy tayyorgarlik

Suzuvchining umumiy jismoniy tayyorgarligi suzishning o'ziga xosligini ba'zibir hisobga olishlar bilan sportchi organizmiga har tomonlama jamlangan ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan. U quyidagi masalalarni yechishga imkon beradi:

- Sportchi organizmini har tomonlama rivojlantirish, chidamlilik, kuch, tezlik, egiluvchanlik, epchillikni rivojlartirish darajasini oshirish va bu sifatlar asosida yuqori sport natijalariga erishish uchun zarur bo'lgan funksional baza yaratish;



- Suzuvchilarning sog'lomlashadirish, chiniqtirish, harakat o'zgarishlariga immunitet hosil qilish;
- Maxsus mashg'ulot

Sport pedagogik mahoratini oshirish

yuklanmalarini kamaytirilishi davrlarida qo'llaniladigan mashqlar tavsifini o'zgartirish orqali faol dam olish bilan ta'minlash;

- Sportchilarning irodaviy tayyorgarlik darajasini qo'shimcha yaratiladigan qiyinchaliklarning ular tomonidan yengilishi orqali oshirish.
- Mashg'ulotning ko'p yillik jarayonida bu masalalarning maqsadga yo'naltirilib hal qilish suzuvchi-atletikachi sportchilarning muayyan turini yaratidi.

Umumiy jismoniy tayyornarlikning asosiy vositalariga qo'yidagilar kiradi:

- Siljishning har xil turlari (oddiy yurish va yugurish, shuningdek, yonlamasiga, orqa bilan oldinga, qo'llarning turli harakatlari bilan, yarim cho'kkalab va boshqa yurish va yugurishlar);
- Kross tayyorgarligi (1 va 2-yil o'quv-mashg'ulot guruhlari uchun unchalik o'nqir-cho'nqir bo'limgan joy bo'ylab mo'tadil sur'atda yugurish – 30 daq gacha, 3 va 4-yil guruhlari uchun yugurish bilan almashingan holda – 1 soatgacha);
- Umumrivojlantirish va akrobatik mashqlar (predmetsiz, sherik bilan, tayanish va osilib turish bilan);
- Ochiq havodagi sport o'yinlari, estafetalar, umumrivoj-lantiruvchi mashqlar.
- Umumiy va har tomonlama kuch tayyorgarliganining vosita va usullari, egiluvchanlik va epchillikni rivojlantirishda qo'llaniladigan quruqligidagi mashqlar tegishli bo'limlarda tasvirlangan.

IV.3. Chigil yozish mashqlari

O'z ichiga panjalar, bilaklar, qo'llar, yelka-bel silkitishlarni olgan harakatlar; qo'llar bilan bo'shashgan siltash va aylanma harakatlar; orqa mushaklarni bo'shashtirib, gavdani eshish va aylantirish;



oyoqlarni bo'shashtirish, nafas olishni tinchlantirish mashqlari va boshq.

To'pni otgandan so'ng qo'l mushaklarining to'liq bo'shashi zarurligiga shug'ullanuvchilarning diqqatini qaratilsa, to'p bilan mashqlar samarali bo'ladi.

To'ldirma to'pni sherikka bosh orqasidan otish. Otgandan so'ng qo'llar mutlaqo bo'sh bo'lib, qamchi kabi pastga tushishi kerakligiga alohida e'tibor berish zarur.

Basketbol to'pni yerga urib olib borish. Koptokni har bir zarbadan so'ng oldiniga panja, so'ngra esa, yelkadan boshlab butun qo'l to'liq bo'shashishi kerakligiga alohida e'tibor berish zarur.

Sakramachoqda sakrash. Oyoq itarilgandan so'ng oldiniga oyoq panjasি, so'ngra esa, sondan boshlab butun oyoq to'liq bo'shashishi kerakligiga e'tibor qaratish zarur.

Turgan (o'tirgan yoki yotgan) holda chuqur nafas olish va ayrim mushak va mushak guruhlariga 4 soniyalik zo'r berish. Nafas chiqarishda mushaklarni bo'shashtirish.

Chalqancha yotnag holda tizzada bukilgan oyoq panjalari bilan tiralib turiladi. Nafas olishda uni ushlab turib, tizzalarni 6-8 s ga qattiq qisish.

Sekin-asta nafas chiqarib, tizzalarni "tushirib yuborish".

Tikka turib, nafas olish, qo'llarni bosh ustidan yuqori ko'tarish, nafas chiqarib, ularni pastga "tashlash", bo'shashish.

Tikka turib, qo'llarni yuqori ko'tarish, panjalarni musht qilib, 6-8 s ga qisish, so'ngra bo'shashtirib "tashlash".

Yelka va bilaklar mushuklarini 6-8 s davomida izometrik tarang qilish, so'ngra bo'shashtirib, oldin bilak, so'ngra yelkani "tashlash".

Bo'yin mushaklarini 4-6 s ga tarang qilish, so'ngra ularni bo'shashtirib, boshni "tashlash".

D.h. - a.t.t.: 1) gavdani oldinga egish, qo'llar yonga, qo'l, yelka-bel muskullarini qattiq tarang qilish, barmoqlarni musht qilish; 2) qo'l va yelka-bel muskullari tarangligini kamaytirish; 3) ularni bo'shash-tirish (qo'llar "tushib ketadi"); 4) dastlabki holatni qabul qilish.

Sport pedagogik mahoratini oshirish

D.h. - yerda o'tirgan holda, oyoqlar oldinga, gavda orqasiga qo'llar bilan tayanish: 1) egilish va bir vaqtning o'zida butun gavda muskullarini qattiq tarang torttirish; 2) sekin-asta muskullarni bo'shashtirish; 3) dastlabki holatga qaytish.

D.h. - a.t.t.: 1) o'ng (chap) oyoqni oldinga tashlash, egilish, qo'llar orqada, barmoqlar qattiq musht qilib tugilgan; 2) qo'l, yelka-bel muskullarini bo'shashtirish (qo'llar "tushib ketadi"); 3) muskullarning bo'shashgan holatini his qilish va dastlabki holatni his qilish.


D.h. - a.t.t.: 1) muskullarni qattiq tarang torttirib, qo'llarni yelkaga bukish; 2) qo'llarni yuqoriga ko'tarish (ularning muskullari taranglashgan); 3) muskullarni bo'shashtirib, bilak va panjalarni "tushirib yuborish". 4) yelka-bel muskullarini bo'shashtirib, qo'llarni "tushirib yuborish".

D.h. - a.t.t.: 1) gavdani oldinga eshish, o'ng qo'lni kuchli taranglashtirib, yon tomonga uzatish, bir vaqtning o'zida chap qo'l muskullarini bo'shashtirish; 2) muskullarni kuchli taranglashtirib, chap qo'lni yon tomonga uzatish, bir vaqtning o'zida o'ng qo'l mushaklarini kuchli taranglashtirib, o'ng qo'lni yon tomonga bo'shashtirish va uni pastga tushirish; dastlabki holatga qaytish.

Lovitskiy tomonidan ishlab chiqilgan bo'shashtirish mashqlari majmuini o'z ichiga quyidagi usullarni oladi: dastlab muskullarni kuchli taranglashtiruvchi mashqlardan foydalaniladi, so'ngra tarang-lashish darajasi gavdaning ushlab turilgan qismi og'irligini aniq his qilguncha kamaytiradi, undan keyin gavdaning bu qismi uning og'irligi ta'sirida "tushib ketish" bilan birgalikda muskullarining to'liq bo'shashi amalga oshiriladi.

Muskullarni bo'shashtirishga o'rgatishning keyingi bosqichida muskullarni kuchli taranglashtirishdan ularni bo'shashtirishni sekin-asta o'tishni amalga oshiruvchi mashqlardan foydalaniladi. Yakun-lovchi bosqichda muskullarni bo'shashtiruvchi yanada murakkabroq mashqlarga o'tilib, bunda ba'zibir muskullarning ixtiyoriy bo'shashi bilan bir vaqtning o'zida boshqalarining ixtiyoriy bo'shashi birgalikda bo'ladi.

IV.4. Akrobatika mashqlari



Mashqlar xavfsizlikni ta'minlash bilan bajariladi. Tizzalarga tayanib turgan yoki yotgan holatda egilib, yon tomonlarga dumalash; orqa va old tomonga dumalashlar. Guruh bo'lib oldinga umbaloq oshish; odimlab kelib oldinga umbaloq oshish; oldinga ikkita umbaloq oshish. Chalqanchasiga yotib ko'rik holatiga o'tish. Yarim shpagat. Ko'krakda turish. Guruh bo'lib orqa va oldinga umbaloq oshish. Yelkadan umbaloq oshish. Oldinga uzun umbaloq oshish. Oldinga ketma-ket bir nechta umbaloq oshish. Egilib yotgan holatda yon tomonlarga, oldinga va orqaga umbaloq oshish; egilib va tizzada bukilgan oyoq panjalarini mahkam ushlab oldinga va orqaga dumalash ("elektropoyezd dugasi"). Boshga va qo'llarga tayanib, oyoqlarni osmonga ko'tarish. Orqaga egilish bilan ko'rik holati (yordam bilan). Qo'llarga tayanish bilan shpagat holati.

IV.5. Chidamlilikni rivojlantirishning vosita va usullari

Sportning siklik turlarida sportchilarning mashg'ulot yuklan-malarini mashg'ulot ta'sirining ahamiyatli yo'nalishdagi 5 ta zonaga bo'lish qabul qilingan. Yuklanmalarni chegaralashning asosiy mezoni bo'lib, bajariladigan mashqlarning shartli birliklarda ifodalangan (birlik qilib kislород iste'molining individual maksimumi qiymati qabul qilinadi) nisbiy quvvati hisoblanadi. Bioximik va fiziologik parametrlar, xususan, qondagi sut kislotsi darajasi, tomir urish tezligi va boshqalardan qo'shimcha foydalilanadi. Uslubiy nuqtai nazardan bolalar sport suzish maktabi sharoitlarida



Sport pedagogik mahoratini oshirish

chidamlilik turlariga qarab ish tutish maqsadga muvofiqdir. Pedagogik tasniflash asosan tibbiy-biologik tasnifga mos keladi (12-jadval), lekin sportcha suzishning yosh guruhlari uchun mashqlarning o’ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi. Chunonchi, mashqlarning davomiyligi 10 s dan kam bo’lganda va amaliyotda ularni davomiyligi 25-30 s gacha bo’lgan mashqlar bilan birlashtiradilar. Shuning uchun V zonani yanada aniqroq qilib aralash alaktat-glikolitik deb atash kerak.

Hovuzdagagi mashg’ulot jarayonida ko’pchilik biokimyoviy va fiziologik ko’rsatqichlarni o’lchashning imkoniyati yo’q. Lekin ish quvvati va uni bajarishning chegaraviy vaqtida juda uzviy o’zaro bog’langan bo’lib, bu esa, masofa bo’laklaridagi vaqt, jadallik va tomir urishi tezligini qayd qilishga asoslangan holda, yuklanmalarning ahamiyatli yo’nalishi to’g’risida hukm chiqarish imkonini beradi. Mashqning u yoki bu zonaga tegishli ekanligiga suzib o’tiladigan masofaga qaraganda yuklanma davomiyligi ko’proq darajada ta’sir qiladi. Masalan, yaqin masofaga suzuvchi krolchi 50 m ni 25 s va undan tezroq suzib o’tsa, unda bu yuklanma V zonaga tegishli bo’ladi; brasschi qizlar 50 m ni 45 s da suzib o’tishi, IV zona yuklanmasi bo’ladi.

Suzishdagi mashg’ulot yuklanmalari zonalari.

Zona	Mashg’ulot ta’sirining yo’nalganligi	Pedagogik tasnif
V	Aralash alaktat – glikolitik.	Tezlikning rivojlanish.
IV	Glikolitik – anaerob.	Glikolitik – anaerob tavsifidagi ishga chidamlilik
III	Aerob ustunlikda	Asosiy chidamlilik – 2
II		
I	Aerob	Asosiy chidamlilik – 1

Ko’pincha pedagogik tasnifdagi IV zona mashqlarini maxsus chidamlilikka kiritadilar, bu esa, unchalik to’g’ri emas. Ular 100 va 200 m masofalarga chiquvchi

suzuvchilar uchun maxsus hisoblanadi, lekin 50 m ga chiquvchi yaqinda suzuvchilar, o'rta va uzoq masofa (800-1500 m)ga suzuvchilar uchun glikolitik-anaerob yo'nalishdagi ish o'ziga xos hisoblanadi.

13-jadvalda parametrlarning o'rtacha qiymatlari ko'rsatilgan bo'lib, ular bo'yicha suzishdagi mashg'ulot mashqlari tasniflanadi. Tomir urishi mezonlari yoshga bog'liq bo'ladi: 14-jadvalda turli yosh guruhlaridagi suzuvchilar uchun tomir urishi tartibining taxminiy qiymatlari keltirilgan.

Shuni qayd qilish lozimki, 13 va 14-jadvallardagi parametr-larning o'rta hisobda olingan bo'lib, yuklanma zonasini aniqlashda shug'ullanuvchilarining sport malakasi darajasi, jinsi va yoshini hisobga olish lozim. Yuqori malakali sportchilar, masalan, kislorod iste'molining eng yuqori darajasini 2-3 marta uzoqroq ushlab tura oladilar, ularda ANAB darajasidagi shuning chegaraviy davomiyliga ham yuqoridir. Mos ravishda ulardagi zona chegaralari 13-jadvalda keltirilganidan farq qilishi mumkin, ularni individual tarzda belgilagan ma'qul. Tomir urishi tartibini aniqlashga YuQTning individual eng yuqori miqdori qandaydir darajada ta'sir ko'rsatadi.

Mashg'ulot yuklanmasi zonasini aniqlovchi parametrlarning o'rtacha qiymati

Zonalar	Ishning chegaraviy vaqtি	Tomir urishi tartibi	Sut kislotasi darajasi, <i>m. mol/l</i>	Masofaning taxminiy uzunligi, <i>m</i>
V	30 s dan kam 0,5-4,5 daq	Tomir urishi hisobga olinmaydi	Hisobga olin- maydi	10-50
IV	4,5-15 daq	4	9 va undan yuqori	50-400
III	15-30 daq	3	6-8	400-1200
II	30 daq dan ortik	2	4-5	1200-2000
I		1-2	4 dan kam	2000 dan ortiq

Tomir urish tartibi uchun YuQT (ur/daq) qiymatlari

Yoshi	Tomir urishi tartibi			
	1	2	3	4
9–11	155-170	170-185	185-200	200 dan yuqori
12-13	156-160	160-170	170-190	190 dan yuqori
14-15	140-150	150-165	165-185	185 dan yuqori

Keyingi paytlarda yuklanmani yanada yaxshiroq darajalash bo'yicha tavsiyalar paydo bo'la boshladi. Bunda, odatda, ko'rsatilgan besh zonadan (hammadan oldin III va IV) ba'zi birlarini ayrim zonachalariga bo'lish haqida so'z ketadi. Bu shu bilan bog'liqki, bunda har bir energiya manbai uchun chegaraviy vaqt bo'yicha chegaralar bo'lib, ular doirasida uning metabolik unumdorlik eng yuqori darajalarga yetadi. Mashqni bajarish vaqt oshganda quvvat biroz pasayadi, lekin uning sig'imi, ya'ni berilgan mexanizm tomonidan ishlab chiqilgan energiyaning umumiyligi miqdori ortadi.

Bunday bo'lish yuqori klassli suzuvchilar uchun to'g'ridan-to'g'ri fiziologik va biokimiyoviy o'lchovlar sharti bilan ma'noga egadir, chunki parametrarning chegaraviy qiymatlariga mutaxassislik (yaqin masofaga suzuvchilar uzoq masofaga suzuvchi) va shaylik darajasi qandaydir darajada ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, zonachalarni hisobga olgan holda turli sportchilar uchun yillik jarayondagi yuklanmalarni rejalashtirish bo'yicha starlicha asoslangan tavsiyalar hali yo'q. Shuning uchun ushbu dasturda an'anaviy 5 zonali tasnifdan foydalilaniladi.

Mashqlarning umumiyligi tavslifi V zona (ta'sirning aralash alaktat-glikolitik yo'nalishi)

Davomiyligi 3-4 s. bo'lgan mashqlarda energiya hisobi alaktat-anaerob mexenizmining eng yuqori quvvatiga erishiladi va 6-8 s. gacha ushlab turiladi. Davomiyligi 10 s. gacha bo'lgan ish paytida bu tizim energiyaning asosiy ta'minlovchi bo'lib qolaveradi, lekin alaktat tizimi sig'imi birinchi darajaga chiqib oladi (T: S. kreatin fosfat va ATF zahiralari). Mashq davomiyligi oshishi bilan sut kislotasi darajasi oshib boradi, aloktat fosfagen tizimi ahamiyatliligi esa, sekin-asta

pasayadi. Ushbu zona mashqlari tezlik sifatlari ($10, 15, 25\text{ m}$. li masofa-larni bir marotaba va takroriy suzib o'tish) va tezlikka chidamlilik (TCH)ni rivojlantirish uchun qo'llanilishi mumkin. Odatda, bu zona uchun tomir urishi tezligi hisobga olinmaydi. TCHni rivojlantirish uchun takrorlashlar soni 2 dan 16 gacha bo'lganda 10 dan 25 m gacha masofalardan, to'xtamlari 1-2 daq bo'lgan bir, ikki yoki uch takroriy ishda esa, 50 m gacha masofalardan foydalilanadi. Yosh suzuvchilarda TCHni rivojlantirishni eshish harakatlari sur'ati va qadamini majburiy nazorat qilish bilan o'tkazish tavsiya qilinadi.

Zona (ta'sirning glikolitik-anaerob yo'nalishi)²⁰

Ish davomiyligi 0,5 dan 4,5 gacha bo'lgan mashqlar asosiy anaerob glikoliz hisobiga bajariladi, bunda 1 *daq* gacha yetakchi omil bo'lib, uning quvvati (sut kislotasining to'planish tezligi), undan yuqo-risida – sig'im (to'plangan diktatning umumiy miqdori) hisoblanadi. Mos ravishda “glikolizning eng yuqori darajasi” va “laktat tolerantlik” zonachalarni ajratish mumkin.

Anaerob-glikolitik tavsifdagi ishga chidamlilikni (AGU) rivoj-lantirishi suzuvchilarni tayyorlash tizimida asosiy bo'g'in hisoblanadi va energiya ta'minoti anaerob-glikolitik mexanizmi quvvati va sig'imining oshishiga, toliqishning rivojlanishiga qarab suzish harakat-lari sur'ati va qadaming qulay nisbatlarini saqlab qolishga bo'lgan qobiliyatni oshirishga yo'naltirilgan. Mashqlar IV tomir urishi tartibida bajariladi.

AGUni rivojlantirishning asosi bo'lib, musobaqa sharoitlarida qisqa va o'rta masofalar ($75-400\text{ m}$) da harakatlarning o'zaro to'liq mosligila tanlangan yo'lda, shuningdek, “maydalangan” seriyalar deb atalishi takroriy oraliqli suzish ko'rinishidagi, ishchi masofalarni suzib o'tish vaqtি $1,5-3$ marta ortiq bo'lgan, dam olish oraliqlarida ega qisqa masofalar ($50-100\text{ m}$) dagi oraliq mashg'ulotning yuqori samarali (“tezkor”) usullarida suzish hisoblanadi. Uzoq masofaga suzuvchilar uchun bu $1-3 \times (4-6 \times 100)$ $5-20\text{ s}$ to'xtamli, $1-3 \times (4 \times 150)$ $5-10\text{ s}$ to'xtami bo'lgan turdagи seriyalar bo'lib, seriyalar orasidagi dam olish $5-10\text{ daq}$.

²⁰ Terry Laughlin, John Delves, Total Immersion: The revolutionary way to swim better, faster, and easier

Sport pedagogik mahoratini oshirish

O'rta va uzoq masofaga suzuvchilar uchun bu 1-2 x (3-4 x 100) yoki 4-8 x 50 5-15 s to'xtami, 1-5 x (4 x 25) 5-10 s to'xtami, 2-4 x (4 x 50) 5-15 s to'xtami bilan turdag'i seriyalar bo'lib, seriyalar orasidagi dam olish 3-7 daq.

Kichik hajmdagi "maydalangan" seriyali turdag'i mashqlarni qizlar uchun 12-13 yosh, o'g'il bolalar uchun 13-14 yoshdan boshlab mashg'ulotlarga kiritish mumkin. 8-11 yoshdagi yosh suzuvchilar uchun AGUni rivojlantirishning asosiy shakli – 50-100 m li masofa-dagi musobaqalar, shuningdek, "qisqa" seriyalar (25-50 m li 4-6 bo'-lak yoki 100 m li 2-4 bo'lak)ni suzib o'tish hisoblanadi.

Zona (ta'sirining aralash aerob-anaerob yo'nalishi)

4 dan 15 daq gacha bo'lgan ish aerob kabi glikolitik-anaerob jarayonlarining ham bir vaqtida safarbar qilinishi bilan ro'y beradi va aralash zonaga ajralib chiqadi. Mashqlarni yanada yaxshiroq taqsim-lash uchun ikki, ya'ni anaerob-aerob (4 dan 8 daq gacha) va aerob-anaerob (8-15 daq) kichik zonalarga ajratish mumkin.

Bu turdag'i ish anaerob-glikolitik jarayonining unum dorligi yuqori darajada bo'lgan paytda aerob imkoniyatlarining eng yuqori yoki cho'qqisiga yaqin kuchlanishini talab qiladi. Suzishda bu turdag'i ishga chidamlilikka "asosiy chidamlilik" (ACh-2) atamasi berilgan.

Yurak muskuli va tashqi nafas olish a'zolarining yuqori quvvati va chidamliligi ACh-2 ning asosi bo'lib hisoblanadi. Bu III tomir urish tartibidagi ishdir. Prepubertat yoshidagi yosh sportchilarda ACh-2 ning rivojlanish vositalari kross yugurish va juda o'nqir-cho'nqir joylar bo'y lab chang'i poyogalari bo'lismumkin. 13-14 yoshdan boshlab, ACh-2 ning asosiy rivojlanishi shakli suzish tayyorgarligi bo'lib qoladi. Ko'krakda krol suzish va harakatlarning o'zaro to'liq mosligida tanlangan usuldag'i mashqlardan foydalaniladi. Suzishda ACH-2 ni rivojlantirish 3, 5, 7, 9 jarayonlardan so'ng nafas olish bilan bo'ladigan "gipoksik" mashg'ulot ko'rinishidagi eng yuqori darajadagi kuchlanishni safarbar qilishi o'rta va uzoq masofalar (200-800 m) dagi takroriy mashg'ulot bilan; 25-200 m masofalarda oraliq mashg'ulotlar ko'rinishida bajariluvchi 2-6 x (300-600 m) li masofaviy oraliq mashq-lardan foydalanish orqali o'tkaziladi.

8-11 yoshli bolalarda eng yuqori aerob imkoniyatlarni rivojlan-tirish uchun qisqa va o’rta masofalar ($25-100\text{ m}$) ni qo’llash to’g’ri keladi, chunki ular bundan uzoqroq masofalarda suzish texnikasini mustahkam ushlab turishga hali qodir emaslar. Yoshi kattalashgan sari suzishning umumiy hajmidagi takroriy oraliq mashqlar, to’xtamli mashg’ulotning jadal varianti, shu jumladan, qattiq tartib (III tomir urish tartibi, seriyalarda masofalar orasidagi dam olish to’xtamlari $5-20\text{ s}$) da bajariluvchi mashqlarning ulushi ortib boradi. III tomir urishi tartibidagi mashqlar yosh sportchilarda mashqlarni bajarishdagi, ayniqsa, “gipoksik” variantdagi anaerob-glikolitik unumdonlik ham oshishiga muayyan darajada imkon beradi.

Shu bilan bir vaqtida o’smirlar bilan III tomir urishi tartibida ishlashda ehtiyyotqorlik talab etiladi, chunki bunday yuklamanmalar-ning katta hajmi ularda yurak mushaklari tizimi va markaziy asab tizimining haddan tashqari zo’riqishiga olib keladi.

Yosh suzuvchilarda eng yuqori aerob imkoniyatlarni oshirish-ning samarali vositasi bo’lib, suzish tezligining pog’onama-pog’ona ortishi bilan o’rta masofalarda bajariladigan oraliqli seriyalar hisoblanadi.

Masalan: $16 \times 100\text{ m}$ li ko’rinishida: $3 \times 100\text{ s}$ eng yuqorisidan 50% jadallik bilan + 3×100 60-70% jadallik bilan + 1×200 70-75% + jadallik bilan + 3×100 75-80% jadallik bilan + $3 \times 100\text{ s}$ 80-85% jadallik bilan + 3×100 85-90% jadallik bilan. Shuni nazarda tutish kerakki, ish kuvvatinig sekin-asta oshib borishi MPKga erishishning eng muhim sharti hisoblanadi. Shuning uchun ACh-2 ni rivojlantirish uchun mashg’ulot seriyalarini bajarish bu oraliq seriyalarni bajarish jarayonida masofada suzish tezligini ushlab turish va hatto biroz oshirishda, shuningdek, III tomir urishi tartibida o’rta va uzun masofalarni suzib o’tishda uslubiy qoida hisoblanadi. Shunday qilib, funksional tayyorgarlik masalalari bilan bir paytda taktik tayyorgarlik masalalari – fiziologiya nuqtai nazaridan uzun va o’rta masofalarni suzib o’tishning (bir tekis yoki sekin-asta ortib boruvchi tezlikda) eng qulay variantini ishlab chiqish hal qilinadi.

II zona (ta'sirning aerob ustunlikdagi yo'nalihi)

II zona yuklanmalari aerob ustunlikdagi yo'nalihiga ega bo'lib, taxminan anaerob almashinuvi boshlanishi yoki biroz yuqoriroq darajada joylashgan. Chegaraviy ishning o'rtacha davomiyligi 15-30 *daq* atrofida turadi (oxirgi qiymati taxminan ANAB darajasiga mos keladi). Kattaroq prepubertat va pubertat yoshdagi yosh sportchilarda uzoq muddati igsha aerob chidamlilikni rivojlantirish (asosiy chidamlilik – 1, ACh-1), I va II tomir urish tartibida bajariluvchi suzish va boshqa siklik mashqlar (yugurish, eshkak eshish, chang'i poygasi)dan foydalanish bilan o'tkaziladi. Shuningdek, ochiq havodagi sport o'yinlari hamda mashqlar soni, takrorlashlar soni va jadallilikni sekin-asta oshirish bilan bo'ladigan umumrivojlantiruvchi mashqlar majmun ham ACh-1 ni rivojlantirish vositalari bo'lishi mumkin. UJT vositalari 12-13 yoshgacha bo'lgan qizlar va 13-14 yogshacha bo'lgan o'g'il bolalar bilan ishslashda ACh-1ni rivojlantirish uchun yetarlicha samarali hisoblanadi. Suzish vositalari bilan ACh-1ni rivojlantirishda 800 dan 2000 *m* gacha bo'lgan masofalardagi bir tekis masofaviy va o'zgaruvchan masofali usullarni, I va II tomir urish tartiblaridagi o'rtacha masofalarda bo'lgani kabi qisqa masofalar (50-600 *m*)dagi past jadallilik oraliq mashg'ulotdan ham foydalaniladi. Bunday ish muskullar kapillyarlashuvini oshiradi, muskul tolalari darjasini ("to'qimalarning nafas olish")dagi almashinuv jarayonlarini takomillashtiradi, ANABning oshishiga imkon beradi. Bu 8-11 yoshli yosh sportchilar mashg'ulotining asosiy shaklidir. Ushbu yosh guruhidagi sportchilar ACh-1ni rivojlantirish mashqlarini masofalar orasida katta oraliqni dam olishlar (30-40 dan 60 gacha va undan ko'proq soniya) bilan bajaradilar, bu esa, suzish texnikasi ustida samarali ishslash imkonini beradi. Kattaroq yoshlarda (12 yosh va kattaroq) dam olish oraliqlari sekin-asta qisqarib boradi. ACh-1ni rivojlantirishdagi ishning asosiy hajmi ko'krakda krol suzish, shuningdek, chalqanchasiga krol va brass usulida suzish, harakatlarning o'zaro to'liq mosligidagi kabi oyoq va qo'llar yordamida suzish bilan bajariladi. ACh-1 MPK darajadagi ishga chidamlilik (asosiy chidamlilik – 2)ni rivojlantirish uchun zamin hisoblanadi.

I zona (ta'sirning aerob yo'naliши).

I zona yuklanmalari sof aerob yo'naliшига ega bo'lib, anaerob almashinuvi boshlanish darajasidan pastda turadi. Chegaraviy uzlucksiz ish davomiyligi 30 daq dan ko'proqni tashkil qiladi. Bu zonadagi ish uzoq vaqt (3 soat va undan ko'proq) bajarilishi mumkin, chunki jadalligi katta emas. Bu zona yuklanmalari mashg'ulotining dastlabki bosqichlarida chidamlilik asosini yaratish maqsadida, qolgan vaqtda esa, kompensatorli suzish sifatida qo'llaniladi. Uzoq masofaga suzuvchilar va marafonchi suzuvchilar mashg'ulotida (ochiq suvda) bu yuklanmalar muhim ahamiyatga egadir. Boshlanishdan oldingi tezliklar zonasida uzoq muddatli jadalligi kam ishga bo'lgan aerob chidamlilikni rivojlantirish I tomir urishi tartibida bajariluvchi siklik mashqlar (suzish, yugurish, sportcha yurish, eshkak eshish, chang'i poygasi)dan foydalanish bilan o'tkaziladi. Shuningdek, umuman ularning harakatlantiruvchi zichligini sekin-asta oshirish sharti bilan mashg'ulot darslari, ochiq havodagi sport o'yinlari, umumrivoj-lantiruvchi mashqlar majmui ham aerob chidamlilikni rivojlantirish vositalari bo'lish mumkin. Aerob chidamlilikni rivojlantirishda suzish vositalari sifatida 2000 dan 5000 m gacha. Masofalardagi bir tekis masofaviy va o'zgaruvchan masofaviy usullar, I tomir urishi tarti-bidagi o'rta masofalarda bo'lgani kabi qisqa masofalar (400-1000 m)- da ham jadalligi kam oraliqli mashg'ulotdan foydalanadilar. Bunday ish muskullarning kapillyarlashuvini oshiradi, muskul tolalari darajasini ("to'qimalarning nafas olish")dagi almashinuv jarayonlarini takomillashtiradi va ANABning oshishiga imkon beradi. Yosh katta-lashgan sari yosh suzuvchilarda jismoniy va texnikaviy tayyorgarlik o'zgarganligi sababli, chidamlilikning ayrim turlarini rivojlantirishda foydalaniladigan mashg'ulot vositalari ham muayyan darajada o'zgarishlari lozim. Bu hammadan oldin bir xildagi tomir urish tartiblari doirasida foydalaniladigan mashg'ulot masofalari uzunligiga harakatlarning o'zaro to'liq mosligi va elementlar bo'yicha suzish hajmlari nisbatiga tegishlidir.


Tekshiruv savollari:

- 1) Chidamlilikni rivojlantirish vosita va usullarini aytib bering
- 2) Mashqlarni qisqacha tavsiflab bering:

Sport pedagogik mahoratini oshirish

- a) V zona uchun (ta'sirning aralash alaktat-glikolitik yo'nalishi);
- b) IV zona uchun (ta'sirning glikolitik anaerob yo'nalishi)
- v) III zona uchun (ta'sirning aralash ajrob-anaerob yo'nalishi)
- g) II zona uchun (ta'sirning aerob ustunligidagi yo'nalishi)
- d) I zona uchun (ta'sirning aerob yo'nalishi)

Psixologik tayyorgarlik



Psixologik tayyorgarlik deganda psixologik-pedagogik tadbirlar va hayotiga mos sharoitlar majmui tushinilib, ular mashg'ulot va musobaqalarda qatnashish masalalarini muvaffaqiyatli hal qilishni ta'minlovchi ruhiy vazifalar, jarayonlar. Shaxsning holati va xususiyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

“Psixologik tayyorgarlik” tushunchasi ikki tasnifni o’z ichiga olgan: umumiy psixologik tayyorgarlik va muayyan musobaqaga psixologik tayyorgarlik.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik sport takomillashuvi butun jarayoni davomida jismoniy, texnikaviy va taktik tayyorgarliklarning birligida olib boriladi. Uning yordamida quyidagi o’ziga xos vazifalar hal qilinadi:

- axloqiy sifatlarni tarbiyalash;
- sport jamoasini va guruhning psixologik muhitini shakl-lantirish;
- irodaviy sifatlarni tarbiyalash;
- idrok qilish jarayonlarini rivojlantirish, xususan, “raqibni his qilish”, “zamon va makonni his qilish” va boshqa shunday idrok qilishning maxsuslashtirilgan turlarini takomillashtirish;
- diqqatni, uning turg'unligi, bir yerga to'planganligi, taqsim-lash va yo'naltirilishini rivojlantirish;
- taktik fikrlashni rivojlantirish;
- o’z his-tuyg’ularini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish.

Axloqiy sifatlarni tarbiyalash. Sportchini tayyorlash jarayonida jismoniy sifatlarni tarbiyalash va texnikaviy taktik harakatlarni takomillashtirish bilan barobar uning fe'l-atvori va shaxsiy sifatlariga ta'sir qilish o'ta muhimdir. Sportchini mustaqil o'qish, madaniyat, bilimdonlik darajasini oshirishga doimo yo'naltirib turish kerak. Mashg'ulot jarayonining borishi va musobaqalarda jamoa yordamida salbiy ko'rinishlarni xushmuomalalik bilan bartaraf qilib, shaxsiy sifatlarni shakllantirishga ketma-ket ta'sir qilish zarur.

Sport jamoasini shakllantirish. Mashg'ulot darslari va musobaqalarda chuqur jamoachilik tuyg'usi, o'rtoqlarcha o'zaro munosabat, birdamlik yaxshi psixologik muhitning zaruriy shartlaridir.

Irodaviy sifatlarni tarbiyalash. Irodaviy harakatlarning maqsad va mavzulari sportchining dunyoqarashi, qat'iy ishonchi va axloqiy yo'l-yo'riqlari bilan aniqlaganda sportchining irodaviy sifatlari barqaror namoyon bo'ladi. Katta irodaviy kuch talab qiluvchi oshirilgan qiyinchilikdagi mashqlar irodaviy sifatlarni maqsadga yo'naltirib tarbiyalashga imkon beradi.

Botirlik va qat'iylikni tarbiyalash uchun bajarilishi ma'lum tavvakal qilish va qo'rquv hissini yengish bilan bog'liq mashqlardan foydalanish lozim.

Maqsadga intilish va tirishqoqlik sportchilarda mashg'ulot jarayoniga, sport turi texnikasi va taktikasini egallashning muhimligiga jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga ongli munosabatning shakllanishi bilan tarbiyalanadi.

O'z sport faoliyatiga qiziqishni rag'batlantirish uchun mash-g'ulot jarayonida his-hayajonga to'la oshirilgan murakkablikdagi mashqlarni qo'llash foydali bo'lib, ularning bajarilishini nazorat qilish kerak.

Matonat va o'zini tuta bilish – salbiy his-hayajonli holatlar (haddan tashqari ta'sirchanlik va tajovuzkorlik)ni yengishda namoyon bo'luvchi nihoyatda muhim sifatlar. Bu sifatlarni tarbiyalash uchun mashg'ulotlarga anchagina charchash va og'riqni his qilishni yuzaga keltiruvchi mashqlar kiritiladi. Mashg'ulotlarda to'satdan o'zgaruvchi holatlari bo'lgan murakkab vaziyatlar ishlab chiqiladi va bunda sportchining bu sharoitlarda o'zini yo'qotmasligi, salbiy his-hayajoninini bosib, o'z harakatlarini boshqarishga erishiladi.

Sport pedagogik mahoratini oshirish

Tashabbuskorlik va intizomlilik mashg'ulot va musobaqa faoliyatidagi ijod va faollikda namoyon bo'ladi. Tashabbuskorlik o'quv-mashg'ulot jarayonida marakkab texnik-taktik harakatlarni o'tkazish yo'li bilan tarbiyalanadi. Bunda sportchilarga maqsadga erishish uchun yangi va kutilmagan harakatlardan foydalanib, mustaqil qaror qabul qilish taklif qilinadi.

Intizomlilik o'z majburiyatlarini bajarishga halol yondashish, tartiblilik va ishchanlikda ifodalanadi.

Idrok qilish jarayonlirining rivojlanishi. Har qanday vaziyatda yo'l topish mahorati – sportchining eng muhim sifati. U zamon va makonda o'zi kabi raqib harakatlarini idrok qilishga ko'p darajada bog'liqdir. Buning asosida nozik muskul harakat sezgilari va harakatlarning o'zaro mosligi yotadi.

Diqqatni rivojlantrish. Texnik-taktik harakatlar samaradorligi diqqatning rivojlanishiga, ya'ni, uning hajmi, jadalligi, barqarorligi, taqsimlanish va boshqa narsaga yo'naltirilishiga ko'p darajada bog'liqdir. Murakkab va tez o'zgaruvchan harakatlarda sportchi ko'p miqdordagi turli ta'sirlarni idrok qiladi. Diqqatning bu xususiyati uning hajmi bilan tavsiflanadi. Sportchilar shu bilan birga eng muhim detallarda diqqatni hajmlash (to'plash)ni bilishlari lozim. Bu diqqatning jadalligiga kiradi, turli chalg'itishlarga va chalg'ituvchi omillar ta'siriga qarshi tura bilishi diqqatning barqarorligidan darak beradi.

Taktik fikrlashni rivojlantrish. Taktik fikrlash musobaqa faoliyatining ijodiy tavsifini aniqlaydi va murakkabligi bo'yicha turli holatlarni ko'rsatuvchi musobaqa mashqlari yordamida rivojlanadi. Bunda sportchining diqqati raqibning taktik mo'ljalini bilib olish va uning harakatlaridagi yuz berishi mumkin bo'lgan jarayonlarni oldin ko'ra bilish, mahoratiga, hal qiluvchi lahzalarni belgilab, murakkab vaziyatlarda yo'l topish va uni to'g'ri baholash mahoratiga qaratiladi. Yuqori malakali sportchi oqilona qarirlarni tezlik bilan topishni va muayyan sport vaziyati uchun eng samarali texnik-taktik harakatlardan foydalanishni bilishi lozim.

O'z his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyatini rivojlantrish. Sport o'z his-hayajonli holatlarini boshqarish bilan uning sport mahoratining o'sishiga yordam

beradi. Mashg'ulot yoki musobaqaning ayrim lahza va ko'rinishlariga ijobiy va salbiy munosabat his-hayajon bilan kechib, ular sportchi tomonidan g'arazli va beg'araz qiyinchiliklari bartaraf qilinishni yoki yengillashtiradi yoki qiyinlashtiradi. His-hayajonli holatlarning jadalligi musobaqalarning ahamiyatliligi va mas'uliyatiga bo'g'liq buladi.

IV.6. Muayyan musobaqaga psixologik tayyorgarlik.

Bo'lajak musobaqaga psixologik tayyorgarlik umumiy psixologik tayyorgorlik asosida quriladi va quyidagi muayyan masalalarni yechishga yo'naltiriladi:

- sportchilarining bo'lajak musobaqalarning ahamayatlilagini anglab yetish;
- bo'lajak musobaqalar sharoitlari xususiyatlari (vaqt, o'tkazilish joyi)ni o'rganish;
- raqibning kuchli va bo'sh tomonlarini o'rganish, hozirga paytda ularning va o'z imkoniyatlarini hisobga olgan holda musobaqaga tayyorlanish;
- bo'lajak musobaqada g'alabaga erishish uchun o'z kuchi va imkoniyatlariga qat'iy ishonchining shakllanishi;
- bo'lajak musobaqalardan yuzaga kelgan salbiy his-tuyg'ularni yeng'ish, tetik his-tuyg'u holatini yaratish. Birinchi to'rt masala raqib to'g'risida iloji boricha ko'proq ma'lumot to'plash va ishlab chiqish asosida murabbiy tomonidan hal qilinadi. Raqib to'g'risida hamma ma'lumotlarni o'rganib chiqib va uning imkoniyatlarini o'z sportchisi imkoniyatlari bilan solishtirib, murabbiy bo'lajak musobaqa rejasini tayyorlaydi va o'quv-mashg'ulot darslarida uni amalga oshirishni ishlab chiqiladi va ikir-chikirlarigacha aniqlanadi.

Beshinchi masalani hal qilish uchun quyidagi uslubiy yo'llardan foydalanish mumkin:

- Sportchi tomonidan salbiy his-tuyg'ularni o'z-o'ziga buyruq berish, o'z-o'zini quvvatlash yordamida ongli ravishda bosib qo'yish;
- Sportchilarining individual xususiyatlari va ularning his-tuyg'u holatlariga bog'liq ravishda chigil yozish vosita va usullaridan maqsadga muvofiq foydalanish;

Sport pedagogik mahoratini oshirish

- Autogen va ruhiy boshqaruv mashg'ulotlari vosita va usullaridan foydalanish.

Tekshiruv savol va vazifalari

1. Ahloqiy sifatlarni tarbiyalash to'g'risida so'zlab bering.
2. Sport jamoasining shakllanishi to'g'risida so'zlab bering.
3. Irodaviy sifatlarni tarbiyalash to'g'risida so'zlab bering.
4. Maqsadga intiluvchanlik va qat'iyatlik nima?
5. Matonat va dadillik to'g'risida so'zlab bering.
6. Tashabbuskorlik va intizomlilik to'g'risida so'zlab bering.
7. Diqqat-e'tiborni rivojlantirish haqida nimalarni so'zlab bera olasiz?
8. Taktik fikrlashni rivojlantirish to'g'risida so'zlab bering.
9. O'z his-tuyg'ularini boshqarishi qobiliyatini rivojlantirish to'g'risida so'zlab bering.

Texnika va Taktikalarni O'rghanish va Mukammal Darajaga Etkazish²¹

Agar charchamagan holatda o'rghanish jarayoni ketayotgan bo'lsa, u qoniqarli natijalarga olib kelayotganiga ishonch hosil qilish uchun ma'lum muddat berilishi lozim. shoshma-shosharlik bilan o'tkazilgan darslar oqiibatida kutilgan natjalardan ko'ra ko'proq xatolar kelib chiqishi mumkin. Oldin o'rghanilgan bilimlar o'rta va maksimal quvvatda amaliyotda qo'llab ko'riliishi kerak. aniqlikni namoyish etish uchun maqsadlar belgilanishi, takroriy mashqlar oralig'ida o'zini tiklab olish uchun etarlicha vaqt ajratilishi lozim va bu bilan charchoq sabab harakatlarda kamchiliklar kelib chiqishining oldini olish mumkin bo'ladi.

IV.7. Tezlikni oshirish



Keyingi o'rinda tezlikni yaxshilovchi mashg'ulot stimulyatorlari rejalashtiriladi. Ular qisqa muddatli (13 bo'limga

qarang) va har bir suzish orasida to‘liq tiklanib olish uchun vaqt berilishi lozim. xar bir takroriy jarayonda paydo bo‘luvchi har qanday charchoq mashg‘ulot samaradorligini pasaytiradi. “sprintlar” bilan mashg‘ulot bosqichini tugatishning an’anaviy amaliyoti fiziologik jihatdan noto‘g‘ridir, sababi odatda, tana tezlikni oshirish uchun talab qilinadigan hajmni yig‘ib berishga qodir emas. Tezlik bilan ishslash mashg‘ulotning dastlabki bosqichlarida amalga oshgani ma’qulroqdir.

IV.8. Kuchni oshirish



Keyingi o‘rinda tezlik va kuchni talab qiluvchi mashqlar inobatga olinishi lozim. har bir takroriy mashq orasidagi tanaffus oralig‘i tezlik omilining muhimliligidan kelib chiqadi.

Takrorlashlar orasida to‘liq tiklanishni talab qiluvchi, intervalli mashg‘ulotlar jismoniy holat komponenti uchun eng afzal mashg‘ulot shaklidir. Kuchning qo‘llanilishi usulga bog‘liq bo‘lganligi uchun ham, zararli charchoqning hujumidan chetga chiqish lozim.

Muayyan quvvatni oshirish²²

Mashg‘ulotlar orasida muayyan kuch bir necha maksimal urinishlar(past takrorlashlar yuqori kuchlanish bilan birgalikda) saralash musobaqalari orasidagi deyarli to‘liq tiklanishlar bilan birgalikda eng zo‘r rivojlantiriladigan jihatlardan biridir. Suzish uchun talab qilinadigan kuch maksimal suzish harakatlari rqali erishiladi. Mashg‘ulotlar davrida yoki ungacha qo‘srimcha mashqlar(ya’ni masalan, og‘irlilik bilan)ni bajarish tavsiya qilinmaydi. Qo‘srimcha mashqlar odatda, hovuzdan tashqaridagi mashg‘ulot yig‘inlarida yoki asosiy mashg‘ulotlardan keyin kun tartibiga kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Hamda ulardan orttirilgan charchoq suzish mashg‘ulotlariga halaqit qilmasligi lozim. anjomlar kabi to‘sqliar bunga qarshilik qilishi mumkin, biroq har bir harakat prinsin bo‘yicha amalga oshirilishi shart.

²² Alan Lynn, Swimming: Technique, Training, Competition Strategy

Sport pedagogik mahoratini oshirish

Muskullar chidamlilagini oshirish

Muskullar chidamliligi ikki bosqichda namoyon qilinadi. Takrorlashning birinchi martasi o‘rtacha hajmdagi takroriy harakatlarni o‘rtacha kuchlanish bilan birga qamrab olishi kerak. so‘ngra hajm ko‘proq sondagi takrorlashinlarga o‘rtacha qarshilik bilan ko‘tarilishi lozim. takrorlashlar va qarshiliklar musobaqa va har bir individual shaxsning jismoniy holat komponentlari ehtiyojlariga bog‘liq.

Yuqori-intensiv aerobik chidamlilikni oshirish

Mashg‘ulotdagi aerobik chidamlilik mashqning birinchi darajasi eng qiyini bo‘lishi shart. Bu esa odatda, maksimal aerobik sig‘im, $V0_2$ maksimum yoki me’yordan ortiq mashg‘ulotlar bilan bog‘lanadi (bat afsil ma’lumot uchun 13 bo‘limga qarang).

Kichik-intensiv aerobik chidamlilikni rivojlantirish

Qolgan chidamlilik mashqlari o‘rta kuchlanishda bo‘lishi lozim, bundan maqsad mashg‘ulotni pasaytirishni boshlab berishidir.

Tiklanish dastlabki holatga qayish dasturi

Mashg‘ulot yig‘ini tiklanish yoki suzishni to‘xtatish dasturini o‘z ichiga olishi shart. Mashq kuchlanishi kamaytiriladi va mashg‘ulotning muayyan tabiatи ham pasayishi mumkin. Ushbu mashg‘ulot turi sportchilarga amaliyot muhitini qisman tiklangani holda va kelgusi mashg‘ulotgacha qiziqish hamda motivatsiyani ta’minlash uchun pozitiv istak bilan tark etish imkonini beradi.

Yuqoridagi mashg‘ulot ketma-ketligi dastlabki o‘quv jarayontda alohida e’tiborni, o‘rtada intensivlikning eng yuqori cho‘qqisini va so‘ngida chidamlilik ustuvorligini ko‘rsatadi. Har bir mashg‘ulot yig‘inida barcha elementlar ham qo‘llanilavermaydi, ammo ular tanlab olingach, mashg‘ulot qismlari albatta ushbu dastur ketma-ketligiga ko‘ra joylashtirilish lozim. 75 – rasmida mashg‘ulot rejasi namunasini ko‘rsatilgan bo‘lib, u potensial mashg‘ulot mashqlarini to‘g‘ri ketma-ketlikda namoyon qiladi. Buni qo‘llab, mashg‘ulot yig‘inini yozayotgan mahalda bajarilishi kerak bo‘lgan mashqlar yonida eslatmalar qo‘yilishi shart.

O‘zining eng oddiy shaklida, mashg‘ulot faqatgina bir segmentdan iborat, ya’ni masalan uzoq masofaga suzuvchi sportchi 10,000 m ni yolg‘iz o‘zi vaqt bo‘yicha

suzib o‘tadi. Mashg‘ulotda qaysi bir komponentlar qo‘llab quvvatlanishi individual suzuvchining ehtiyojlaridan kelib chiqadi(15 bo‘limga qarang).

Mashg‘ulot kuchlanishi qanchalik katta bo‘lsa, standard vaqt oralig‘ida mashg‘ulot hajmi shunchalik kam bo‘ladi. Mashg‘ulot elementlarining yuklamasi ortgani sari, qayta oldingi holatiga qaytish ham ortib borishni taqozo qiladi. Psixologik uslublar va boshqaruvchilik xarakatlarining namoyishi rivojlanishi kabi boshqa sohalardagi ko‘rsatmalar uchun tiklanib olish oraliqlarining qo‘llanilishi mashg‘ulot-vaqt sarflanishida yuqori samaradorlikni taqdim qilishda inobatga olinishi kerak. mashg‘ulot davomiyligi mashg‘ulot stimulyatorlari intensivligiga teskari proporsianaldir. Katta miqdordagi energiya zaxiralaridan foydalanish imkoniyati mavjudligi va tananing holdan toydiruvchi charchoqni keltirib chiqarmay turib faollik darajasini o‘rnata olish qobiliyati sababli, past-intensiv mashqlar ko‘p vaqt talab qilishi mumkin.

Mashg‘ulot qanchalik kuchli va stressli bo‘lsa, uning tashkiliy jarayoni shunchalik oddiyroq bo‘lishi talab qilinadi. Ushbu tashkiliy jarayon mashg‘ulot mazmuni e’lon qilinganda va unga kirishgunga qadar suzuvchiga ma’lum bo‘lgan taqdirda, takomillashtirilishi mumkin. Sportchilar oldindan, rejada nimalar belgilanganidan xabardor bo‘lsalarga, mashg‘ulotlar bosqichlarida o‘z qobiliyatlarini yaxshiroq namoyon qilishga qodir bo‘ladilar. Mashg‘ulot bosqichining umumiyligi og‘irroq va kuchliroq bo‘lsa, keyingi bosqich shunga yarasha engilroq bo‘lishi lozim. Hajm va intensivlik borasida mashg‘ulotlarni o‘zgartirib turish, rejorashtirishning keng tarqalgan prinsiplaridan biridir. Amaliy mashg‘ulot mazmunining yakuniy hal qiluvchi ta’limi ayni paytda mashg‘ulotda qo‘llanilishi kerak. mashg‘ulot davomida charchagan sportchining texnikalari yomonlashadi va uning chiqishlari mutanosibligi kamayadi. Texnika va namoyishlar yomonlashuvi yuz berganda, u shunday bir darajaga etishi mumkinki, bunda davomiy qatnashuvlar hech bir natija bermay qo‘yadi; o‘ta kuchli charchoq bilan natijalar yanada samarasiz bo‘ladi

O'z bilimini nazorat qilish uchun savollar:

1. Texnikaviy tayyorgarlikni aytib bering
2. Quruqlikda umumiy jismoniy tayyorgarlikni aytib bering
3. Chigil yozish mashqlarini aytib bering
4. Akrobatika mashqlarini aytib bering

V BOB. MUSOBAQA TASHKIL ETISH ASOSLARI.²³



Sport

musobaqalari o‘ziga
xos faoliyat bo‘lib
raqiblarning harakatini
tartibga solishda katta
rol o‘ynaydi, ularning
ayrim qobiliyatlarini
ob’ektiv ravishda

solistirib ko‘rishga va jismoniy sifatlarni maksimal daraja-da namoyon bo‘lishini musobaqa davomida harakatlanishni maksimal darajada ta’minlashga imkoniyat yaratadi.

Sport hozirgi ko‘rinishda bir qator o‘ziga xususiyatlariga ega:

- 1) Sport musobaqalar faoliyatida, raqobat darajasini ketma-ket yutuqlarga bo‘lgan talablarni ortib borishi, sport musobaqalarining tizimiga asoslanib tashkil eti-ladi (yuqori ringga quyi musobaqalarda qatnashganlar qo‘yiladi yoki pastdan yuqoriga).
- 2) Musobaqada bevosita bajariladigan harakatlarning, boshqarilish sharoitlarini va yutuqlarini baholash usullarini tenglashtirish hisobiga amalga oshiriladi. Bu tenglashtirish musobaqalar o‘tkazishning umumiy me’yor-lari sifatida muayyan qoidalar bilan mustahkamlanadi.
- 3) Musobaqalashuvchilarni hatti harakatlari noantogo-nistik raqobat tamoyillariga muvofiq tartiblashti-riladi.

Sportchi tanlab olgan turidagi ko‘rsatkichlarni, individual holda o‘z imkoniyatlariga qarab namoyish qiladi. Bu natijalar yo jismoniy g‘alabani yoki raqibni yutish (ballarda, gollarda, ochkolarda va h.k.) natijasini yaxshilash uchun vaqt birligida, masofada, og‘irlikda belgilanishi mumkin.

Yuqori sport natijasi, sportni shu kundagi rivojlanishida inson imkoniyatlarini etaloni bo‘lib hisoblanadi. Ularga taqqoslab har bir inson o‘zining

²³ Terry Laughlin, John Delves, Total Immersion: The revolutionary way to swim better, faster, and easier
106

Sport pedagogik mahoratini oshirish

sport natijalarini solishtirib ko‘rishi mumkin va shunga asoslanib, natijalarni yaxshilashni rejalashtirishi mumkin. YUqoridagilardan sport natijalarini etalonlik va rag‘batlantiruvchi roli yaqqol ko‘rinadi.

Sport natijalari har doim ko‘p omillik hodisadir (bu esa ko‘pgina sabablarga bog‘liq). Jamiyatdagi sport natijalari taraqqiyotiga ta’sir etuvchi omillar bo‘lib hisoblanadi.

- 1) Sportchining individual talanti va yuqori natijaga tayyorgarlik darajasi.
- 2) Sportga tayyorgarlik tizimining samaradorligi, uni mazmuniga, taxlil etilishiga va material - texnik tomondan ta’minlanganligiga.
- 3) Sport harakatining kengligiga va uni rivojlanishining umumiy ijtimoiy sharoitlariga bog‘liq.

Sport musobaqalarining xususiyatlarini o‘rganish, sport sohasidagi mutaxassislarni qiziqtirib kelgan va hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Birinchidan - musobaqa sportni asosiy mazmunini tashkil etadi.

Ikkinchidan - sport musobaqlari, sport mashg‘ulotidan genetik va bo‘ysunishi bo‘yicha “kattadir”. Ma’lumki, inson ma’naviyati va madaniyatini rivojlanishida, har xil yakkama yakka kurash va sport elementlari o‘rtasida o‘yinlar birinchi bo‘lib tashkil topgan. Keyinchalik esa ularni shakllari, uslublari va elementlari tashkil topa boshlagandan keyin tayyorgarlik ko‘rash yo‘llari aniqlana boshlandi. Hozirgi kunda sportda bu yo‘nalishni ko‘p soxasi bo‘yicha sportchilar tayyorlashni ilmiy asoslangan tizimi tashkil qilinib sport mashg‘ulotlarini ham o‘z ichiga oladi.

Uchinchidan - sport musobaqlari sportchining jismoniy taktik-texnik imkoniyatlarini, zaxiralarini va sport jamoasini imkoniyatlarini aniqlashda “Poligon” bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun faqat musobaqa vaqtida psixologik qarama-qarshiliklarni engish uchun raqobatchilik hosil qilinadi hamda sportchini musobaqa faoliyatini psixologik strukturasi aniq-lanadi. Musobaqalar tizimi o‘z ichiga bir qator ofitsial va ofitsial bo‘lmagan musobaqlarni birlashtirib, sport faoliyatini nisbatan alohida shakl sifatida tashkil qiladi. Bular ma’lum tartibda

o‘zining masshtabi, ahamiyati, sportchini tayyorlash bosqichlari va boshqa sharoitlariga qarab bo‘linadi.

Musobaqalarda asosiy o‘rinlarni absolyut birinchiliklar (shaxsiy va jamoa) dunyo va olimpiada o‘yinlari ham egallaydi. Bunday asosiy maqsadga yo‘naltirilgan musobaqalar sportchini tayyorlashga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra, mashg‘ulotning ayrim boskichlari rejalashtiriladi, yuqori sport natijalarga optimal ravishda tayyorlash vaqt va boshqalar aniqlanadi. Boshqa ko‘pgina musobaqalar tayyorgarlik uchun o‘tkaziladi. Sport mashg‘ulotlarini umumiyligi vaqtidan 10-15% musobaqa vaqtini aniqlaydi.

Musobaqa faoliyati - bu tartiblashtirilgan raqobat bo‘lib, o‘z qobiliyatini ob’ektiv ravishda solishtirish va maksimal darajada natija ko‘rsatilishini ta’minlash hamda tartibga solishdir. Bu bir qancha maxsus xususiyatlarga ega:

1. Musobaqa tizimida raqobatni oshib borish darajasiga qarab hamda yutuqqa bo‘lgan talabga nisbatan (dastlabki va ofitsial musobaqalarda) faoliyatini tashkil qilishga.
2. Musobaqa o‘tkaziladigan vositalarni amalga kiritishda sportchini faoliyati, shart-sharoiti va yutuqlarini baholash yo‘llarini tartiblashtirish, ma’lum qoidalar hamda musobaqani umum me’yorlari bilan mustahkamlanadi.
3. Musobaqalashuvchilarni xulqini va o‘zini tutish tartibiga ham bog‘liq.

Sport musobaqalari - his-hayajon holatidagi ko‘rinishda bo‘lib hozirgi kunda 100 dan ortiq sport turi bo‘yicha musobaqa o‘tkaziladi. Har qaysi sport turi, musobaqa o‘tkazish uchun o‘zining metodik xususiyati, qatnashish sharti, o‘tkazish qoidasi va g‘oliblarni aniqlash va boshqa talab qiladi.

Musobaqa qisman, sportchini tayyorlash tizimiga kiradi, chunki faqatgina shaxsiy sport tayyorgarligiga ega bo‘lmadan, ijtimoiy vazifalarni hisobga olgan (targ‘ibot, ko‘rgazmalilik va b.q.) holda ham tashkil qilinadi.

Sport musobaqasi - o‘yin shaklida raqobat qilish shakli bo‘lib, jismoniy tayyorgarligi, harakat malakasi va mashqlarni bajarish san’ati yoki o‘ylash va tafakkur qilishni rivojlan-tirishni aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Sport pedagogik mahoratini oshirish

Odatda eng muhim sanalgan yirik rasmiy musobaqalar sportchini tayyorlashdagi davomiy jarayonning yakuni hisoblanadi. Ularda imkonи boricha yuqori sport natijalariga erishish zarurati ko‘pincha bunday musobaqalarning yuksak maqomini, shuningdek ularga tayyorgarlik tizimining tarkibi va mohiyatini belgilaydi. Boshqa musobaqalar saralash, jamlash, tayyorlash yoki nazorat xarakteriga ega bo‘lib, turli texnik-taktik vazifalarni bajarishi mumkin.

Musobaqa o‘tkazishning u yoki bu usuli musobaqa oldiga qo‘yilgan vazifa, musobaqa yakunlanishi lozim bo‘lgan muddat; sportchilar (jamoalar) soni, ularning sport tayyorgarligi, o‘quv ishlab chiqarishda bandligi va xududiy joylashganligi, qatnash-chilar bellashuvini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan joylar (maydon) miqdori hamda albatta mablag‘ bilan ta’minlanishiga qarab belgilanadi.

Sport musobaqalari pedagogik, sport, metodik va ijtimoiy siyosiy vazifalarni echishga yaqindan yordam beradi.

Yosh sportchilardan tortib mahoratli sportchilargacha musobaqa juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Musobaqalarga qatnashmay turib sport faoliyati xaqida gapirmasa ham bo‘ladi.

Musobaqalar - sportchilar uchun, rag‘batlantiruvchi omil hisoblanadi va shu paytning o‘zida sportchidan yuklamani tobora oshirib borish, irodani tarbiyalash, sport kurashiga o‘rganish va mashq jarayonini nazorat qilishga o‘rgatadi.

Sportchining musobaqlarda ko‘p qatnashishi shunchalik tajribaga ega bo‘lishligini amaliyot ko‘rsatib turibdi. Negaki sportning barcha turlari bo‘yicha bellashuvlar soni ortib ketdi.

Masalan, yuqori mahoratli velosipedchi, sprinter yil davomida 200-250 martadan musobaqaga chiqadi.

Malakali suzuvichlarning musobaqa tayyorgarligi kun tartibi ham tig‘iz bo‘ladi. Yiliga musobaqalar soni 25-30, davomiyligi 1 kundan 3-5 kungacha, 120-140 martagacha startlar bo‘ladi.

O‘z mohiyatiga ko‘ra asosiy hisoblangan, mashqlarning yakuniy nuqtasi bo‘lgan bosh musobaqalar soni ko‘p bo‘lmasligi kerak (yiliga 3-4 marta, sport

o‘yinlari bundan mustasno). Bosh musobaqalar oddiydan murakkabga va qiyinchiliga qarab joylashtirilishi lozim. Ularni joriy yilga shunday joylash-tirilish kerakki, bunda sportchi hal qiluvchi eng muhim musobaqaga doimiy tayyorlanish imkoniyatiga ega bo‘lsin, musobaqalar orasida jismoniy hamda ruhiy dam olsin va bir musobaqada aniqlangan kamchiliklar mashq jarayonida keyingi musobaqalargacha tuza-tilsin.

Musobaqa davrida sportchi ishtirokining soni eng avvalo sport turi xususiyatiga bog‘liq. Sport turlarida musobaqalar (xaftasiga 1-2 musobaqa kunlari) chidamlilikda alohida talablar qo‘yadigan va uzoqroq tiklanishni talab etadigan sport turlaridagiga qaraganda ko‘proq o‘tkaziladi.

Sportchini musobaqalarda ishtirok etishga tayyorgarlik tizimida quyidagilarni hisobga olish zarur:

- sportchi uchun musobaqalar hafsala bilan tanlanishi va asta-sekin qiyinlashib boradigan bo‘lishi lozim;
- musobaqada kuch jihatdan teng bo‘lgan sportchilar qatnashish;
- yuqori darajadagi yutuqlarga erishish uchun zarur bo‘lgan miqdordagi musobaqalarda qatnashish zarur;
- vaqt ni u erdan bu erga kuchish va h.k.va kuchni ko‘p talab qiladigan musobaqalarning ko‘payib ketishi mashq ishlarini cheklab, sportchi tayyorgarligiga salbiy ta’sir etishi mumkin;
- musobaqalar taqvimi (kun, taqsimot, musobaqalar qiyinligi darajasi) shunday sharoit yaratishi kerakki, bunda sportchiga katta imkon yaratilsin. O‘tkazilayotgan barcha musoba-qalar shu maqsadga qaratilmog‘i zarur.

Shunday qilib, sport musobaqalari erishilgan yutuqlarni namoyish qilish, ayrim sportchi va jamoaning yutuqlarini baholash va solishtirish usuli ekan.

Sportchilarni musobaqa vaqtidagi faoliyati musobaqa faoliyati deb yuritiladi. Musobaqa faoliyati eng yuqori sport natijalariga erishishga qaratilgan ayrim xarakat, usul, kombinatsiyalardan iborat, tayyorgarlikning texnik, jismoniy, taktik, ruhiy integral darajasi bilan ta’milnadi. Sport musobaqalarida qatnashish musobaqa faoliyati ko‘rinishining shakli hisoblanadi. Sport bellashuvi vaqtি

Sport pedagogik mahoratini oshirish
cheklangan raqiblik hisoblanadi, bu jarayonda bellashayotganlarning



qobiliyatlarini ob'ektiv ravishda solishtiriladi.

Raqobat darajasi va yutuqlariga bo'lgan talabni astasekin ortib borishi (sportchini yuqori darajadagi musobaqalarda natijalariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir).

Respublika miqyosidagi musobaqalarda qatnashish uchun viloyatda o'tkazilgan musobaqalarda tegishli o'rinnegallash zarur (tabiiyki, respublika musobaqalarida viloyatlardagiga qaraganda g'alaba uchun raqobat kuchli bo'ladi).

Sportchilar harakatini bir xil shaklga keltirish orqali bellashuvlar, ularni bajarish sharoitlari haqidagi nizom, sport turlari bo'yicha musobaqa qoidalari bilan belgilanadi:

-noantagonistik (do'stona) raqobat (musobaqalar qoidalari) doirasida bellashuv o'tkazish tartibi (tarbiya).

Bellashuv jarayoni (sport musobaqasi) musobaqadagi vaziyatini tartibli ravishda o'zgartirib turishni anglatadi.

Hozirgi vaziyat holati keyingisining muvaffaqiyatini ta'minlaydi, shu paytning o'zida hozirgi vaziyat holati avvalgisiga bog'liq bo'ladi.

Sportchining musobaqa faoliyatini belgilovchi jihat quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

- vaziyatni idrok etish
- raqib va sheriklarning yurish-turishi
- o'z ahvolining dinamikasi
- olingan axborot tahlili va uni musobaqalarning tajribasi va maqsadi bilan solishtirish
- fikran asosiy qarorni qabul qilish
- fikran qabul qilingan qarorni amalga oshirish.

Suzuvchining jahon rekordi darajasidagi musobaqa faoliya-tining (100 metrga erkin usulda suzish) taxminiy taxlili.

Bu erda tarkibiy qismini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- 1.Startning samaradorligi (dastlabki 7.5 metrni suzib o‘tish vaqt);
- 2.Startdan masofaviy suzishga o‘tish chog‘idagi tezlik (m/s);
- 3.Masofaviy suzish uchastkasidagi tezlik (m/s);
- 4.Masofaviy suzishda burilishga o‘tishdagi tezlik;
- 5-6. Burilishning samaradorligi (15 metrni suzib o‘tish vaqt bo‘yicha ya’ni 7.5 m burilish shitigacha va 7.5 daqiqadan keyin);
- 7.Burilishdan masofaviy suzishga o‘tishdagi tezlik (m/s);
- 8.Masofaviy suzish uchastkasidagi tezlik (m/s);
- 9.Masofaviy suzishdan finishga o‘tishdagi tezlik (m/s);
- 10.Finishning samaradorligi (oxirgi 7.5 m masofani suzib o‘tish vaqt bo‘yicha).

O’z bilimini nazorat qilish uchun savollar:

- 1.Nima uchun keyingi paytlarda (30-40 yil ichida) ayniqla qattiq charchatib qo‘ymaydigan bellashuvlar bilan bog‘liq sport turlarida musobaqaga tayyorgarlik hajmi ayniqla kengayib ketdi?
- 2.Sport yili davomida o‘zingiz qatnashgan musobaqlar misolida ulardagi qiyinchilikni asta-sekin o‘sib borishini kuzating:
- 3.O‘zingizning musobaqa faoliyatining tuzilishidagi tarkibiy qismlarni tasvirlab bering (nimalardan iborat).
- 4.Musobaqa faoliyati jarayonida o‘z harakat taktikangizni o‘zgartirganmisiz? Agar o‘zgartirgan bo‘lsangiz nima uchun har bir holatdagi sababini aniqlashga xarakat qiling.

VI BOB. SPORT TRENIROVKASINING UMUMIY ASOSLARI.²⁴

Sportchilarni tayyorlash maxsus sport maktablarida olib borilib, ular bolalar va o'smirlar sport maktablari (BO'SM), maxsuslash-tirilgan bolalar va o'smirlar olimpiya zahiralari maktablari (MOZBO'M), yuqori sport mahorati maktablari (YuSMM), shuning-dek, sport ixtisosligidagi maktab-internatlar (SIMI) va oliv o'quv yurtlarini sport-pedagogik takomillashtirish kurslariga bo'linadi.

Sport maktablart ishi aniq mo'ljallangan masalalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan. BO'SM har tomonlama rivojlangan yuqori malakali yosh sportchilarni tayyorlashni amalga oshirib, ularning sog'ligi va har tomonlama jismoniy rivojlanishini ta'minlaydi; shug'ullanuvchilar orasidan jamoatchi instruktorlar va hakamlar tayyorlashni olib boradilar; uslubiy markaz hisoblanadilar va umumta'lim maktablariga sinfdan tashqari ommaviy-sport ishlarini tashkil qilishiga ko'rsatadilar.

Maxsuslashtirilgan bolalar va o'smirlar olimpiya zahiralari maktablari oldida bu masalalardan tashqari yana bittasi turadi: respublika terma jamoasini to'ldirish. Bu masala MOZBO'M uchun asosiy hisoblanib, ularning butun faoliyatini belgilab beradi.

YuSMM masalalari quyidagilar hisoblanadi:

- sport ustalari, respublika terma jamoalariga nomzodlar, xalqaro klassdagi sport ustalarini tayyorlash;
- murabbiy va o'qituvchilar tarkibi ishi amaliyoti uchun sport mashg'ulotlarining ilg'or usullarini ishlab chiqish, takomillashtirish va joriy qilish;
- BO'SM, MOZBO'M, SIMI va boshqa sport tashkilotlari o'quv mashg'ulot ishlarida izchillikning amalga oshirilishi;
- Shahar, viloyat, respublikada o'quv mashg'ulot ishi ustidan uslubiy rahbarlik. Sport maktabida sportchilarning muntazam mashg'ulotlari ancha vaqt zahirasini talab qiladi. Bu muammoni hal qilish maqsadida sport yo'nalishidagi umumta'lim maktab-internatlar yaratiladi. SIMIning asosiy vazifasi sportchilarni tayyorlash.

²⁴ Alan Lynn, Swimming: Technique, Training, Competition Strategy

Sport maktablarida quyidagi o'quv guruhlarini ajratadilar: boshlang'ich tayyorgarlik guruhlari (3 yil o'qitish), o'quv-mashg'ulot guruhlari (4 yil o'qitish), sport-takomillashuvi guruhlari (3 yil o'qitish) va yuqori sport mahorati (3 yil va undan ortiq).

BO'SM bo'limlari tayyorgarlikning boshlang'ich guruhlari va o'quv-mashg'ulot guruhlaridan shakllanadi. O'quv-mashg'ulot guruhlari bitiruvchilarini yuqori sport ko'rsatkichlariga ega bo'lgan hollarda va ularning sportda yanada o'sishlari uchun zarur sharoitlar mavjud bo'lganda BO'SMDa sport takomillashuvi guruhlari yaratilishi mumkin. Sport takommilashuvi guruhlarining ochilishi tassarufida berilgan BO'SM bo'lgan yuqori turuvchi tashkilotlar qarori bilan amalga oshiriladi.

Maxsuslashtirilgan bolalar va o'smirlar olimpiya zahiralari sport maktablarida boshlang'ich tayyorgarlik guruhlari, o'quv-mashg'ulot va sport takommilashuvi guruhlari yaratiladi. Bu guruhlardan tashqari MOZBO'M da yuqori sport mahorati guruhlari yaratilishi mumkin.

Yuqori sport mahorati maktablarida faqat sport takommilashuvi guruhlari yaratiladi, lekin ayrim hollarda YuSMMDa o'quv-mashg'ulot guruhlari yaratilishi mumkin, xuddi shunday vaziyat oliy o'quv yurtlariga ham taalluqlidir.

Sport ixtisosligidagi maktab-interinternatlarning sport turlari bo'yicha bo'limlari mashg'ulotlarga ancha qobiliyatli, umumta'lim maktablarining kamida 6-sinfni muvaffaqiyatli bitirgan, BO'SMDa muayyan tayyorgarlik ko'rgan yoki musobaqalarda o'zini yaxshi namoyon qilgan bolalar va o'smirlarni tanlov asosida tuziladi. SIMIda o'quv-mashg'ulot guruhlari va sport takomillashuvi guruhlari yaratiladi.

Barcha turdag'i sport maktablari uchun yagona dastur tashkiliy tuzilmani boshlang'ich tayyorgarlik guruhidan to yuqori sport mahorati guruhigacha bo'lgan yosh sportchilar ko'p yillik tay-yorgarligining ilmiy-uslubiy tizimi bilan qo'shib olib borish imkonini beradi.

Turli darajadagi sport maktablarida zahiralar tayyorlashda qo'yidagi asosiy uslubiy qoidalar hisobga olinadi:

Sport pedagogik mahoratini oshirish

- bolalar, o'smirlar, yoshlar va katta yoshdagi sportchilarni tayyorlash ketma-ketligida vazifalar, vositalar va usullarning qat'iy meros bo'lib qolishi;
- umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalari hajmining og'ishmay ortib borishi ular orasida nisbatan doimo o'zgarib turadi: yildan-yilga maxsus jismoniy tayyorgarlik hajmi ko'payib boradi (mashg'ulot yuklanmasi umumiy hajmiiga nisbatan) va mos ravishda umumiy jismoniy tayyorgarlik hajmi kamayadi;
- mashg'ulot yuklanmalari hajmi va jadalligining meros bo'lib qolishi, ko'p yillik mashg'ulotlar davomida ularning og'ishmay o'sishi'
- texnik-taktik harakatlarga o'rgatishning sport maktablari dasturlari doirasidagi nazariy masalalarni chuqur o'rganish bilan qo'shib olib borilishi.
- yosh sportchilar bilan ko'p yillik ishslash jarayonida mashg'ulot va musobaqa yuklanmalarini qo'llashda sekin-astalik qoidalariiga qat'iy rioya qilish.

Sportsilarning ko'p yillik tayyorgarligini to'g'ri tashkil qilish va sport maktablari o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalash natijalarini birgalikda baholashni majburiy hisobga olgandagina bu qoidalarni muvafaqqiyatli amalga oshirishi mumkin bo'ladi.

BO'SM va MOZBO'Mda o'quv-mashg'ulot darslarning asosiy shakllari quyidagilar hisoblanadi:

- jadval bo'yicha nazariy va amaliy guruhiy darslar;
- individual reja bo'yicha mashg'ulotlar va uy vazifalarini baja-rish;
- o'quv videofilmlari va kinofilmlar, kinogramma va sport musobaqalarini tomosha qilish;
- tassarrufida shu sport maktabi bo'lgan tashkilot tomonidan tasdiqlangan sport tadbirlari kalendar rejasiga asosan sport va match musobaqalarida qatnashish.

O'qivchilarning yil bo'yi o'quv mashg'ulotlari va faol dam olishlarini ta'minlash maqsadida yozgi va qishki ta'til davrida sport maktablarida sport-sog'lomlashtirish oromgohlari tashkil qilindi.

Sport-sog'lomlashtirish tayyorgagligi (SST). Sport-sog'lom-lashtirish tayyorgarligiga sport bilan shug'ullanishni xohlagan va tibbiy qarshiligi bo'limgan (shifokorning yozma ruxsatnomasiga ega bo'lgan) barcha shaxslar qo'yiladi.

Bosqichning davomiyligi chegaralanmagan bo'lib, sport makta-bidagi butun mashg'ulotlar davrini o'z ichiga oladi. SST guruhlarida har tomonlama, ayniqsa sog'lomlashtirish yo'nalishidagi jismoniy tayyorgarlik va suzish texnikasi asoslarini egallashga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish va tarbiyaviy ishlar amalga oshiriladi. Tayyorgarlikning asosiy vazifalari:

- sog'lijni mustahkamlash va chiniqish;
- jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklarni yo'qotish;
- suzishning hayotiy zarur bo'lgan ko'nikmasini egallah;
- suzishning barcha usullari texnika asoslari va harakat ko'nikmalarining keng doirasini o'rgatish;
- jismoniy sifatlar (chidamlilik, chaqqonlik, tezlik, kuch va harakatlar o'zaro mosligi imkoniyatlari)ni rivojlantirish;
- turg'un qiziqish, suzish mashg'ulotlari va sog'lom hayot tarziga qiziqishni shakllantirish;
- axloq-odob va irodaviy sifatlarni tarbiyalash.

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichlari (BT). Bosqichga sport bilan shug'ullanishini xohlagan va tibbiy qarshiligi bo'limgan (shifokorning yozma ruxsatnomasiga ega bo'lgan) barcha shahslar qabul qilinadi. Agar xohlovchilar soni to'ldirish rejasilan ortib ketsa, sport makkabining murrabbiylar kengashi harakat qobiliyatları qiziqish va gavda tuzilishi xususiyatlarinig suzish talablariga mos kelishini birgalikda baholash asosida BT va gavda yo'nalishi to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Bosqich davomiyoigi 2-3 yil. Tayyorgarlikning boshlang'ich bosqichida har tomonlama jismoniy tayyorgarlik va tanlangan sport turi texnika asoslarini egallah, sport mutaxassisligini tanlash va tayyorgarlikning o'quv-mashg'ulot bosqichiga o'tish uchun nazorat normativlarini bajarish amalga oshiriladi.

Tayyorgarlikning asosiy vazifalari:

Sport pedagogik mahoratini oshirish

- sog'liqni mustahkamlash va chiniqish;
- jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklarni yo'qotish;
- suzish mashg'ulotlariga iloji boricha juda ko'p miqdordagi bolalar va o'smirlarni jalg qilish, ularda qiziqish va muntazam sport mashg'ulotlari va sog'lom hayot tarziga qiziqishni shakllantirish;
- suzishning hayotiy zarur bo'lgan ko'nikmasini egallash;
- suzishning barcha usullari texnika asoslari va harakat ko'nikmalarining keng doirasini o'rgatish;
- bolalarning har tomonlama jismoniy tayyor bo'lishni egallab olishlari: aerob chidamlilik, chaqqonlik, tezlik, kuch va harakatlar o'zaro mosligi imkoniyatlari)ni rivojlantirish;
- axloq-odob va irodaviy sifatlarni tarbiyalash, sport tavsifining shakllanishi;
- morfologik mezon va harakat qobiliyati asosida sport borasida iste'dodli bolalarni izlash.

O'quv-mashg'ulot (O'M) guruhlari sportcha suzishda qobiliyatini namoyon etgan, bir yildan kam bo'limgan zarurlik bo'yicha qabul normativlarini bajargan sog'lom va amaliy jihatdan sog'lom bolalar orasidan tanlov asosida shakllanadi. Bosqich davomiyligi 4-5 yil. Bu bosqichda o'qish yillari bo'yicha ko'chish o'quvchilarining umumiy jismoniy va maxsus tayyorgarlik bo'yicha nazorat-ko'chish normativlarini bajarish sharti bilan amalga oshiriladi.

Tayyorgarlikning asosiy vazifalari:

- axloq-odob va irodaviy sifatlarni tarbiyalash, sport tavsifining shakllanishi;
- morfologik mezon va harakat qobiliyati asosida sport borasida iste'dodli bolalarni izlash;
- jismoniy tayyor bo'lishidagi kamchiliklarni yo'qotish;
- suzishning barcha usullari texnikasini egallab olish va takomillashtirish;

- umumiy va maxsus jismoniy tayyor bo'lish darajasining rejali oshirilish: aerob chidamlilikning rivojlanishiga urg'u bergen holda asosiy jismoniy sifatlarni o'zaro mos takomillashtirish;
- maqsadga yo'naltirilgan ko'p yillik sport tayyorgarligiga qiziqishning shakllanishi, aqliy, psixologik va taktik tayyorgarlikning boshlanishi;
- bosqich oxirida qisqa yoki uzoq masofalarga yugurishga moyillikni aniqlash;
- jismoniy, axloq-odob va irodaviy sifatlarni tarbiyalash, zararli odatlar va huquqbazarliklarning oldini olish.

Sport takomillashuvi bosqichi (ST). Guruh o'quv-mashg'ulot guruhlarida tayyorgarlik bosqichini muvaffaqiyatli o'tgan va sport ustasi nomzodiga sport razryadini bajargan sportchilardan shakllanadi. Bosqich davomiyligi 3 yil. Bu bosqichda o'quv yillari bo'yicha ko'chish sport ko'rsatkichlari o'sishining ijobiylar sur'ati shartlari bilan amalga oshiriladi. Ushbu va keyingi bosqichlarda sportchilar tayyorgarligi individual reja asosida boradi.

Tayyorgarlikning asosiy vazifalari:

- yuqori yutuqli zamonaviy sportga xos bo'lган yuklanmalarni egallah;
- maxsus jismoniy sifatlarni takomillashtirish va funksional tayyor bo'lishning yuqori darajasi va sportga qiziqishni qo'llab-quvvatlash;
- kuch, texnik-taktik, ruhiy va individuallashitirish;
- sog'lik asrash.

Ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida saralash tanlovidan o'ta olmagan o'quvchilar sport-sog'lomlashtirish guruhlarida mashg'u-lotlarni davom ettirishlari mumkin.

Tayyorgarlikning barcha bosqichlaridan o'tgan, bitiruv norma-tivlarini topshirgan o'quvchilar sport maktablari bitiruvchilari hisob-lanadi. BO'SM bitiruvchilariga jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi, sport natijalari va yanada jismoniy takomillashuv uchun tavsiyalar ko'rsatilgan karta va sinov daftarchasi beriladi. MOZBO'M bitiruvchilariga bundan tashqari sportga tayyor bo'lish darajasi ko'rsatilgan bitiruv guvohnomasi ham beriladi.

Sport pedagogik mahoratini oshirish

O'quv guruhlarini to'plash sport mahorati shakllanishida yoshga oid qonuniyatlarini hisobga olgan holda yillik tayyorgarlikning ilmiy asoslangan tizimiga asoslangan. Shug'ullanuvchilarni keyin guruh-larga o'tkazish va mashg'ulot va musobaqa yuklanmalarining ortishi darslar muddati, umumiy va maxsus jismoniy tayyor bo'lish darajasi, so'g'-nosog'lik, sport natijalari darajasiga bog'liq bo'ladi.

1-jadvalda o'quv-mashg'ulot ishining tavsiya etilgan tartibi va jismoniy, texnik va sport tayyorgarligi bo'yicha talablar keltirilgan. Eng kam yosh faqat sport maktabiga va o'quv-mashg'ulot bosqichiga qabul qilish uchun ko'rsatilgan ("Me'yoriy-huquqiy asoslarning VII bo'limiga mos ravishda o'quv-mashg'ulot bosqichiga bir yildan kam bo'limgan tayyorgarlikdan o'tgan sportchilar qabul qilinadi").

SST – sport-so'g'lomlashtirish guruhlaridagi shug'ullanuvchilar yoshi 6 dan 17 gacha. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan sport mashg'ulotlarini o'tkazish haqidagi qarorni sog'liqni saqlash organi ruxsati bilan ta'sis etuvchi qabul qiladi.

1-jadval

O'quv-mashg'ulot ish tartibi va jismoniy, texnik va sport tayyorgarligi bo'yicha talablar

Bos-qich nomi	O'qitish yili	Qabul qilinuv-chi eng kam yosh	Guruhdagi o'quvchi-larning eng ko'p miqdori	Haftalik soatlari-ning eng ko'p miqdori	Sport yili oxiriga kelib jismoniy, texnikaviy va sport tayyorgarligiga bo'lgan talablar
SST	Barcha-si	6	15	6	UJT va MJT bo'yi-cha normativlarni bajarish
BT	1 yilga-cha	7	13	6	UJT va texnikaviy tayyorgarlik bo'yi-cha normativlarni bajarish
	1 yildan		14	9	

	ortiq				
UM	2 yilga-cha	8	12	12	Sport natijalari da-rajasি, MJT, UJT va texnikaviy tayyor-garlik bo'yicha nor-mativlarni bajarish
	2 yildan ortiq	-	10	18	
ST	1 yilga-cha	-	7	24	Sport natijalari da-rajasি, MJT va UJT bo'yicha normativ-larini bajarish
	1 yildan ortiq	-	6	28	
YuSM	Butun davr	-	4	32	Sport natijalari darajasi

O'quv-mashg'ulot ishining haftalik tartibi eng yuqori hisoblanib, tayyorgarlik davri va masalalariga bog'liq ravishda o'rnatiladi. Ko'rsatilgan tartibda ko'zlangan o'quv-mashg'ulot ishining umumiy yillik hajmi tayyorgarlikning o'quv-mashg'ulot bosqichidan boshlab ko'pi bilan 25% ga qisqartirilishi mumkin. Boshlang'ich tayyorlov guruhlari uchun akademik soat davomiyligi qisqartirilib, 30-40 daq ni tashkil qilishi mumkin.

Bir mashg'ulot davomiyligi:

- sport-sog'lomlashtirish guruhlarida va boshlang'ich tayyorlov guruhlarida o'qishning birinchi yilda 2 soat;
- boshlang'ich tayyorlov guruhlarida va o'quv-mashg'ulot guruhlarida 3 soat;
- haftasiga 20 soat va undan ortiq yuklanmalar bo'lgan guruhlarda 4 soat, kuniga ikki martalik mashg'ulotlarda – 3 soatdan oshmasligi lozim.

O'quv-mashg'ulot guruhlarining uchinchi o'quv yilidan boshlab, tryyorgarlik davri (o'tish, tayyorlov, musobaqa)ga bog'liq ravishda haftalik o'quv-mashg'ulot yuklanmali umum yillik o'quv rejasi doirasida oshirilishi yoki kamaytirish mumkin. Haqiqatdan ham, ta'til paytida va sport sog'lomlashtirish oromgohlarida bo'lish davrida, o'quv-mashg'ulot to'planishlari vaqtida o'quv

Sport pedagogik mahoratini oshirish

yuklanmasi shunday mo'ljal bilan oshirilishi bunda har bir guruhlarinig yillik rejasining umumiy hajmi to'liq bajarilishi kerak.

Sport maktablarida o'quv-mashg'ulot ishining asosiy shakllari quyidagilar hisoblanadi: guruhiy mashg'uotlar; individual mashg'u-latlar; turli darajadagi musobaqalarda qatnashish; nazariy mashg'uot-lar (suhbat, ma'ruza, kinofilmlar, kinokolsovkkalar, kino yoki videotasmani ko'rish va tahlil qilish, musobaqalarni tomosha qilish shaklida); sport-sog'lomlashtirish oromgohlari, o'quv-mashg'uot to'planishlari sharoitlari; tibbiy tiklanish tadbirlari; madaniy-ommaviy tadbirlar; tanlov va ko'rikarda qatnashish. Katta yoshdagi guruhlar sportchilari musobaqalar hakamligida qatnashishlari lozim va murab-biy yordamchisi sifatida mashg'uot darslarining ayrim qismlarini olib borishga jalg qilishlari mumkin.

Yuqori klassli sportchini tayyorlash ko'p yillik tayyorgarlik tizimi samaradorligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lib, uni o'quv dasturlari asosida sport maktablarida amalga oshiriluvchi, oqilona tashkil qilingan bolalar, o'smirlar, yoshlar va katta yoshdagi sportchilarni o'qitish, tarbiyalash va mashg'uot olib borish jarayoni sifatida belgilash mumkin.

Sportchining ko'p yillik tayyorgarligi faqat odam rivojla-nishining yoshi o'ziga xos hususiyatlari, uning tayyor bo'lish darajasi, tanlangan sport turining o'ziga xos xususiyatlari, harakat ko'nikmalari va mahoratining shakllanishini puxta hisobga olgandagina muvuf-faqiyatli amalga oshishi mumkin. Yosh sportchilarning tayyor bo'lishidagi turli tomonlarining rivojlanishi bir tekis kechmaydi. Biror yoshda bir xil sifatlar ustunlik qilsa, ikkinchisida boshqalari ustunlik qiladi. O'smirlik yoshida barcha sifatlarning rivojlanishi uchun qulay yashirin imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Yosh sportchilarning jismoniy sifatlari rivojlanishiga pedagogik ta'sir qilish ularidan ba'zilarining yanada to'liqroq namayon bo'lishiga imkon berib, ularning ortishi yosh rivojlanishining u yoki bu bosqichida yanada yaqqolroq ifoda-lanadi. Yosh sportchilarning harakat qobiliyatlari va jismoniy sifatlarining rivojlanishi uchun sensitiv (qulay) davrlarda saylanma-yo'naltirilgan yuklanmalardan foydalanish zarur. 2-jadvalda mifik

yoshidagi bolalarda harakat funksiyalari rivojlanishining sezgi fazalari topografiyasi keltirilgan.

2-jadval

Maktab yoshidagi bolalarda harakat funksiyalari rivojlanishining sezgi fazalari (A.A. Gujulovskiy bo'yicha)

Jismoniy sifatlar	Yosh davrlari (yosh)												
Kuch	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•
Chaqqonlik	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•
Tezlik-kuch sifatlari	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•
Turg'un holatdagi chidamlilik	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•
Harakatdagi chidamlilik	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•
Umumiyligi chidamlilik	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•
Egiluvchanlik	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•
Muvozanatlar	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•	•

Shartli belgilar:

+ - subkritik va kritik davrlar;

• - past sezgi fazasi;

.. - o'rta sezgi fazasi;

... - yuqori sezgi fazasi.

Sport pedagogik mahoratini oshirish

Yuqori qatorda o'g'il bolalar, past qitorda qiz bolalarda harakat funksiyasi rivojlashining sezgi fazalari keltirilgan. Bu ma'lumotlarni hisobga olish murabbiyga u yoki bu jismoniy sifatning ushlanib qolishini eng past darajaga tushirish imkonini beradi.

Ko'p yillik mashg'ulot jarayonini muayyan qonuniyatlargacha bo'ysinuvchi bir butun jarayon sifatida, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan, o'z rivojlanishi yo'li mavjud bo'lgan bir butun tizim sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Tayyorlarlikning yo'nalishi ustunliklariga bog'liq ravishda sportchilarni ko'p yillik tayyorlash jarayonini shartli to'rt bosqichga bo'lingan: boshlang'ich tayyorlov bosqichi, chuqurlashtirilgan sport mutaxassisligi bosqichi, sport takomillashuvi bosqichi, yuqori sport mahorati bosqichi.

Bosqichlar davomiyligi sport turining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, shug'ullanuvchilarining sportga tayyor bo'lish darajasiga bog'liq bo'ladi. Bosqichlar orasida aniq chegara mavjud emas. Bosqichlardan har biri o'z vazifalari, usullari va tayyorlarlik vosita-lariga ega bo'ladi.

Boshlang'ich tayyorlov bosqichi

Bu bosqichning asosiy vazifalari qo'yidagilar hisoblanadi: har tomonlama jismoniy tayyorlarlik, yosh sportchilar sog'lig'ini mustahkamlash va ularni chiniqtirish, shuningdek, sport turi texnikasi asoslarini va boshqa jismoniy mashqlarni egallash har tomonlama tayyorlarlik asosida funksional tayyor bo'lish darajasini oshishi; mehnatsevarlik va intizomni tarbiyalash; sport mashg'ulotlariga qizi-qishni hosil qildirish.

Mashg'ulotning asosiy usullari quyidagilar hisoblanadi: bir tekisdagi, o'zgaruvchan, doiraviy, takroriy o'yinlar.

Mashg'ulot vositalari: ochiq havodagi o'yinlar, gimnastika mashqlari, kross yugurish, maxsus mashqlar, o'quv-mashg'ulot musobaqalari.

Ushbu bosqichda sportchilar texnik usullarning asosiy guruh-larini va taktik tayyorlarlik yo'llarini o'rganishlari lozim. Bu davrda sportchilarning harakat texnikasini bir xil tutib turishga urinmasdan, balki taktik harakatlarini yanada o'zlashtirish va takomillashtirishga har tomonlama texnik asos solish zarur.

Bolalar odatda bevosita namoyish qilish va murabbiyning tushuntirishlaridan so'ng texnik usullarni yaxshi o'zlashtiradilar. Shuning uchun murabbiy ko'p miqdordagi usullarni namoyish qilish mahoratiga ega bo'lisi zarur. Egallangan texnik harakatni yanada yaxshi mustahkamlash uchun bolalarga harakatni namoyish qilishlari yoki uni bajarish ikir-chikirlarini so'zlab berishni taklif qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich tayyorlov bosqichida yangi texnik usullarni o'rganishda bolalarni o'rganishda bolalarning texnikani tushunishlari va uning ikir-chikirlarini tushuntirishlari uchun ko'proq yaxlit usul qo'llash kerak.

Ushbu davr harakat chaqqonligi va tezligini tarbiyalashda qulay hisoblanadi. Bu davrda epchilikka katta e'tibor ajratish zarur, chunki epchillik murakkab texnik-taktik harakatlarni muvaffaqiyatli egallab olishga asos yaratadi. Odatda yosh sportchilarning bo'y o'lchamlari va gavda massasi kuch o'sishini ortda qoldiradi. Kuchni tarbiyalash uchun kuchanish va uzoq vaqt zo'riqishni mustasno qiluvchi mashq-larni tanlash zarur. Bu davr egiluvchanlikni tarbiyalash uchun qulaydir, chunki 13 yoshlarga kelib bo'g'imlardagi egiluvchanlik va harakat birmuncha pasayadi. Egiluvchanlikni tarbiyalash uchun umumrivojlantiruvchi va maxsus mashqlar, sherik bilan bo'lgan, anjomlar bilan va ularsiz mashqlardan foydalilanadi.

Ushbu bosqichda mashg'ulot jarayonini tashkil qilishda tiklash tadbirlarini ham ko'zda tutish zarur. Ularga mashg'ulot darslaridan keyingi suv muolajaliri, chiniqish, suzish, hammom va toza havoda mashg'ulotlar o'tkazish kiradi.

Chuqurlashtirilgan sport mutaxassisligi bosqichi

Bu bosqichni asosiy vazifalari sportchilarni har tomonlama jismoniy tayyorlash, sog'liqni mustahkamlash, umumiyl chidamlilik va tezlik-kuch sifatlarini tarbiyalash, asosiy texnik-taktik harakatlarni egallah, maxsus chidamlilikni tarbiyalash, musobaqa tajribasiga ega bo'lish hisoblanadi.

Bu bosqichda bir tekisdagi, o'zgaruvchan, takroriy o'yinlar, musobaqa, doiraviy mashg'ulot usullari asosiy hisoblanadi.

Sport pedagogik mahoratini oshirish

Mashg'ulot vositalari: sport o'yinlari, kross yugurish, maxsus mashqlar, akrobatika mashqlari, katta bo'limgan og'irlikdagi mashqlar o'quv-mashg'ulot musobaqalari.

Ko'pgina mutaxasislarning isbotlashicha, chuqurlashtirilgan sport mutaxassisligi bosqichda har tomonlama mashg'ulot katta samara beradi.

Mashg'ulot jarayonini rejalashtirishda texnik-taktik tayyorgar-likka ko'proq vaqt ajratish zarur, chunki sportchi texnik harakatlari-ning keng fazasini egallab olishi lozim. Bu davrda eng boshidan sportchilarni texnik harakatning to'g'ri biodinamik tuzilishiga o'rgatishga intilish zarur.

Lekin texnik tayyorgarlikda g'alaba ko'p jihatdan sportchining jismoniy sifatlari rivojlanishining eng qulay nisbatlariga bog'liq ekanligini hisobga olish kerak. Bu davrda berilgan mashg'ulot jarayoniga ochiq havodagi sport yo'inlari, shuningdek, berilgan sport turida muhim ahamiyatga ega jismoniy sifatlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan maxsus mashqlarni kiritish hisobiga chaqqonlikni tarbiyalashni davom ettirish zarur. Bu davrda yosh sportchilarning tezlik-kuch sifatlarini rivojlantirishlariga katta e'tibor qaratilib, buni ular o'z texnik harakatlarida amalga oshira bilishlari shart. Bu bosqichda, shuningdek, sportchilarning egiluvchanligini rivojlanti-rishni davom ettirish lozim. Egiluvchglikni tarbiyalashning asosiy vositalari harakatlar kengligini oshirishga imkon beruvchi cho'zilish mashqlari hisoblanadi.

Mutaxassislarning fikricha, mashg'ulotning bu davrida chidam-lilikni tarbiyalashga e'tibor qaratish zarur. Umumiy chidamlilikni tarbiyalash vositalariga qo'yidagilar kiradi: kross yugurish, sport o'yinlari, suzish. Sport mashg'ulotlarida epchillikni tarbiyalash, yangi harakat ko'nikmalari, mahoratni egallah, vaziyat o'zgarganda harakat faoliyatini samarali qayta qurish qobiliyatini takomillashtirishga ahamiyatli o'rinni ajratish shart. Shuning uchun epchillikni tarbiyalash murakkab harakatlarning o'zaro mosligini o'zlashtirish va to'satdan o'zgaruvchi vaziyatlar talablariga to'g'ri keluvchi harakat faoliyatini qayta qurish qobiliyatlarini takomillashtirishni ko'zda tutadi.

Tiklash tadbirlari o'smirlarning mashg'ulot darslari va ularning kundalik faoliyatidagi dam olishning eng qulay tartibiga erishishga yo'naltirilgan. Bu – uqalash, hovuzda suzish, bug'li hammom (yaxshisi haftasida bir marta). Oqsil va darmondorilarga boy, sifatli ovqatlanish lozim.

Sport takomillashuvi bosqichi

Bu bosqichning asosiy vazifilari qo'yidagilar hisoblanadi: mashg'ulot yuklanmalari hajmi va jadalligini oshirish, texnik-taktik harakatlarni takomillashtirish, yetakchi jismoniy sifatlar rivojlanti-rishning eng yuqori darajasiga erishish, musobaqa tayyorgarligini takomillashtirish, mashg'ulot va musobaqalarda qiyinchiliklarni yengish jarayonida axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalash.

Mashg'ulotning asosiy usullari quyidagilar hisoblanadi: takroriy, doiraviy, o'zgaruvchan o'yin, musobaqa.

Mashg'ulot vositalari: o'quv-mashg'ulot musobaqlari, maxsus mashqlar, UJT va MJT vositalari, shtanga, rezina amortizatorlar bilan bo'ladigan mashqlar, musobaqa tasnidagi mashqlar, akrobatika va gimnastika mashqlari. Yosh sportchilar bu bosqichga texnik-taktik mahorat asoslarini egallagan holda keladilar, buning uchun sport-chining asosiy faoliyati harakat ko'naqmalarini takomillashitirishga qaratiladi. Sport turining o'rganilgan texnik usullarini ko'p marotalab takrorlash va o'quv-mashg'ulot jarayonida ularni samarali bajarishga erishish zarur. Shuning uchun ushbu bosqichda o'quv-mashg'ulot jarayonini maxsus vazifalar bo'yicha rejalashtirish mumkin. Sportchilarga musobaqa faoliyati taktikasi variantlari to'g'risida ancha to'liq ma'lumotlar berish zarur.

Sport takomillashuvi bosqichida jismoniy sifatlar tarbiyasiga katta e'tibor qaratish kerak. Qayd qilinganidek, sportda musobaqa faoliyatidagi muvaffaqiyatlar tezlik-kuch va maxsus chidamlilik sifatlariga ko'p darajada bog'liqdir. Sport takomillashuvi bosqichida tezliik-kuch sifatlarini tarbiyalashning quyidagi usullaridan foyda-lanish maqsadga muvofiqdir: dinamik kuchlanishlar usuli, takroriy usul. Yosh sportchilarda tezlik-kuch sifatlarini tarbiyalashda tuzilishi texnik-taktik harakatlarga yaqin bo'lgan jismoniy mashqlardan foydalanish kerak.

Sport pedagogik mahoratini oshirish

Mashg'ulotning tutash usulini qo'llagan tanlangan sport turi texnikasida tezlik va kuchni tarbiyalashni qo'shib olib borish maqsadga muvofiqdir.

Sportchining maxsus chidamliliginin tarbiyalash mashg'ulot jarayonining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Sportchining umumiyligi chidamliliginin tarbiyalashda quyidagi vositalar asosiy hisoblanali: kross yugurish, sport o'yinlari, suzish va boshq. Umumiyligi chidamlilikni tarbiyalashga yo'naltirilgan mashqlarni bajarishda yuklanmaning quyidagi besh komponentini nazarda tutish kerak:

- mashq jadalliligi (siljish tezligi);
- mashq davomiyligi;
- dam olish davomiyligi;
- dam olish tasnifi, dam olish to'xtamlarini faoliyatning boshqa turlari bilan to'ldirish;
- takrorlash soni.

Tiklash tadbirlari: o'qish, mashg'ulot darslari olishning eng qulay tartibiga rioya qilish; shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, chiniqish; uqalash, hovuzda suzish, bug'li hammom, to'g'ri ovqatlanish, darmondoriga boyitish.

Yuqori sport mahorati bosqichi

Bu bosqichning asosiy vazifasi – moslashuv jarayonlarining shiddatli yuzaga keltirishga qodir mashg'ulot vositalaridan eng yuqori darajada foydalanish.

Mashg'ulot ishi hajmi va jadalliligi yig'indisi kattaliklari eng yuqori darajaga yetadi, katta yuklanmali mashg'ulotlar keng rejalshtiriladi, musobaqa amaliyoti keskin ortadi. Mashg'ulotning bu bosqichi mashg'ulot jarayonini tuzishining alohida individual xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Muayyan sportchini tayyorlashning katta mashg'ulot tajribasi unga xos bo'lган xususiyatlari, tayyor bo'lishning kuchli va bo'sh tomonlarini har tomonlama o'rganish, tayyoragarlikning yanada samarali usul va vositalarini mashg'ulot yuklanmalarini rejalshtirish variantlarini namoyon qilishga yordam berib, mashg'ulot jarayoni samaradorligi va sifatini, va binobarin, sport yutuqlari darajasini oshirish imkoniyatini beradi.

Sportchilar tayyoragarligining ko'p yillik jarayonini samarali boshqarishda ko'p yillik dasturni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. 3-jadvalda eng yangi

ilmiy ma'lumotlarni hisobga olgan holda sportchilarning ko'p yillik tayyorgarligi dasturi keltirilgan. Ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarini hisobga olib tuzilgan dasturning ayrim tarkibiy qismlari o'quv-mashg'ulot jarayonining ko'prok ahamiyatli yo'nalganligini yanada asoslirok aniqlash, sportchilir tayyorgarligi jarayonida yo'nalish bo'lib hizmat qiladigan muayyan ko'rsatqichlarni belgilash imkonini beradi.

3-jadval

Sportchilarning ko'p yillik mashg'ulotlarini tuzish modeli

Tayyorgarlikning tarkibiy qismlari	Dastlabki tayyorgarlik bosqichi	Chuqurlash-tirilgan sport mutaxasisligi boshlang'ich bosqichi	Sport takomillashuvvi bosqichi	Yuqori sport mahorati bosqichi
Sportchilar	Sog'liq holati bo'yicha ya-roqli va shifokor tomonidan ruxsat berilgan yoshli kelganlar	Tanlangan sport turi bo'yicha mashg'ulotlarga qizi-qishini namoyon qil-gan va nazo-ratme'yoriytalablarni ba-jargan, o'smirlar razryadiga 10-12 yoshli sportchilar.	Jismoni y tayyor bo'lish, ruhiy tur-g'unlik va texnik-taktik mahoratning yuqori dara-jasi bilan tavsiflangan 17-18 yoshli I razryadli sport nom-zodlari va ustalari bo'lgan sportchilar.	Texnik-taktik, jtsmoniy tayyor bo'lishning yuqori darajasiga ega bo'lgan, mashg'ulot va musobaqa ja-rayonidagi katta jismoniy va ruhiy yuklanma-larga bardosh berishga qodir 20 yoshdan katta sport ustasi bo'lgan yuqori iqtidorli sport-

Sport pedagogik mahoratini oshirish

				chilar
Tayyor-lov guruhlari	Boshlang'ich tayyorlov guruhlari	O'quv-mash-g'ulot guruh-lari.	O'quv-mash-g'ulot guruh-lari	Yuqort sport mahorati guruuh-lari.
Murab-biylar	Saralash boshlang'ich tayyorgarlik tanlangan sport turi bo'yicha muntazam mashg'ulot- larga bo'lgan turg'un qizi- qishni shakl- lantirish usullarini egallagan mutaxasislar	Sport mash-g'ulotini re-jalashtirish texnologiya-si va qoidala-rini egalla-gan, guruh darslarini olib borish uslubiyatini yaxshi bila-digan muta-xassislar.	Sport mash-g'ulotini re-jalashtirish texnologiyasi va qoidalarini egallagan, guruh darsla-rini olib bo-rish uslubiyatini yaxshi biladigan mutaxassislar	Sportchilarni in-dividual tay-yorlash uslubi-yatini egallagan va yuqori mala-kali sportchi-larni tayyorlash tizimi asosiy tarkibiy qismla-rining o'zaro bog'liqligi va o'zaro bog'la-nishni yaxshi tushunadigan oliy malakali mutaxassislar.
Texnik-taktik tayyor-garlik	Mashg'ulot faoliyati asoslарining shakllanishi: sport turi texnikasi elementlarini egallah; sport turi taktikasi	Musobaqa faoliyatining asos texnik-taktik hara-katlarning taktik hara-katlari va ko'niqmalara rining shakllanishi.	Asos texnik-taktik hara-katlarning takomillashu-vi va indivi-dual xususi-yatlari hi-sobga olin-gan holda	Kutilishi mum-kin bo'lgan ra-qiblarning indi-vidual xususi-yatlari va tayyor bo'lishni hisob-ga olgan holda texnik-taktik harakatlar sama-

	to'g'risida umumiy tasavvur yaratish.		texnikaning shakllanishi; turli raqiblar bilan bo'lgan musobaqa faoliyati ko'-nikmalarini takomillashtirish va mas'-ul musoba-qalarda qatnashish ko'-niqmalari-ning shakl-lanishi.	radotliginioshiris h va taktik kombinatsiyalar hajmini kengaytirish; mas'ul masobaqalarda qatnashish ko'-nikmalarini takomillashitirish.
Mash-g'uloting asosiy usullari	O'yin, bir tekisdagi, takroriy.	O'yin, bir tekisdagi, o'zgaruv-chan, takro-riy, musobaqa	Bir tekisdagi, o'zgaruv-chan, takro-riy, oraliqli, musobaqa	O'zgaruvchan, oraliqli, musobaqa.
Mash-g'ulot jarayoni-ni tashkil etish shakllari	Kompleks yo'nalishdagi guruhiy o'qish va o'quv mashg'ulot dars-lari.	Kompleks yo'nalishda-gi guruhiy o'quv, o'quv mashg'uori, mashg'ulot darslari.	Saylanma va kompleks yo'nalishdagi individual o'quv-mashg'ulot, mashg'ulot va musobaqa darslari.	Saylanma yo'nalishidagi individual va individual-guruhiy mashg'u-lot, nazorat va musobaqa dars-larni.

Sport pedagogik mahoratini oshirish

Tayyor-garlik shartlari	Mos keluvchi jihozlari bo'l-gan sport zali, maydon-chalari, sport oromgohi.	Sport zali, maxsus ji-hozlar, trena-jyorlar, o'yin maydoncha-lari, sport oromgohi.	Chuqurlashti-rilgan tayyor-garlik bilan bog'liq ra-vishda ish, o'qish, kun-dalik tur-mushni max-sus tashkil qilish.	Saralash va ku-bok musobaqa-larni tizimida tayyorgarlik va qatnashishni hisobga olgan holda kundalik turmush, ish, o'qishni tashkil qilish.
Tayyor-garlik-ning maqsadi.	Jismoniy tar-biya va tan-langan sport turi bilan muntazam mashg'ulot-larga bola-larni jalb qilish, sport mashg'ulotla-riga turg'un qiziqishni shakllantirish	Har tomonla-ma jismoniy tayyorgarlik va sport turi texnikasi va taktikasini chuqur egal-lash asosida sport maho-ratini oshi-rishga zamin yaratish	Umumiy va maxsus tay-yor bo'lishni mamlakat terma jamo-asi talablari darajasigacha takomillashti-rish asosida sport maho-ratini oshirish va mamlakat terma jamoa-lariga chiqish	Tayyorgarlikni individuallashti-rish asosida Osiyo va xalq-aro yirik muso-baqalarda kutish mumkin bo'lgan eng yuqori tur-g'un natijalarga erishish.
Sport tayyor-garligi bo'yicha asosiy	Talabaga ja-vob beruvchi sifatga ega guruhlarini ajratib olish va to'plash	O'smir uchun 2-, o'smirlar uchun 1- va kattalar uchun 2- razryad-	Kattalar sport razryadi, SUN normativlari-ni bajarish va ularni tasdiq-	SU va XKSU normativlarini bajarish.

vazifalar		larni bajarish	lash.	
G'oyaviy va ma'-naviy tarbiya-ning asosiy vazifalari	Vatanparvar-lik tarbiyasi; sportga qim-matlik muno-sabatining shakllanishi; ma'naviy si-farlar: mehnatsevarlik, halollik, intizomlilik, onglilik, uyushqoqlik-ning shaklla-nishi; jamoa va o'rtoqlik, o'zini tutish madaniyati hissini tarbiyalash.	Vatanparvar-lik, Vatan va jamoa oldidagi burchhissini tarbiyalash; hayotiy nuq-tai nazarning shakllanishi, sport etikasining shakllanishi; sportga qimmatlilik mu-nosabatining shakllanishi; sportchilarni jamoat hayotida faol amaliy qat-nashish	"Sport" tavsi-fidagi xususiyatlar, tinchlikni mustahkamlashda sportning ahamiyatini tushunishini-shaklla-nishi.	Ijtimoiy onggi oshirish; g'oya, vatanparvarlik, fuqarolik histuyg'usi, O'zR xalqlari an'analiga sodiqlik, murakkab hayotiy vazyatlarida to'g'ri yo'l tutish, begona ta'sirlarga faol qarshitish, mamlakat ichki va tashqi siyosati maqsad va vazifalarini tushinish ko'niqmalaring shakllanishi.
Ovqat-lanish	O'z vaqtida, turli-tuman, darmondorilarga boy.		O'quv-mashg'ulot to'planishlari va musobaqalar sharoitlarida maxsuslashtirilgan, bajari-	Maxsuslashtiril-gan, darmondo-rilarga boy, bo'lajak musobaqalarga mos ravishda oshirilgan biologik

Sport pedagogik mahoratini oshirish

			ladigan yuk-lanmalarga mos.	qimmatga ega.
Tiklash vositalari	Pedagogik-sayr qilish, suzish, ochiq havodagi o'yinlar; fizioterapevtik – dush, hammom.	Pedagogik-sayr qilish, piyoda tu-rizm, velotu-rizm, suzish, eshkak eshish, o'yinlar, fizioterapevtik dash, hammom.	Pedagogik, fizioterapevtik dash, hammom, vannalar, o'zini-o'zi uqalash (qisman, umumiyy); farmokologik polidarmondorili, darmondorili damlamalar; ruhiy-gigiyenik-funktional musiqa, ruhiy terapiya.	Pedagogik, fizioterapevtik, farmokologik, ruhiy-gigiyenik-individual xususiyatlari, maqsadlari va bo'lajak musobaqlarni hisobga olgan holda.
Tibbiy va ilmiy-uslubiy ta'minot	Jismoniy rivojlanishni bosqichli tibbiy va pedagogik tekshiruv.	Chuqurlash-tirilgan tib-biy tekshiruv (ChTT), bosqichli joriy (JT) va tezkor tek-shiruv.	Musobaqa faoliyatini tekshirish (MFT), bosqichli kompleks tekshiriv (BKT)	MFT, BKT, ChTT va JT.

Nazorat tizimini: A) tayyorgarlik tizimini tashkil qilishda	O'quv guruh-larning to'la- ligi, darslar-ning munta-zamligi va unda qatna- shish.	O'quv gu- ruhlarning to'laligi, va ularni to'p- lash sifati, mashg'ulot yuklanmala- rining katta- ligi va yo'- nalganligini; mashg'ulot usullari.	Sportchilar tayyorgarligi soni va sifati, rejalashtiril- gan mashg'u- lot va muso- baqa yuklan- malarining bajarilishi	Tayyorgarlik bosqichini hisobga olgan holda sport- chilar tayyor bo'lishlarining terma jamoa a'zolari anda- zaviy tavsifla- riga mosligi.
B) nazi- riy tay- yorgar- likda	Mos o'quv uchun dasturda ko'zda tutilgan hajmda tanlangan sport turi nazariyasi va uslubiyati bo'yicha sinov.			
V) maxsus psixologik tayyorgarlikda	Sportchilarning sport faoliyati va qiziqish xususiyatlaridagi ahamiyatli omillarni ajratib olish; odoblilik, mehnatsevarlik, axloq madaniyati darajasini aniqlash; davomat, mashg'ulotlar, sport anjomlari, sportchilar, murabbiylar, atrofdagi odamlarga munosabatni nazorat qilish; irodaviy sifatlar rivojlanishi, his-hayajon holatlari va psixologik turg'unlikni o'zi boshqarish qobiliyati darajasini nazorat qilish.			
G) jis- moniy tayyorgarlikda.	Mos o'quv yili uchun dastur talablariga asosan umumiy va maxsus tayyorgarlik bo'yicha nazorat normativlarini bajarish.			
D) tex- nik-tak-	Sport turi texni- kasi va asoslarini	Musobaqa faoliyatida	Texnik-taktik ha-rakatlari-	Eng yuqori toifadagi mu-

Sport pedagogik mahoratini oshirish

tik tay-yorgar-likda	egallash darajasi	asos texnik-taktik harakatlar, ko'nikmalarini egallash darajasi	ning haj-mi, xilma-xilligi va samaradorligi, tex-nik-taktik harakatlar va ko'nik-malarni egallash darajasi, musobaqlarda qatnashish	sobaqalarda musobaqa faoliyati sharoitlarida texnik-taktik harakatlar samaradorligi va ishon-chligi.
E) musobaqa tayyor-garligida	Sport mahoratini turli mezon va ko'rsatkichlari bo'yicha sport natijalarining o'zgarish sur'ati, ishonchligi va turg'unligini nazorat qilish.			
Harakat-dagi chekla-nishlar	Tanlangan sport turi mashg'ulotlarida o'ziga xos harakat qobiliyatlarining mavjud emasligi, jismoniy rivojlanishdagi chetga chiqishlar va yoshga oid xususiyatlari	Jismoniy balog'at sababli organizm rivojlanishdagi funksional xususiyatlar: organizmning tayanch harakat va asab muskul a'zolari, yurak-	Individual iqtidorlik darajasi, ayrim tay-yorgarlik turlaridagi kamchilik-lar, mash-g'ulot va musobaqlarining eng yuqori	Individual ihtidorlilik, organizmning psixologik va funktsional. Zahiralari larajasi, oilaviy sharoit, o'qish va ish sababli qiziqishning o'zgarishi.

		qon-tomir va nafas olish tizimi rivojla- nishdagi no- mutanosiblik; irodaviy sifat- lar (qo'rq- maslik, tirish- qoqlik, meh- natsevarlik)- ning past darajasi	yuklanma- lariga mosla- shishdagi qiynchilik- lar, o'qish, ish, armiya xizmati sababli o'quv- mashg'u-lot va mu- sobaqalar-da qatna-shish im- koniyatiing yo'qligi	
--	--	--	---	--

O'z bilimini nazorat qilish uchun savollar:

1. Sport maktablari oldida qanday vazifalar turadi?
2. Sport maktablarida qanday sport guruhlari bor?
3. Sport-sog'lomlashtirish guruhlari oldida qanday vazifalar turadi?
4. Boshlang'ich tayyorlov guruhlariga sportchilarni qanday qabul qilinadi?
5. O'quv-mashg'ulot guruhlari qanday shakllanadi?
6. Yosh mezonlari va jismoniy qobiliyat nima?
7. Ko'p yillik tayyorlarlik bosqichlari:
 - a) boshlang'ich tayyorlov bosqichi;
 - b) chuqurlashtirilgan sport mutaxassisligi bosqichi;
 - v) sport takomillashuvi bosqichi;
 - g) yuqori sport mahorati bosqichi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

Asosiy adabiyotlar

1. Alan Lynn, Swimming: Technique, Training, Competition Strategy, USA, 2015, Crowood Sports Guides.
2. Scott Riewald, Scott Rodeo, Science of Swimming Faster, Darslik, 2015 United States: Human Kinetics.
3. Sheila Taormina, Swim speed strokes, Darslik, 2014, USA, Boulder, Colorado.
4. Alistair Brownlee and Jonatan Brownlee with Tom Fordyce, Swim, Bike, Run, London 2013 Penguin books.
5. Terry Laughlin, John Delves, Total Immersion: The revolutionary way to swim better, faster, and easier; 2016 Simon and Schuster.
6. Christine Alexander, Water Fitness Lesson Plans and Choreography, 2011; United States: Human Kinetics.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. "O'zbekiston sportchilarini 2020 yili Tokio (Yaponiya) shahrida o'tkazilgan XXXII yozgi Olimpiada va XVI Paralimpiya o'yinlariga tayyorlash to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi prezidenti Qonuni.
2. Mirziyoyev Sh.M., Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017 y. – 48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M., Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini tiklash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabil qilinganligini 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekab. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017 y. – 48 b.
4. Mirziyoyev Sh.M., Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim

ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. 2017 yil. 14 yanvar. –T.: “O’zbekiston” 2017 y. – 103 b.

5. Nechunaev I., “Plavanie: kniga – trener” 2013, Moskva.
6. Korbut V.M., Isroilova R.G., Voljin V.I. “Suzish” O’quv qo’llanma Toshkent 2017.
7. Geyger A.I., Po’latxo’jayeva M.I. Suzish sport turi bo’yicha musoboqalar o’tkazish qoidalari T-2014
8. Korbut V.M., Isroilova R.G., Voljin V.I. Suzish texnikasi va unga o’rgatish uslublari O’quv qo’llanma Toshkent 2010
9. Korbut V.M., Salimgareeva R.R., Geyger A.I. Ko’krakda krol usulida suzish texnikasini o’rgatish va takomillashtirish uchun mashqlar to’plami. T-2013y
10. Salimgareyeva R.R. Ko’p yillik tayyorgarlik tizimida suzuvchilarni saralash va yo’naltirish. Toshkent – 2015
11. Salimgareyeva R.R. Suzuvchilarning tezkorlik sifatini rivojlantirish. Toshkent – 2015

Internet saytlari

1. www.gov.uz – Ўзбекистон Республикаси хукумат портали.
2. www.lex.uz – Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси.
3. <http://www.summercamp.ru/> - научные статьи, доклады и примеры упражнений по плаванию
4. <http://www.swimming.ru/> - техника и методика обучения плаванию
5. <http://swimming.hut.ru> – учебные материалы по плаванию

MUNDARIJA

Annotasiya	3
Kirish	4
Fanga kirish	5
I.Sportcha suzish usullarini o'rgatish.	9
I.1. Suv zichligi va qarshiligi bilan tanishish mashqlari	12
I.2. Bosh bilan suvga tushish, shung'ish	15
I.3. Suvdan suzib chiqish va suv ustida yotish	17
I.4. Suvga nafas chiqarish	20
I.5. Sirpanishlar	21
I.6. Suvga o'quv sakrash	24
I.7. Ko'krakda krol suzish texnikasini o'rganish uchun mashqlar	27
I.8. Chalqancha krol suzish texnikasini o'rganish uchun bo'ladigan mashqlar	33
I.9. Brass texnikasini o'rganish uchun mashqlar	38
I.10. Delfin texnikasini o'rganish uchun mashqlar	42
I.11. Suzishning sportcha usullari texnikasiga o'rgatishning asosiy uslubiyati asoslari	47
II. Sportcha suzish texnika asoslari	55
III. Sportcha suzish usullari texnikasini takomillashtirish.	72
IV. Sportchilarining jismoniy sifatlari	83
IV.1. Texnikaviy tayyorgarlikni nazorat qilish	83
IV.2. Quruqlikda umumiy jismoniy tayyorgarlik	84
IV.3. Chigil yozish mashqlari	85
IV.4. Akrobatika mashqlari	88
IV.5. Chidamlilikni rivojlantirishning vosita va usullari	88
IV.6. Muayyan musobaqaga psixologik tayyorgarlik.	100
IV.7. Tezlikni oshirish	101
IV.8. Kuchni oshirish	102
V. Musobaqa tashkil etish asoslari.	106
VI. Sport trenirovkasining umumiy asoslari	113
Adabiyotlar ro'yxati	137

CONTENS

Annotation	3
Introduction	4
Introduction to the subject	5
I. Teaching methods of sport swimming	9
I.1. Introducing exercises with water compactness and resistance	12
I.2. Going down into the water with head, diving	15
I.3. Swimming up onto the water, lying on the surface of water	17
I.4. Breathing out into the water	20
I.5. Slippings	21
I.6. Jumping into the water	24
I.7. Exercises for teaching techniques of freestyle swimming	27
I.8. Exercises for teaching techniques of backstroke swimming	33
I.9. Exercises for teaching techniques of brass swimming	38
I.10. Exercises for teaching techniques of butterfly swimming	42
I.11. Main teaching technical principles of sport swimming	47
II. Technical principles of sport swimming	55
III. Developing technical methods of sport swimming	72
IV. Physical qualities of sportsmen	83
IV.1. Controlling of technical preparation	83
IV.2. General physical preparation on the land	84
IV.3. Warming – up exercises	85
IV.4. Acrobatic exercises	88
IV.5. Developing methods and ways of endurance	88
IV.6. Psychological preparation for the certain competition	100
IV.7. Increasing the speed	101
IV.8. Increasing the force	102
V. Organizing principles of the competition	106
VI. General principles of sport training	113
List of the literature	137

СОДЕРЖАНИЕ

Аннотация	3
Введение	4
Введение в предмет	5
I.Обучение спортивным способам плавания	9
I.1. Упражнения по освоению с плотностью и сопротивлением воды	12
I.2. Погружение в воду с головой, ныряние	15
I.3. Всплывание и лежание на воде	17
I.4. Дыхание в воде	20
I.5. Скользжения	21
I.6. Учебные прыжки в воду	24
I.7. Упражнения по обучению технике плавания кролем на груди	27
I.8. Упражнения по обучению технике плавания кролем на спине	33
I.9. Упражнения по обучению технике плавания брассом	38
I.10. Упражнения по обучению технике плавания дельфином	42
I.11. Основы методики обучения технике спортивных способов плавания	47
II. Основы техники спортивного плавания	55
III. Совершенствование техники спортивных способов плавания	72
IV. Физические качества спортсменов	83
IV.1. Контроль технической подготовки	83
IV.2. Общая физическая подготовка на суше	84
IV.3. Разминка	85
IV.4. Акробатические упражнения	88
IV.5. Средства и методы развития выносливости	88
IV.6. Психологическая подготовка к непрерывным соревнованиям	100
IV.7. Развитие скорости	101
IV.8. Развитие силы	102
V. Организация соревнований	106
VI. Основы спортивной тренировки	113
Список литературы	137